



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
INGLIZ TILI GRAMMATIKASI VA TARIXI KAFEDRASI

XODJAYOROV MALIK BERDIMURODOVICH

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI SINTAKTIK SINONIMIYA
HODISASINI TIZIMLI TADQIQI

5A 120102 Lingvistika(Ingliz tili)

Magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ko‘rib chiqildi va
himoyaga tavsiya etildi

Kafedra mudiri:
Jabborova Q.A.

_____, _____, 2015 – yil

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dotsent Qo‘ldoshev A.M.

TOSHKENT – 2015

MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| Kirish | 6 |
| I Bob. Tilshunoslik fani taraqqiyotini hozirgi bosqichida tillarni qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishning dolzarb muammolari | |
| 1.1. Tillarni qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishning ayrim nazariy muammolari..... | 14 |
| 1.2. Hozirgi zamon tilshunosligida sinonimiya hodisasi..... | 22 |
| I bob bo'yicha xulosa..... | 28 |
| | |
| II Bob. Hozirgi zamon ingliz va o'zbek tilshunosligida gap nazariyasining talqini | |
| 2.1. Sintaksis nazariyasining tilshunoslik taraqqiyoti hozirgi bosqichidagi holati..... | 30 |
| 2.2. An'anaviy grammatikada sintaktik aloqalar muammosi..... | 32 |
| 2.3. Gapning sintaktik tahliliga doir..... | 40 |
| 2.4. Ingliz va O'zbek tillaridagi fe'lli qurilmalarning qiyosiy tahlili..... | 44 |
| II bob bo'yicha xulosa..... | 48 |
| | |
| III Bob. Ingliz va O'zbek tillaridagi sinonimik strukturalarini funksional tadqiqi | |
| 3.1. Predikativ aloqalarning tabiati va ularni hozirgi zamon Ingliz va O'zbek tillarida ifodalanishi..... | 50 |
| 3.2. O'zbek tilidagi sintaktik strukturalarning funksional tavsifi..... | 62 |
| 3.3. Ingliz tilidagi erkin ikkilamchi predikatsiyaning sinonimiyaga munosabati..... | 68 |
| 3.4. Ingliz va O'zbek tillaridagi sintaktik sinonimiya hodisasini mantiqiy-gnosiologik masalalari..... | 75 |
| 3.5. Ingliz va O'zbek tillaridagi sifatdoshli predikativ qurilma va gaplar o'rtasidagi sintaktik sinonimiya..... | 80 |

| | |
|--|------------|
| 3.6. Ingliz va O'zbek tillaridagi gerundiyli predikativ qurilmalar va gaplar o'rtasidagi sintaktik sinonimiya..... | 90 |
| III Bob bo'yicha xulosa..... | 93 |
| Yakuniy xulosa..... | 95 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati..... | 100 |

KIRISH

Fan, texnika va texnologiyalar yutuqlar asosida ta'lim tizimini isloh qilishda davr sinovlaridan o'tgan ilg'or tajribalarni o'rganish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e'tiborga olgan holda ularning joriy etilishini ta'minlash raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omili sanaladi. Amaldagi Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja va fan dasturlarini takomillashtirish ehtiyoji ham ana shu islohotlar natijasida yuzaga keldi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida "Oliy ta'lim muassalarida chet tillarni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi" ishlab chiqilgan bo'lib, unda chet tillar bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlarini takomillashtirish va bosqichma-bosqich o'quv jarayoniga tatbiq etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumiyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi hujjatida til egallashga qo'yiladigan talablar va mezonlar e'tiborga olingan holda O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarini o'rganishning yagona maqsad va vazifalari belgilanib, chet tillari bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilari tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan Davlat ta'lim standarti talablari ishlab chiqildi. Chet tilini egallash darajalarini o'zida aks ettirgan mazkur standart, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi "Chet tillar bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar" to'g'risidagi 124-sonli qarori bilan tasdiqlandi.

Yangilanish jarayonida ta'lim tizimini mukammallashtirish maqsadida Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumiyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash" to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlari (CEFR – Common European Framework of Reference) va O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarni o'rganishga qo'yiladigan talablar e'tiborga olindi.

Ta'lim tizimi islohotining o'zbek modeli tamoyillarini belgilab bergan ushbu dasturdagi vazifalarni amalga oshirishda tilshunos olimlar ham o'z hissalarini qo'shmog'i lozim. Milliy dasturning asosiy maqsadi yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqboldagi vazifalarni ilgari surish va hal etishga qodir "kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan" (Kadrlar tayyorlash milliy dasturi)¹

Yetuk kadrlar tayyorlash, nutq madaniyatini shakllantirishning samaradorligini oshirish maqsadida til tizimiga oid hodisalarning tub mohiyatini aniqlash, ularning insoniy faoliyat jarayonida tutgan o'rni, bajaradigan vazifalarini ravshan tasavvur qilish ehtiyoji tug'iladi. Bu esa, o'z navbatida, til tizimini ilmiy tahlilning yangi metodologik g'oyalar zaminida tarkib topayotgan yo'nalishlar, uslublar asosida o'rganishni taqozo etadi.

Biz germanistika va umumiy tilshunoslikka oid muammolar yechimida jahon fani yutuqlariga suyanmog'imiz va ulardan unumli foydalanmog'imiz darkor. Jumladan, oxirgi yillarda til va nutq tizimlariga bir xil tegishli bo'lgan murakkab sintaktik qurilmalari orasidagi sinonimiya hodisasining kommunikativ ma'no xususiyatlari, tipologik-qiyosiy belgilarini o'rganishga bag'ishlangan qator tadqiqotlar bajarildi (Conrad and Schousboe, 1992; Cook, 1992; Allan, 1986; Золотова .,1998;).

Biroq hali bu sohada bajarilishi lozim bo'lgan ishlar ham anchagina. Tilshunoslik fanida asosiy e'tibor pragmatolingvistik, kognitiv tilshunoslik tadqiqotlariga hamda til hodisalari mazmuniy tomonining tahliliga antroposentrik yondashuv yo'nalishlari taraqqiy etayotgan bir paytda (Демьянков, 1995; Зарецкая, 1998; Исламджанова, 2000;) o'zbek tilshunoslari ham bu sohadalardan chetda qola olmaydilar.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tilshunoslik fani taraqqiyoti ana shu yo'nalishdan bormoqda, asosiy e'tibor til birliklarining sistem-semantik xususiyatlari, ularning matnda bajaradigan vazifalari va turli til birliklari

¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T: Sharq. 1997-35b.

o'rtasidagi sinonimiyani tahlil qilishga qaratilmoqda (Abduazizov, 2005; Bozorov, 1997; Mahmudov, Nurmonov, 1995; Jusupov, 1991; Bushuy, Mamatov, 1990; Tursunov, 1993; Sayfullayeva, 1997).

Shuning bilan bir qatorda, lisoniy hodisalarning kommunikativ voqelikda sodir bo'luvchi sinonimik strukturalarining pragmatik xususiyatlari, ularning inson faoliyatida muhim o'rin egallashini ta'minlovchi ko'rsatkichlarini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotlar ko'lami tobora kengayib bormoqda (Ashurova, 2010; Safarov, 2010; Rasulova, 2004;), ammo bu turdagi tadqiqotlarda asosan qo'shma gaplar o'rganilib ularga vazifadosh bo'lgan sinonimik konstruksiya va gaplar qurilmalari esa qariyb nazardan chetda qolib ketmoqda (Hoshimov, 2002). Vaholanki, ushbu ko'rinishdagi sinonimik qurilmalar o'z sintaktik, vazifaviy va kommunikativ xususiyatlariga ega bo'lib, ular nutqiy muloqot matnlarida turli ma'no va pragmatik mazmun egasi sifatida faollashadilar.

Shunday qilib, **mavzuning dolzarbligi** hozirgi zamon ingliz va o'zbek tillarida sintaktik yarus elementlari, gap va boshqa predikativ qurilmalarning pragmasemantik guruhlari, ular o'rtasidagi turli ko'rinishdagi aloqalar va ularga oid birliklarning matnda ifodalanadigan mazmuni hozirgi zamon tilshunosligida yetarli darajada chuqur o'rganilmaganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida har tomonlama komil insonni tarbiyalashning umumfalsafiy va umumpedagogik konsepsiyasi hamda fan, madaniyat, ta'lim-tarbiya sohasidagi taraqqiyotning istiqbolli yo'nalishlari belgilab berilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning nazariy asarlari, davlat qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlar tanlandi.

Bundan tashqari, sintaktik yarusdagi sinonimik strukturalarning tasnifiy belgilarini aniqlash va ularni semantik guruhlarga ajratishda umumfalsafiy bilish nazariyasini lisoniy tahlilga tadbiiq qilish tamoyillariga amal qilindi (Колшанский, 1990; Морковкин, 1994; Charniak, 1978; Wierzbicka, 1992; Сахарный, 1997; Abduazizov, 2007; Ashurova, 1991; Кубрякова, Е.С. 2006; Аритюнова, Н.Д. 2000.).²

² Колшанский Г.В. Объективная картина мира в познании и языке, - М.: Наука, 1990. -15с.

Mamlakatimiz olimlarining xorijiy tillarining nazariy masalalariga oid (Abduazizova A.A., Ashurova D.U., Bo'ronov B.J., Mamatov A.E., Nazirova Sh.A., Rasulova M.I., Safarov Sh.S., Umarxo'jayev M., Yusupov U.Q., va boshqalar) fikr-mulohazalariga ham tayaniladi.

Tadqiqot maqsad va vazifalari sinonimik sintaktik struktura ko'rinishdagi qurilmalarining semantik tuzilishi va ularning matndagi rolini o'rganishdir. Ushbu yo'nalishda bajarilayotgan tadqiqot sinonimik sintaktik strukturalarning ingliz va o'zbek tillari sintaktik tizimida tutgan o'rnini belgilash hamda bu shakldagi qurilmalarning umumlisoniy va xususiy ko'rsatkichlarini farqlash maqsadini ham nazarda tutadi.

Ko'zlangan maqsadga binoan tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- sinonimik sintaktik strukturalarning sintaktik tabiatini namoyon qiluvchi lisoniy va nolisoniy vosita-belgilar majmuasini aniqlash;
- sinonimik sintaktik strukturalarning ingliz va o'zbek tillari sintaksisi tizimidagi boshqa hodisalar, birliklar bilan munosabatini belgilash;
- Sinonimik sintaktik strukturalar tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabat asosida yuzaga keladigan ma'no xususiyatlarini farqlash va shu asosda sinonimik sintaktik strukturalarning semantik guruhlarini ajratish;
- Sinonimik sintaktik strukturalar qurilmalari vositasida ifoda qilinayotgan murakkab nutqiy harakatlar turlarini ajratish va shu yo'sinda ushbu qurilmalarning pragmasemantik mazmunini o'rganish;
- Murakkab tarkibdagi nutqiy harakatlarning matn tuzilishidagi faollashuv darajasini o'rganish hamda matn tarkibining pragmalingsvistik tadqiqida tutgan o'rnini belgilash.

Морковкин В.В. Морковкина А.В. Язык, мышление и сознание et vice versa//Русский язык за рубежом.1994. №1. – с 8-14.

Charniak E. On the Use of Framed Knowledge in Language Comprehension//Artificial Intelligence. 1978.vol.2(3). – p.225-265.

Сахарный Л.В. Текст – Мозг – Образ мира//XXI Международный симпозиум по психолингвистике и теории коммуникации. – М., 1997, -с. 140-141.

Абдуазизов А.А. О составных частях когнитивной лингвистики//хорижий филология. – Самарканд.,СамГИИЯ, 2007, -№3(24). С.5-6.

Ашурова Д.У. Производное слово в свете коммуникативной теории языка. Т.: Фан, 1991, -98с.

Bunday tadqiqot vazifalarining uzviy ravishda amalga oshirilishi, sinonimik sintaktik strukturalarning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq va ob'ektiv tarzda bayon qilishga, ularning shakliy va ma'no xususiyatlarining uyg'unlashuvi zaminida faollashuvchi kommunikativ mazmun va mohiyatini o'rganishga imkon beradi.

Tadqiqot ob'ektini hozirgi ingliz va o'zbek tillari tizimi va nutqiy faoliyatda keng ko'lamda uchraydigan sintaktik sinonimik qurilmalar tashkil qiladi.

Tadqiqot predmetini ingliz va o'zbek tillari sintaktik tizimiga oid turli sinonimik qurilmalar –til elementlari, gap va konstruksiyalarning semantik-kommunikativ talqinini tashkil qiladi.

Ushbu tadqiqotga sintaktik sinonimik strukturalarning lisoniy tabiati, semantik tarkib va kommunikativ maqsadni ifodalovchi pragmatik mazmun asosida shakllanadi degan **ilmiy faraz** asos bo'ladi.

Tadqiqot quyidagi tahlil **metodlaridan** foydalaniladi:

- Transformatsiya –o'rin almashtirish metodi (turli sintaktik sinonimlar strukturaviy qismlarining o'zaro munosabatini hamda ularni biriktiruvchi sintaktik aloqa turini aniqlash maqsadida) ;
- Qiyoslash metodi (sinonimik sintaktik strukturalar semantik guruhlarini ajratish maqsadida);
- Matn tahlili metodi (sinonimik sintaktik strukturalarning pragmasemantik xususiyatlarini aniqlash va ularning matn tarkibidagi vazifasini o'rganish maqsadida).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, ingliz va o'zbek tillarida sinonimik sintaktik strukturalarining semantik va pragmatik mohiyati va mundarijasi ilk bor yagona bir butunlikda, til birliklarining nutqiy muloqot jarayonida faollashadigan lisoniy hodisa sifatida talqin qilinishida namoyon bo'ladi. Sinonimik sintaktik strukturalarni pragmaligvistika va matn tilshunosligi nuqtai nazaridan tadqiq qilinishiga alohida ahamiyat berib, murakkab nutqiy

harakatlarning kommunikativ maqsad va mazmun ifodalashda bajaradigan vazifalari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mustahkam metodologik asosga, ishonchli ilmiy konsepsiyaga suyanadigan tahlil uslublaridan foydalanish sinonimik sintaktik strukturalar tizimi birliklarining umumiy va xususiy belgilari haqida yangi xulosalar, fikr-mulohazalar bildirish imkonini beradi. Ob'ektiv metodlarga asoslanib, boshqa olimlarning ishlariga tayaniladi.

Tadqiqot materiali vazifasini ingliz va o'zbek tillarida yozilgan badiiy asarlar matni o'tadi: 14 dan ortiq asarlardan 100 dan ortiq misol yig'ildi va ular turli guruhlarga taqsimlangan holda tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Uning natijalaridan ingliz tilini o'qitishning nazariy kurslarida va amaliyotida foydalanish imkoniyatida ko'rinadi. Tadqiqotda bildirilgan fikr-mulohazalar ingliz va o'zbek tillari grammatikasi darsliklarida mavjud bo'lgan sinonimik strukturalar sintaksisiga oid qator muammoli masalalar yechimini topish imkonini beradi. Bundan tashqari, dissertatsiya materialidan, ayniqsa, uning pragmatolingvistik tahlilga oid qismidan, nutqiy muloqot sintaksisi sohasidagi qo'llanmalarni yaratishda va maxsus mashqlar to'plamlarini tuzishda foydalanish tavsiya qilinadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi **xulosaviy mulohazalar himoyaga taqdim etiladi:**

1. Sinonimik sintaktik strukturalar hozirgi zamon ingliz tili sintaksis qurilishining umumiy qonuniyatlari asosida shakllanadigan alohida turdagi nutqiy qurilmadir.

2. Sinonimik sintaktik strukturalar qismlari o'rtasidagi semantic munosabat voqeligida ketma-ket kechayotgan hodisalarni mantiqan qiyoslash yoki qarama-qarshi qo'yish asosida namoyon bo'lsa, sintaktik munosabat esa tashqi koordinativ aloqa, ya'ni teng bog'lanish ko'rinishini oladi.

3. Sinonimik sintaktik strukturalarning paradigmatic tasnifi ularning sintaktik mazmuni haqida faqat dastlabki ma'lumotni beradi, ushbu qurilmalarning

lisoniy mohiyatini to'liq o'rganish uchun sistem-strukturaviy va kommunikativ xususiyatlar yaxlit majmua sifatida talqin qilinishi lozim.

4. Sinonimik sintaktik strukturalar qismlari o'rtasidagi mantiqiy munosabatlar temporal (zamon), sabab-oqibat, shart kabi ko'rsatkichlarga ega bo'lsa, ular orasida hosil bo'ladigan mazmuniy munosabatlarda o'xshatish, solishtirish va birikish ma'nolari ifodalanadi.

5. Qismlar o'rtasidagi shakliy simmetriya va ma'no mutanosibligi hodisalari sinonimik sintaktik strukturalarning semantik-strukturaviy turlarini farqlashning asosiy ko'rsatkichidir.

6. Sinonimik sintaktik strukturalari qurilmalari vositasida muloqot jarayonida murakkab tarkibli nutqiy harakatlar ifoda etiladi va ushbu turdagi nutqiy harakatlar shakllanishida tinglovchiga maqsadli ta'sir o'tkazish rejasi asosiy o'rinni egallaydi.

7. Koordinativ munosabatdagi murakkab nutqiy harakatlar tarkibida birikayotgan sodda harakatlar pragmasemantik ma'no jihatdan o'zaro bir-birini to'ldirish, aniqlash munosabatlarida bo'ladi. Ma'lum muloqot sharoitida ifodalanadigan kommunikativ maqsad faollashuviga binoan qismlar o'rtasida o'ziga xos yetakchilik va tobelik munosabatlari ham yuzaga kelishi mumkin.

8. Murakkab nutqiy qurilmaning matn tuzilishidagi ishtiroki uning tarkibidagi deyktik vositalarning o'rni va ifodalanayotgan pragmatik ma'no xususiyatlari bilan bog'liq.

9. Sinonimik sintaktik strukturalarning muloqot matnidagi faollashuvi jarayonida yuzaga keladigan qismlarning o'rin almashinuvi, takrorlanishi, qisqarishi, darajalanishi kabi hodisalar ushbu nutqiy qurilmalarning pragmalingsvistik mohiyatini shakllantiruvchi vositalardir.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi:

Mazkur magistrlik dissertatsiyasi natijalari quyidagi to'plamlarda chop etilgan:

1) Sintaktik sinonimiyani yuzaga keltiruvchi kontekstual omillar//Zamonaviy tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va xorijiy tillar o'qitishning muammolari III – ilmiy-amaliy konferensiyasi – T; 2014y, 300b

2) On some features of syntactical synonymy in English//Zamonaviy tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va xorijiy tillar o'qitishning muammolari IV – ilmiy-amaliy konferensiyasi – T; 2015y, 263b

Dissertatsiyaning tarkibi:

Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. TILSHUNOSLIK FANI TARAQQIYOTINING HOZIRGI BOSQICHIDA TILLARNI QIYOSIY-TIPOLOGIK JIHATDAN O'RGANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

1.1. Tillarni qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganishning ayrim nazariy muammolari.

Hozirgi zamon tilshunoslik fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri va, bizningcha, eng muhimi “eng kichik kommunikativ til birligi”³ bo'lmish gapning tabiatini mufassal o'rganish va shu asosda tilning umumiy nazariyasini va tilning tafakkur bilan munosabatini bilishga yordam beruvchi umumahamiyatga molik bo'lgan nazariy tizimni yaratishdir.

Tillarning tipologiyasini o'rganish faqatgina har xil strukturaga va alomatlarga ega bo'lgan barcha tillarning tipologik klassifikatsiyasini yaratish bilan birga ularning asosiy glottogonik (kelib chiqish) tarraqqiyotini ham aniqlashga yordam beradi.⁴

Hozirgi zamon tilshunosligining muhim va asosiy bir qismi hisoblanuvchi tillar tipologiyasi hozirgi lingvistik tadqiqotlar ichida katta o'rin egallaydi, chunki u jonli, faktik materialga asoslanib, u yoki bu hodisaning tabiatini aniqlashga xizmat qiladi.

Dunyodagi barcha mavjud tillarning tipologiyasini o'rganish, turli tizimga mansub tillarning o'xshash va farqli jihatlarini tekshirish tipologiyasi va barcha tillar uchun umumiy bo'lgan universal konstantlarni aniqlash masalalari tilshunoslar oldiga konkret tillarning tipologiyasi va ularni qiyosiy-tarixiy jihatdan guruhlarga bo'lish vazifasini qo'yadi.

Hozirgi zamon tilshunosligida turli strukturadagi tillarni qiyoslashga asoslangan grammatik tadqiqotlar tillarda mavjud bo'lgan barcha ahamiyatga molik bo'lgan xususiyatlarning hammasini qamrab ololmaydi, va shu tufayli,

³ Б.С.Хаймович, Б.И.Роговская. Теоретическая грамматика английского языка. М., Высшая школа, 1967, с.298.

⁴ Ж.Б.Буранов. Сравнительная типология английского и тюркских языков. Б.ВШ.1983.

boshqa ko'pgina o'rganilayotgan tillardagi xususiyatlardan kelib chiquvchi yangi yo'nalishlarga asoslanishi talab qilinadi. Faqatgina har bir konkret tildagi yoki qardosh guruh tillaridagi tipologik alomatlarni aks ettirish orqali tadqiqotchi har xil tizimdagi tillarni tipologik qiyoslash, ulardagi universal va urg'u berilishi lozim bo'lgan alohida xususiyatlarni aniqlash mumkin.

Biror tildagi faktlarni boshqa sistemadagi til bilan struktural-tipologik qiyoslash ko'pincha tildagi hodisalarning alomatlarini to'g'ri aks ettirishga to'sqinlik qiladi. Bunga misol qilib, hozirgi turkiy tillar grammatikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda sifatdoshli o'ramlar kategoriyasini ergash gaplar bilan qiyoslab, ularning faqat ma'no jihatdan to'g'ri kelishini va bir-biriga sinonim deyishlarini ko'rsatish mumkin. Konkret tillarni va qarindosh tillarni tadqiq etishda ularning tipologik xususiyatlarini aniq belgilash tilshunoslikning umumiy masalalarini, xususan, til va tafakkurning aloqasini, tilning kelib chiqishini, umumiy tipologik universalialarni aniqlashni talab qiladi.

Hozirgi tilshunoslikda barcha yo'nalishlar uchun bir xil va umumiy bo'lgan, asosan struktura va model, bosqich va yarus, sistema, grammatik va leksik kategoriya, shakl, formant va hokazo uchun lingvistik terminologiya bir xil bo'lmagani tufayli, bu asosiy tushunchalarning asl ma'nosi va ularga to'g'ri keluvchi terminlarni ushbu tadqiqotda belgilab o'tish lozim ko'rinadi. Struktura – kichik tizimlar va sistemalar yoki ularning yig'indisi aloqasining tarixiy shartlangan birligi bo'lib, u tilning yoki ayrim til birliklarining (gaplar, so'z birikmalari, so'zlar) qurilish arxitektonikasini xarakterlaydi. Tilning strukturasi tildagi barcha bosqichlarning aniq va tartibli o'zaro bog'lanishini ko'rsatuvchi farqlanish belgilarining yig'indisida aks etgan barcha elementlar va ularning bir-biriga munosabatini o'rganadi. Gapning morfologik strukturasi so'zning barcha elementlari va ular o'rtasidagi munosabat bilan izohlanuvchi farqlanish elementlari yig'indisida aks etgan tarixiy shartlangan birlikdir. Model eng konkretan eng abstraktgacha bo'lgan har xil pog'onadagi biron til strukturasi, uning biror bosqichida yoki tilning u yoki bu bosqich mikrostrukturasi umumlashtirishdagi tipologik tahlil birligidir. Tilning modeli, sintaktik,

morfologik, fonologik, leksik strukturasining modeli, gap, soʻz birikmasining modeli, soʻzning morfologik, leksik, fonologik strukturasining modelidir.

Tilning bosqichi va yarusi til strukturasining shartli ravishda analitik boʻlinish tomonidir. U tilning asosiy kichik strukturasidan biri boʻlib, bir-biri bilan oʻzaro maʼlum bogʻlanish va ierarxiya munosabatida organik bogʻlangan farqlanish belgilarining funksional qonuniyatlarini izohlaydi: sintagmatik yoki sintaktik bosqichi, morfema va morfologik bosqichi, semiotik yoki semasiologik bosqichi, fonemik yoki fonologik bosqichi.

Sistema bir-biriga boʻysundirilgan va umumiy qonuniyatlari tildagi shakl va maʼnoning bogʻlanishini taqozo etuvchi elementlarning va birliklarning yigʻindisidir.⁵ Masalan, sintagmalar sistemasi (soʻz birikmalari va gap sintagmasining kichik sistemasi), morfemalar sistemasi (oʻzak va affiksial morfemalarning kichik sistemasi), fonemalar sistemasi (unli va undosh fonemalarning kichik sistemasi) va hokazo. Turkiy va german tillarining grammatikasini tadqiq etish uchun leksika va sintaksis oʻrtasidagi aniq chegarani aniqlash, xususan, leksik va sintaktik kategoriyalarning mazmunini ifodalovchi morfologik koʻrsatkichlarni bilish ayniqsa zarurdir. Agar leksik tarkibda soʻzlarning munosabati morfologik leksikaga tegishli shakllarni ifodalay olsa, unda soʻzlarning munosabati – soʻz birikmalari va boʻlaklarini ifodalovchi shakllar sintaksisga tegishli boʻladi. Koʻrinib turibdiki, morfologiya oʻzining bir qismi bilan sintaktik vositalarni ifodalashga xizmat qilsa, boshqa qismi bilan leksik munosabatlarni ifodalaydi. Bu borada maʼlum terminologiyani belgilab olmoq zarurdek tuyuladi. Shu jihatdan quyidagi tushuncha va atamalar jiddiy ahamiyatga molikdir. Kategoriya, sintaktik kategoriya, leksik kategoriya, morfologik kategoriya, soʻz yasovchi kategoriya, hamda leksik va grammatik umumlashtirishning xususiy tushunchalari va ularga tegishli terminlar shular jumlasidandir.

Kategoriya leksik, sintaktik va morfologik munosabatlarni mavhum (abstrakt)roq bir maʼno bilan birlashtiruvchi umumiy tushunchadir: soʻz

⁵ В.М.Солнцев. Язык как системно-структурное образование. М. Наука, 1976.

birikmalari, gap kategoriyasi, ega, kesim, to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi, va hokazo kategoriyalar.

Leksik yoki leksik-grammatik kategoriya bir abstrakt ma'no bilan birlashgan konkret leksik munosabatlarning umumlashgan tushunchalarini aniqlashga yordam beruvchi farqlanish belgilarining yig'indisidir. Morfologik kategoriya so'z birikmalari yoki gap tarkibida ma'lum bir funktsiya bajaruvchi so'zga tegishli bir abstraktroq ma'noga birlashgan bir-biriga qarama-qarshi leksik yoki grammatik munosabatlarni ifodalovchi so'zlarning konkret shakllarini namoyon etuvchi affiksial morfemalarning yig'indisidir.

Barcha morfemalarni o'zak morfemalar va affiksial morfemalarga va keyingisi (affiksial morfemalar)ni so'z o'zgartiruvchi va so'z yasovchi morfemalar sifatida ikki sistemaga bo'luvchi, o'z navbatida, so'z yasovchi morfemalar sistemasi (podsystema) sifatida leksik-grammatik va funktsional grammatik morfemalarga dixotomik (ya'ni ikkitadan) jihatdan ajraluvchi barcha morfologik kategoriyalar yig'indisi tilning morfemalar yoki morfologik strukturasini xarakterlaydi.

So'z o'zgartiruvchi kategoriyalarga son, shaxs, kelishik va egalik kategoriyalariga tegishli bo'lgan so'z birikmalari yoki gaplar tarkibidagi so'zlarning sintaktik-grammatik munosabatlarni ifodalovchi kategoriyalar kiradi.

Shaxs va son kategoriyalari gap tarkibidagi sub'ekt – predikat munosabatini morfologik ifodalovchi, bir ma'noga birlashgan shaxs va son konkret shakllarining bir-biriga qarama-qarshiligini ko'rsatuvchi yig'indidan iborat.⁶

Kelishik kategoriyasi so'z birikmalari yoki gaplar tarkibida morfologik ifodalarni bir ma'no bilan birlashtiruvchi va konkret kelishik shakllarining bir-biriga qarama-qarshi qo'yish imkoniyatini beruvchi vositalar yig'indisidir. Egalik kategoriyasi esa so'z birikmalari va gaplar tarkibida morfologik jihatdan bir ma'noga birlashgan attributiv munosabatlarning bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan konkret egalik affikslarining yig'indisida ifodalanishidir.

⁶ Л.С.Бархударов. Очерки по морфологии английского языка, М., Высшая школа, 1975.с.28.

So'z yasovchi kategoriyalar leksik-grammatik va funksional grammatik kategoriyalarni ifodalaydi. Birinchi leksik-grammatik kategoriyalarga, masalan, bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan mayllar konkret shakllarining fe'ldagi sub'ekt va ob'ekt munosabatlari, ish-harakatni bir umumiy ma'no bilan ifodalovchi morfologik kategoriyalar kiradi. Qiyoslash darajalari kategoriyasiga ma'lum ma'noni ot bilan sifatning morfologik jihatini moslashtirishga xizmat qiluvchi o'zaro qarama-qarshi bo'lgan konkret shakllar kiradi.

Shakl ma'lum belgi yoki signalda ifodalangan, aniq ma'noga ega bo'lgan leksik va grammatik munosabatlarning konkret ishlatilishidir. Formant u yoki bu shaklni ifodalash vositasi bo'lgan tushuncha birligidir.

Tipologik tadqiqotlar har xil hajmda bo'lib, bir tildagi tipologik o'xshashlik va farqlarni uning dialektlarida aniqlash orqali shu tilning tipologik evolutsiyasidagi har xil darajalarini bilish mumkin. O'zaro qarindosh bo'lgan guruhni tashkil etuvchi tillarning qiyosiy tipologiyasidagi asosiy vazifa shu tillar strukturasiidagi umumiy tilni aniqlashdan iborat. Har xil guruhdagi tillar tipologiyasidan tortib, to dunyo tillarining umumiy tipologiyasigacha bo'lgan tadqiqotlar yordamida universal grammatika asoslarini ishlab chiqish mumkin.

Har bir konkret tilning tipologik tahlili yordamida undagi struktura va modelning xarakterli tomonlari, xususan, german yoki turkiy tillarning boshqa tillar bilan aloqalarini ko'ratuvchi abstrakt va substrakt xususiyatlar aniqlanadi.

Tadqiqotlar umumgerman yoki umumturkiy struktural etalon va tillar strukturasiidagi bo'lgan farqlarni, har xil modelni izohlovchi xususiyatlarni, ular orqali har bir til bosqichidagi umumiy struktural modellarining bir-biriga qiyosiy munosabatini o'rganishga asoslanishi kerak. Boshqacha aytganda, vazifa fonema, morfema, sintagmatik va semantik bosqichlardagi german yoki turkiy struktural modellarni o'rganish va aniqlash, shu guruhga oid tillardagi til tipini (namuna) yoki til etalonini yaratishdan iborat. Ya'ni shu tillarga umuman tegishli ideal strukturaning har xil davrda va har xil tarixiy sharoitda bo'lgan barcha yig'indisi va til bosqichlari aloqasi hamda ularni birlashtiruvchi barcha umumiy cheklanishlarni o'rganish va aniqlashdan iborat. Berilgan tillarning, xususan,

turkiy tillarning ideal strukturasi o'rganish va aniqlash uchun qo'shni boshqa tizimdagi tillar ta'siriga kam uchragan turkiy tillardagi xususiyatlarga asoslanmoq lozim bo'ladi.

Ideal struktura barcha hozirgi german yoki turkiy tillardagi umumiy tipni izohlaydi, ya'ni har bir german yoki turkiy tillarning ajralib chiqqan spesifik, xarakterli bo'lmagan xususiyatlari alohida tillardagi umumiy belgilarni ko'rsatadi. Biroq barcha german va turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan strukturaning asosiy xususiyatlari, juda bo'lmaganda, bir yoki bir necha konkret tillarda bo'lishi, shuningdek, birorta ham konkret tilga to'g'ri kelmasligi mumkin.

Shunday qilib, qiyoslashga tillardagi alohida kategoriyalarning barcha sistemasini o'z ichiga olgan ma'lum qarindosh guruhdagi tillarning umumiy strukturasi jalb etilishi zarur. Bundan ma'lum bo'ladiki, qarindosh guruh tillarini tadqiq etishda qo'llangan tipologik metod barcha tillar uchun bir xil darajada xarakterli bo'lgan umumiy strukturaning hosil bo'lishini o'rganishdagi qonuniyatlarini aniqlaydi. Barcha qarindosh tillar dialektlarida bor bo'lgan xususiyatlarni tipologik qiyoslash shu tillar umumiy strukturasi emas, balki har bir konkret til strukturasi va undagi ayrim fonetik, grammatik va leksik kategoriyalarni aniqlaydi.

Shunday qilib, tipologik metodlar alohida guruh tillardagi va ayrim tillardagi umumiy struktura tiplarini hamda tildagi alohida fonetik, leksik, morfologik va sintaktik hodisalarni o'rganishda qo'llanishi mumkin.

Sinxron-tipologik (hozirgi tillarni qiyoslash) tadqiqotlarda tillarning taraqqiyot jarayonlari chuqur o'rganilmaydi, lekin tillarga o'rgatish metodikasi yaratish, ilmiy va badiiy tarjima metodlarini yaxshilash kabi amaliy ishlar yoritiladi, chunki bunday qiyoslash aniq tarixiy jarayon natijasida hosil bo'lgan biror hodisaning asosini e'tiborga olmaydi.

Konkret tillarning tipologik grammatikasini o'rganish bir qancha boshlang'ich bosqichlardan iborat. U yuqorida aytib o'tganimizdek, tillarning umumiy grammatikasidagi har xil strukturalarini real faktlar va hodisalar

munosabatlaridan kelib chiqib, qandaydir chegara va sxemalar bilan cheklanmay, birinchi navbatda, konkret tilning umumiy struktura modelini aniqlashi zarur.

Konkret tilning umumiy struktura modelini bir qancha tadqiqotlar yordamida ancha aniqroq bilishi mumkin. Tillarning tipologik tahlili sintagmatik bosqichini, gap va soʻz birikmalarining sintaktik strukturasini tashkil etuvchi, uning asosiy birliklari hisoblanuvchi sintagmalarini aniqlashga yordam beradi. Soʻzlarning morfologik strukturasini hosil etuvchi, asosiy birligi morfemalar boʻlgan morfema bosqich modelini, soʻzlarning fonologik strukturasini tashkil etuvchi asosiy birligi fonemalar boʻlgan fonema bosqich modelini va soʻzlarning semantik strukturasini tashkil etuvchi, asosiy birligi semalar boʻlgan semantik bosqich modelini tillarni tipologik tadqiq qilish orqali aniqlash mumkin.

Til bosqichlarining asosiy struktura modellaridan fonema, morfema, sintagmatik va semantik modellari ichida keying ikkitasi xarakterli va asosiydir, chunki bu bosqichlar tilning grammatik strukturasini aniqlovchi soʻzlarning leksik va sintaktik munosabatlaridan asosiy shakllarni belgilaydi. Shu bilan birga, masalan, turkiy tillar strukturasini hisobga olish zarur, chunki har bir grammatik kategoriya umumiy strukturadan ayrim uzib olingan holda boʻlmay, shu strukturaning maʼlum tomonlarini oʻz ichiga oladi. Xususan, turkiy tillar leksikasi bilan sintaksisi bir-biri bilan uzviy bogʻliqdir, chunki hech boʻlmaganda, soʻz birikmalari va gaplar tarkibidagi soʻzlarning sintaktik aloqalari soʻzdagi morfemalarning munosabatiga izomorf holatda hisoblanadi. Soʻzning strukturasida har bir morfema leksik va grammatik aloqalari bilan bogʻliq maʼlum munosabatlarni ifodalaydi.

Shunday qilib, har bir tipologik va genetik guruhning maʼlum davrdagi taraqqiyot jarayonida ideal etalon strukturasini hosil boʻladi va u shu strukturani hamda shu guruh tillarining boʻljak taraqqiyotida roʻy beruvchi rivojlanish fazalarini aniqlab beradi.

Hozirgi davrda yer kurrasidagi tillarning strukturasini har xil boʻlgani sababli, tipologik qiyoslash va taqqoslash ularning taraqqiyotidagi xronologiyani aniqlashga yordam beradi. Bu faktlar tillar strukturasini taraqqiyoti eng oddiydan

eng murakkabgacha bo'lgan "to'g'ri yo'ldan" emas, balki spiral shaklda rivojlanganini ko'rsatadi. Masalan, boshqa tillar ta'siridan uzoqda (himoyalangan, yoki boshqalardan ajralib qo'yilgan) tillar hosil bo'lish va o'z taraqqiyot jarayonini dastlabki etaplarida bir yo'la agglyutinativ va flektiv, analitik va sintaktik qurilish yo'llarini bosib o'tgan bo'lishi mumkin.

Tipologiyadagi, masalan, german va turkiy tillardagi faktlarning ko'rsatishicha, ular o'z taraqqiyotining keyingi bosqichlarida izolirlangan xarakterga ega bo'lgan.

Demak, barcha tillar strukturasi tipologik o'rganish vazifalaridan biri hozirgi davrdagi dunyo tillaridagi har xil strukturalar xronologiyasidan aniqlashdan iborat bo'lib, ular ichida o'z taraqqiyoti darajasi bilan har xil darajada turgan tillar ham uchrashi mumkin. Bu tillardan har biri uzoq taraqqiyot davrini o'tab, o'z strukturasi hosil bo'lishida izolirlashgan va agglyutinativlashgan, flektiv qurilishda analitik va sintetik modifikatsiyadagi qoldiqlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, har xil german va turkiy tillardagi o'xshash hodisalarni qiyoslash orqali aniq model tipidagi va har bir konkret tilga xos bo'lgan spesifik xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan umumiy belgilar aniqlanadi. Ular shu tilda boshqa tipdagi tillar bilan aloqalar va ekstralingvistik faktorlar taraqqiyoti natijasida shakllangan bo'lib, turkiy tillar strukturasi umumiy xususiyatlarni yangi belgilar bilan boyitish va shu bilan boshqa tillardan farqlashi mumkin.

Shunday qilib, tildagi har xil elementlarning har xil tiplar, guruhlar, ko'rinishlar va modellar modifikatsiyalarini sinxron planda qiyoslashda ularning diaxronik ketma-ketlik xususiyatlari ham aniqlanadi, chunki bu modellar tildagi hodisalar, ulardagi elementlar va shakllar qurilishining har xil o'lchovda, har xil bosqichda bo'lishini ko'rsatadi.

Agar tildagi barcha hodisalarni tadqiq etishda aniqroq hodisalardan tortib to umumlashgan kategoriyalargacha induktiv jihatdan yondoshilsa, fonologik, leksik, morfologik va sintaktik hodisalar, ma'lum modellarning konkret xili va tiplari aniqlanadi. Tilning umumiy strukturasi yoritishda esa, tildagi boshlang'ich kategoriyalar va modellar tiplardan boshlab, to ularning xususiy ko'rinishi va

aniqroq modellaridagi xususiyatlari deduktiv metod orqali aniqlanadi. Agar tadqiqotda tildagi hodisalarni alohida aspektlarga: fonologiya, leksika, morfologiya, sintaksisga bo'linsa va xususiy aniq modellar va ularning alohida aspektdagi tiplari sifatidagi qaralsa, ularning til sistemasi va strukturadagi o'rnini yoritish izchil ketma-ket izohlashni taqozo etadi. Bunda sintaksisning umumiyroq kategoriyalardan leksik, morfologik va fonologik kategoriyalarga qarab borish zarur. Chunki sintaktik kategoriyalar boshqa bosqichlardagi kategoriyalar bilan o'zaro bog'langan va uzviy aloqadadir.

Ma'lum qarindosh guruh tillarga xos tilning barcha bosqichlari uchun umumiy bo'lgan farqlanish belgilarini aniqlash orqali umumiy struktura modelini yaratish mumkin. Har bir aniq til strukturasi xususiy farqlanish belgilari ularning spesifik tomonlarini izohlaydi.

Ma'lum qarindosh guruh tillarining umumiy tipologik strukturasi aniqlash tipologik tadqiqotlar natijasining yaxshi bo'lishiga, tillardagi universal konstantga (muayyanlikka) ega bo'lgan asosiy belgilarni va ularning konkret turlarini bilishga olib keladi, ya'ni bu barcha tillarga xos struktura va ularning konkret tillardagi ko'rinishini aniqlashga yordam beradi.

1.2. Hozirgi zamon tilshunosligida sinonimiya hodisasi.

Sinonimiya hodisasi tilshunoslikda atroflicha o'rganilgan masalalardan biridir. Lekin tilshunosligimizning hozirgi kungi taraqqiyoti sinonimiya hodisasini nafaqat leksik, grammatik sathda, balki grammatik jihatdan ham tadqiq etishni taqozo etadi. Ayniqsa, bu hodisani til va nutq bosqichida o'zaro aloqadorlikda tadqiq etish uning o'ziga xos yangi-yangi xususiyatlarni ochib beradi. Chunki sistem leksikologiya va hozirgi semasiologiya hamda onomosiologiya tilshunoslikda mufassal tavsiflangan lug'aviy sinonimiya masalasini yangi nuqtai nazardan tadqiq etish muammosini o'rta qo'yadi. Shuning uchun bu hodisani til va nutq bosqichida o'zaro aloqadorlikda hamda qarama-qarshilikda (oppozitsiyada) tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

Til bosqichida sinonimiya hodisasi muayyan qolip sifatida mavjud bo'lib, atash va ifoda ma'nosi bilan umumiylikni hosil etadi.

Sinonimiya hodisasini leksik sathdagi xususiyatlarini to'rt xil yondashuv asosida tahlil etish an'anaga aylangan. Ma'no tomondan bir xilligi, o'zaro paradigmada erkin almashinishi, uslubiy o'xshashligi va kontekstual-matniy bog'liqlik kabi asoslar orqali leksik sinonimiya tadqiq etiladi.

Mantiqiy bog'liqlik asosida ajratilgan sinonimlar nutqiy jarayonda nutqiy vaziyat bilan bog'liq bo'lgan ma'nolar o'xshashligi orqali belgilanadi. Shuning uchun ularni sinonimlar deb atash mumkin va ularni ba'zi ishlarda denotativ sinonimlar deb ham ataydi hamda lisoniy sinonimiyadan bir muncha cheklanganligi uqtiriladi.

Sinonimiya hodisasiga kategoriya sifatida yondashilsa, uning lisoniy, mazmuniy, pragmatik kategoriya ekanligi aniq bo'ladi. Lisoniy kategoriya sifatidagi sinonimiya pragmatik sinonimiya bilan o'zaro teng munosabatda turmaydi. Ularni bir uyani hosil qilish asoslari ham turlicha bo'ladi. Leksik sinonimiya lisoniy kategoriya sifatida belgilanib, umumiy atash ma'nosi bilan bir uyani tashkil etadi. Pragmatik sinonimiya esa mazmuniy kategoriya bo'lib, so'zlarning nutqiy vaziyatda anglatgan ma'nolari o'zaro teng kelib qolishi orqali bir uyani tashkil etadi.

So'zlarning nutqiy jarayon bilan bog'liq holda anglatgan ma'nolari okkozional ma'no bo'lib, boshqa nutqiy vaziyatda ushbu ma'no bilan ishtirok etmaydi. Hattoki, atash ma'nosiga o'xshamagan ma'no kasb etishi ham mumkin. Bunday holatning yuzaga kelishiga nutqiy jarayon, nutqiy vaziyat, nutqdan tashqari ohang, imo-ishora, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi shartnomaviy munosabat ta'sir etadi. Masalan: muvozanat so'zi-leksik jihatdan jismlarning qarama-qarshi yo'nalgan teng kuchlar ta'siridagi tinch, turg'un holati; qarama-qarshi kuchlarning tenglashuvi, uyg'unlashuvi tufayli sodir bo'lgan nisbiy turg'unlik, osoyishtalikni ifodalaydi. Ushbu so'z muayyan nutqiy vaziyatda "munosabat" so'zi bilan sinonimik uyani tashkil etishi mumkin: Tabiat hodisalari o'rtasida munosabat-tabiat hodisalari o'rtasidagi muvozanat.

Ba'zan o'zaro bog'liqlik asosida sinonimiyani tashkil etadi. Shuning uchun ularning barchasini bir umumiy nom-pragmatik sinonimiya nomi bilan umumlashtirib, uning ichida turuvchi mikrosistemalarning o'ziga xos tomonlarini yoki farqlanuvchi xususiyatlarini ochib berish hozirgi kunda dolzarflik kasb etmoqda.

Xullas sinonimiya hodisasini onomasiologik tahlili uning o'ziga xos yangi qirralarini ochib beradi.

Til sintaktik strukturalarida kuzatiladigan sinonimiya quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi. Gap tarkibida to be yoki uning ekvivalenti ishlatilganda kesimni murakkablashtiruvchi element vazifasida sifat, sifatdosh va holatni bildiruvchi so'zlar ishlatilishi mumkin. Bunday murakkablashuv jarayoni ad'ektiv murakkablashish deb ataladi.

Murakkablashtiruvchi elementning ega bilan kesim o'rtasida nomustaqil aloqasi borligi haqida to be fe'lining tushirib qoldirish holatlari xabar berishi mumkin-ki, bu narsa kesimning asosiy qismi be+sifatdosh II strukturasi bilan ifodalanganda sodir bo'ladi. Masalan:

None of the injuries was believed serious= None of the injuries was believed to be serious. Tarkibida ad'ektiv murakkablashtiruvchi elementi bo'lgan sifatlar orasida o'zlarining strukturaviy va semantik xususiyatlariga ko'ra bir-biriga farq qiluvchi qator turlarini ko'rishimiz mumkin.

1) Tarkibida sub'ekt va ish harakat o'rtasidagi munosabatning ehtimolligi yoki haqiqatga to'g'ri kelish-kelmasligi modal baho beruvchi murakkablashtiruvga ega bo'lgan kesimlar.

Ad'ektiv element sifatida bu yerda quyidagi sifatlar ishlatiladi: sure, certain, likely va hokazolar. Masalan:

Everything is sure to be there. (E. Forster)

Tarkibida bu turdagi murakkablashtiruvchining kesimiga ega bo'lgan gaplarga nominalizatsiya transformatsiyasini tadbiq qilish mumkin.

He was certain to come=His coming was certain.

He was certain to come=It was certain that he would come.

2) Infinitiv tomonidan ifodalangan ish harakat bilan munosabatda bo'ladigan sub'ektning jismoniy, ruhiy yoki boshqa shu kabi tabiatni bildiruvchi murakkablashishiga ega bo'lgan kesimlar, bu yerda murakkablashtiruvchi element sifatida ishlatiladigan leksik birliklar qatori avvalgi guruhga qaraganda ancha keng. Ularning semantikasida farqlar va ularning strukturaviy jihatdan ifodalanishi bu guruhni yanada maydaroq turlari bo'lishi imkoniyatini yaratadi.

a) Murakkablashtiruvchi elementning ma'no bildiruvchi qismi ish harakat bajarishning zaruriyat, imkoniyat va qobiliyatni bildiradi. Bu guruhga able, unable, capable, free, welcome, bound kabi sifatlar kiradi. Masalan: Then she would be able to enjoy holiday in peace. (I.Murdoch) The flirtation is bound to end pretty soon. (I.Murdoch)

b) Murakkablashtirishning ma'no bildiruvchi elementi sub'ektning ish harakatiga bo'lgan munosabatining ruhiy harakterini ochib beradi. Bular jumlasiga glad, sorry, ashamed va hokazo sifatlar kiradi. Masalan: Dr.Kroll will be happy to show you the hospital itself later. (D.Lessing) She was eager to tell me.

Murakkablashtiruvchi elementning morfologik tabiatidagi farqlar (ya'ni sifat yoki sifatdoshlar) gaplarning mos keluvchi kesimlarini teng kuchli transformatsiya qilishining imkoniyatini belgilaydi. Masalan: He was happy to come=To come made him happy. He was amazed to see that=To see that amazed him=It amazed him to see that.

v) Bu guruhdagi murakkablashuvning tarkibida sifat sub'ektga infinitive tomondan anglashilgan ish harakat bilan aloqador bo'lgan qandaydir ob'ektiv xususiyatini bildiradi. Bu murakkablashtiruvchilar vazifasida quyidagi sifatlar ishlatiladi: quick, slow, fit, at, ready. Masalan: He was quick to seize on this expected gesture of friendliness. (H.E.Bates)

Bu o'rinda (b) va (v) guruhlari o'rtasidagi chegara har doim ham aniq bo'lavermaydi va ma'nolar o'rtasidagi farqni har doim ham topish oson bo'lavermaydi hamda infinitiv tomonidan anglashilgan ish harakat nisbatan sub'ekt egallangan pozitsiyani bildirsa, ikkinchi ma'noda esa u sub'ekt va ish-harakat o'rtasidagi munosabatning ob'ektiv belgisini bildiradi.

g) Murakkablashuv ma'no bildiruvchi elementi – sub'ektda sodir bo'ladigan ish harakat natijasida topilayotgan belgi yoki xossani bildiruvchi sifat bilan ifodalangan. Bu baholar so'zlovchining sub'ektiv xarakteristikasi bo'lib, tabiatda yoki ob'ektiv borliqda u har doim ham to'g'ri bo'lib chiqmasligi mumkin. Bu holatda anglashilayotgan ma'no sub'ektga “yorliq” tarzida yopishtirilayotgan bo'lishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bu turli guruhlarga kiritilgan gap strukturalari tashqi o'xshashlik ostida semantik strukturalarda muayyan farqlar mavjudki, ular tahlilining transformatsion ravshan ko'rinadi.

Bu strukturalarning tashkil etuvchilarida, ya'ni ega va infinitivda yashiringan ma'no mavjuddir: birinchisida ob'ektlik ma'nosi bo'lsa, ikkinchisida esa passivlik ma'nosi mavjuddir va mana shu faktor konstruksiyada sodir bo'layotgan transformatsion o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab beradi.

Ayrim holatlarda fe'lli va sifatli murakkablashuv o'zaro o'rin almashtirishlari yoki birlikda ishlatilishi mumkin. Vositasiz to'ldiruvchining murakkablashuvi muayyan semantikaga mansub fe'llardan so'ng infinitiv, sifatdosh, sifat, holat kategoriyasiga mansub so'zlar yoki predlogli guruhlarning to'ldiruvchi vazifasida kelishi bilan yasaladi. To'ldiruvchi bilan uning murakkablashuvi o'rtasida ikkilamchi kesimlari munosabatlari kuzatiladi. Bu xususiyat ko'rib chiqilayotgan konstruksiyalarini aniqlashda eng muhim belgi hisoblanadi.

A.G'.G'ulomov fikricha “Sintaktik munosabatlarni ifodalashning asosiy yo'llari to'rt xildir, ya'ni: so'z shakllari, yordamchi so'zlar, so'z tartibi va intonatsiya orqali ifodalash.” (2,18)

A.Sodiqov sintaksis atamasini ikki xil ma'noda qo'llaydi:

1. Tilning sintaktik qurilishi ma'nosida; 2. Tilning sintaktik qurilishini o'rganadigan grammatikaning bir qismi ma'nosida.

Ba'zi tilshunoslar sintaksisning predmeti deb faqat gapni tan oladilar. Ularning fikricha, sintaksis, birinchi navbatda, tilning kommunikativ birligi –

gapni, gapning turlarini, ularning shaklsi va mazmuni, gapni bo'laklarga ajratish masalasini va sintaktik vositalarni o'rganadi. (3, 175-176)

V.A.Beloshapkova va E.A.Brizgunova yuqoridagi fikrga qo'shiladilar:

Sintaksisning ob'ekti bo'lib bir tomondan so'z va so'zlarning shakllari bo'lsa, ikkinchi tomondan birlik ko'proq oddiy va murakkab gapga qaraganda; ularning sintaksisda oddiy va murakkab gaplar o'rtasidagi aloqasi o'rganiladi. (4,532)

E.P.Martyanova sintaktik munosabatning to'rt guruhini ishlab chiqdi:

1. Gapning mazmunini ifodalash uchun so'z va so'z birikmalar har xil usullar bilan birikadi. 2. So'z tartibi fikrni to'g'ri yetkazishda asosiy rolni o'ynaydi. 3. Mustaqil so'z yordamchi so'zlarsiz ishlatilmaydi (masalan fransuz tilida). 4. Intonatsiya. (5, 7-10)

Tillarda so'zlar orasidagi sintaktik munosabatni teng bog'lanish, ergash bog'lanish, predikativ bog'lanishga ajratish mumkin. (6,118-119)

“Hozirgi nemis tili sintaksisi xususida sezilarli o'zgarishlarni inkor etib bo'lmaydi. Bu o'zgarishlarning biri – ikkinchisiga qarama-qarshi bo'lmagan izohlar tasdiqlaydi.” (7, 10-14)

Gaplarning sintaktik tahlili mobaynida albatta sintaktik munosabatlarga to'qnashamiz. Sintaktik munosabat deganda Sh. Ashurov gaplar orasidagi mantiqiy munosabatlarni tushunadi. Uning nazarida, sintaktik aloqa va sintaktik munosabat sinonim tarzda tushunilmasdan, balki ular ma'lum darajada farqlanishi lozim, ya'ni sintaktik aloqa so'z birikmasi va gapdagi so'zlarning hamda nutqdagi gaplarning bir-biriga nisbatan qanday grammatik ma'no va funksiyada qo'llanishini bildiradi.(8,64)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, garchi tilning sintaktik qurilishini o'rganish boy tarixga ega bo'lsada, ammo sintaksisning predmeti, uning chegarasi kabi masalalarni talqin qilishda yagona fikrga kelinganicha yo'q.

I bob bo'yicha xulosa

Til strukturasi tarixiy-tipologik tadqiq etish ob'ekt alohida kategoriyalar shakli va alohida grammatik kategoriyalar emas, balki organik jihatdan bog'langan va bir-biriga ta'sir etuvchi turkiy tillar umumiy strukturasi hosil qiluvchi tilning alohida bosqichlaridir. Asosiy tipologik birliklar birinchi navbatda shu guruh tillari uchun emas, balki barcha tillar umumiy bo'lgan, universal kategoriyalar hisoblanuvchi gap va so'z birikmalarining sintaktik birligi hisoblanadi, chunki sintaktik kategoriyalar va ularning bir-biriga munosabati, xususan, so'z birikmalarida aniqlovchi va aniqlanmishga tegishli attributiv munosabatlar, sub'ekt va predikat hamda ob'ekt va predikatning gapdagi munosabatlari butun kishilikka xos umumiy tafakkur jarayonlarining tildagi aks etishiga tegishlidir.

Tipologik tadqiqotning navbatdagi asosiy birliklaridan biri so'z bo'lib, uning morfema tuzilishi bir xil emas. So'z o'zak morfemaning so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi affiks morfemalar bilan munosabati asosida aniqlanuvchi birlikdir. So'z va so'z birikmalari tuzilishining izomorfizmi genetik jihatdan affiksial morfemalar o'zlarining affikslariga aylanishidan oldin mustaqil so'zlar bo'lgani va so'zga nisbatan mavhumroq ma'noga ega bo'lgan o'zak morfema asosidagi birlik bo'lgani bilan izohlanadi. Nihoyat, fonologik va semasiologik bosqichlarning tipologik tahlili organik (tuzilish) jihatdan tilning grammatik strukturasi uzoqroq joylashgan fonema va sema kabi birliklar bilan bog'liq bo'lib, alohida o'rin egallaydi.⁷

Inson tafakkurida aks etuvchi va tilda tushuncha aktlarini ifodalovchi asosiy sintaktik birliklar hisoblanuvchi tafakkur aktlari o'zining kelib chiqish mag'zi bilan ancha umumiy va universaldir. Xususan, barcha kishilar uchun umumiy va tildagi universal konstantalar hisoblanuvchi tafakkur aktlaridan va ularga to'g'ri keluvchi gap va so'z birikmalaridan kelib chiqib, tildagi boshqa hamma universal konstantalarni va ularning har xil tildagi modifikatsiyalarini

⁷ Общее языкознание, Внутренняя структура языка. М.Наука, 1970.

aniqlash mumkin bo'ladi. Ko'rinadiki, universal konstantalar va ularning konkret spetifik ishlatilishi tafakkur kategoriyalari bilan til kategoriyalari o'rtasidagi munosabatni o'rganish orqali chuqurroq ochiladi. Logik (mantiqiy) kategoriyalar barcha tillarni birlashtiruvchi umumiy xususiyatlarning gap va so'z birikmalari strukturasi ikki xil aks etishidir.

Gap va so'z birikmalari barcha tillarda umumiy strukturaga ega bo'lib, ular faqat gaplardagi sub'ekt-predikat munosabatlarini va so'z birikmalaridagi attributiv munosabatlarini ifodalovchi morfologik kategoriyalarning har xilligi bilangina farqlanadi. Qarindosh guruh tillarining, masalan, turkiy tillarning, tarixiy-tipologik tadqiq qilish vazifasiga asosiy tafakkur aktlarini ko'rib o'tish va tahlil qilish, ularning tiplari, tilda ishlatuvchi konkret shakllarini aniqlash kiradi. Har bir tilning strukturasi, avvalo, diaxronik jihatdan har xil shakllangan, har xil sintaktik konstruksiya modellarida ifodalangan umumiy va asosiy tafakkur kategoriyalari, tafakkurning asosiy tiplari va ularning tildagi har xil shakllari ishlatilishi bilan izohlanadi. Bu har xil modellar alohida qarindosh tillarda har xil darajadagi produktivlik (mahsuldorlik)ka ega bo'ladi va bu ularning xronologiyasi va taraqqiyot jarayon qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Har xil sintaktik konstruksiyalar va ularning morfologik shakllanishini tipologik qiyoslash barcha qarindosh konkret tillarning asosiy rivojlanish etaplarini aniqlashga, bu tillarning umumiy tipologik xususiyatlarini, ularning namunali ideal strukturasi va buning har bir qarindosh tildagi alohida (spesifik) belgilarini, birinchidan, ikki rivojlanish qonuniyatlari, ikkinchidan, har xil substrat va adstratlar ta'siridagi xususiyatlarni o'rganishga imkon beradi.

II BOB. HOZIRGI ZAMON INGLIZ VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA GAP NAZARIYASINING TALQINI

2.1. Sintaksis nazariyasining tilshunoslik taraqqiyoti hozirgi bosqichidagi holati.

Ma'lumki, sintaksis grammatikaning bir qismi bo'lib, gapning aytilish maqsadiga, qurilishiga, shakliga va kommunikativ munosabatiga ko'ra tasniflab o'rganuvchi fandır. Sintaksis atamasi yunonchadan oigan bo'lib, u gapning ifodalanish usullarini, so'zlar o'rtasidagi sintaktik munosabatlarni hamda gapni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratib, sintaktik tahlil qilishdan iborat masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

E.Ya.Moroxovskayaning fikricha, sintaktik nazariyalar asosan, 1) an'anaviy nazariya 2) strukturaviy sintaktik nazariya va 3) transformatsion sintaktik nazariyadan iborat.

Ingliz tili sintaksisi tarixiga e'tibor qaratilsa, sintaksisning asosiy ob'ektlari sifatida so'z birikmasi va gap qurilmalarini o'rganib kelgan. So'z birikmasi masalasi tilshunoslar o'rtasida ancha munozarali masalalardan biri bo'lib, uni sintaksisda o'rganish kerakmi, yoki u tilning alohida sathimi, yoki leksikologiyaning ob'ektimi, degan masalalar hozirgacha davom etib kelmoqda.

Keyingi tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, "So'z birikmalari lingvistik kategoriya sifatida lug'at qatlamidan o'rin oladi."⁸ Ushbu tadqiqot natijalaridan anglashiladiki, so'z birikmalari tilning leksik sathida kuzatilishi lozim.

Tilshunoslikda matn lingvistikasi paydo bo'lgach, sintaksisni ikki turga, ya'ni kichik sintaksis va katta sintaksisga ajratish maqsadga muvofiqdir. Demak, kichik sintaksis gap va uning turlarini, gap qurilmasida ishtirok etgan sintaktik birliklarning o'zaro sintaktik aloqalarini, sintaktik birliklarning funksional vazifalarini o'rganuvchi sintaksisdir. Katta sintaksis esa matn va uni tashkil

⁸ Doniyeva M. "Ingliz tilida otli so'z birikmalarining derivatsion-funksional va matnni shakllantirish xususiyatlari". Avto.ref., Samarqand 2012.

etuvchi birliklarning pragmatik, kognitiv, lingvomadaniyat, deyktik, stilistik hodisalarini o'z ichiga qamrab oladi.

Kichik sintaksisning asosiy o'rganish ob'ekti gap bo'ladigan bo'lsa, ma'lumki, gap bir yoki bir necha so'zlardan tashkil topgan, tugal fikrni ifodalaydigan, uch belgi, ya'ni predikativlik, modallik va prosodikani o'zida mujassamlashtirgan hosiladir.

Har qanday gap predikativlik xususiyatiga ega bo'lishi majburiy shartlardan biridir. Aks holda u gap emas, balki so'zlar yig'indisidan iborat bo'lib qoladi. Predikativlik asosida an'anaviy grammatikalarda ta'riflanishicha, ega va kesimdan anglashilgan fikr tushuniladi. Lekin predikativlikni bunday ta'riflashda ham ayrim nuqson borligi ham seziladi. Chunki, predikativlik nafaqat ega va kesimdan anglashilgan fikrga aytiladi, balki, bir tarkibli gaplarda ham predikativlik mavjudligini aytib o'tish lozim. Ko'pgina tilshunoslarning fikricha, predikativlik deganda, asosan, kesim vazifasini bajaruvchi element tushuniladi. Lekin, predikativlik tushunchasi asosan, gapning asosiy mazmuni, tugalligini anglatuvchi elementga nisbatan aytiladi.

Modallik deganda, so'zlovchining aytiladigan fikrga sub'ektiv munosabati va aytiladigan fikrning real voqelikka bo'lgan munosabati tushuniladi. Demak, har qanday tugal fikrni anglatuvchi bir yoki bir necha so'zdan iborat gaplarda modallik mavjuddir.

Prosodika ham gapning asosiy belgilaridan biri hisoblanib, har qanday tugal fikrni anglatuvchi so'z, so'z birikmasi yoki gap nutqqa ko'chganda ma'lum bir ohangda talaffuz etilishini tushunamiz. Ohang nutqning ajralmas tarkibiy qismidir, chunki ohang nutqda gap ma'nolarini bir biridan ajratib turuvchi vosita hisoblanadi. Demak, gap bu nutq materialidir.

Katta sintaksisning ish ob'ekti matn va uni tashkil etuvchi birliklar, matnning leksik-grammatik vositalari hamda semantik tuzilishi, kommunikativ maqsadiga ko'ra tasnifi kabi masalalar bilan shug'ullanadi.

Til birliklarining sintaktik tahliliga tilshunoslarning turlicha yondashadilar. Bular quyidagilardan iborat:

- 1) Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratib tahlil qilish;
- 2) Tema va remani aniqlash usuli bilan tahlil qilish;
- 3) Bevosita ishtirokchilarga ajratib tahlil qilish;
- 4) Komponent va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish;
- 5) Derevatsiyalash imkoniyatlari asosida tahlil qilish;

Katta sintaksisning asosiy ish ob'ekti matn tilshunosligi bo'lib, unda matnni kognitiv nuqtai nazardan tahlil qilish, matnni mazmun jihatdan konseptlarga ajratish kabi jarayonlar kuzatiladi.

Ma'lumki, hozirgi vaqtda matn tahliliga nisbatan pragmatik nuqtai nazardan yondashuv jadal rivojlanmoqda. Sintaksis gap turlari strukturasi haqidagi ta'limot bo'lsa, pragmatika lingvistik qurilmalarning tuzilishi, ularning grammatik xususiyatlari va munosabatlarini yorituvchi fan emas, balkigap belgisi va propozitsiyaning matndagi muvofiqligini so'zlovchi va tinglovchi tomonidan oqilona ta'minlanishini o'rganuvchi fandır. Demak, pragmatika ko'proq nutqiy faoliyat va uning bosqichlarini aniqlash bilan shug'ullanadi. Ular 3 bosqichdan iborat bo'lgan harakatlar: lokutiv, illokutiv, perlakutiv.

- 1) Lokutiv – nutqiy faoliyat ijrosi;
- 2) Illokutiv – so'zlovchi va suhbatdosh o'rtasidagi munosabatlarning ifodalanishi;
- 3) Perlokutiv – so'zlovchi nutqining tinglovchiga ta'siri.

2.2. An'anaviy grammatikada sintaktik aloqalar muammosi.

Ma'lumki, an'anaviy grammatikada sintaktik aloqa *sintaktik munosabat* atamasi asosida talqin qilinadi. Sintaktik aloqalar bahsida moslashuv, bitishuv va boshqaruvlar tushunilsa, sintaktik munosabatlar esa attributiv, ob'ekt, hol munosabatlar asosida ifodalanadi. Ammo mazkur sintaktik aloqalar yoki munosabatlar asosan, gap qurilmasini sintaktik tahlil qilishda emas, balki, birikmalar talqinida ko'zga tashlanadi (B.Ilyish, 1971,181-182).

Ayrim inglizshunos olimlarning fikriga ko'ra, sintaktik aloqalarni so'z birikmalari va gap tarkibida qarab, ularni bog'langan tobe so'zlar (*adjunt+words*) va hokim so'zlar yoki tayanch so'zlar(*head words*)ga ajratish mumkin. Ular o'rtasidagi sintaktik munosabat yoki aloqa ikki xil bo'ladi: koordinativ yoki subordinativ. Bundan tashqari, so'z birikmalari tarkibida "moslashuv" (*concord*) va boshqaruv (*government*) bo'lishi mumkin (H. Sweet 1892,32-35). Masalan, moslashuv asosida tayanch yoki hokim so'z bilan tobe orasidagi morfologik (son) aloqa tushuniladi: *this book, these books*.

Boshqaruvda hodisasida esa tobe so'z hokim so'z tomonidan boshqariladi. Masalan, *a day's work* birikmasidagi *day's* elementi *work* tomonidan boshqarilmoqda yoki *I see him* gapidagi *him* elementi *see* yordamida boshqariladi.

Grammatika borasidagi adabiyotlarda bitishuv haqida hech qanaqa fikr bildirilmaydi. Mazkur aloqa haqida gapirilganda, ikki so'z hech qanday shakl ko'rsatkichlarisiz bog'lanadi, deb qayd qilingan. Masalan, *Wall-clock, home work* va boshqalar. O'zbek tili grammatikasida ham bitishuvli birikmalarni morfologik modellar asosida izohlaydi:

1. ot+ot: kumush qoshiq, shamol tegirmon, shoir tabiat;
2. olmosh+ot: hamma odamlar, butun dunyo, har kishi;
3. son+ot: yigirma besh talaba, o'ntacha bola, oltinchi maktab;
4. sifat+ot: yaxshi odam, uzoq yo'l, go'zal tabiat;
5. sifatdosh+ot: o'qigan kishi, yasangan kishi.

Sintaktik aloqa va sintaktik munosabat bir xil narsami yoki ular bir-biridan farqlanadimi, degan savol tug'ilishi aniq.

Sintaktik aloqa asosan, so'z birikmasi yoki gapdagi so'zlarning hamda nutqdagi gaplarning o'zaro grammatik bog'lanishini ifodalasa, sintaktik munosabat esa so'z birikmasi va gapdagi so'zlarning hamda nutqdagi gaplarning bir-biriga nisbatan qanday grammatik ma'no va funksiyada qo'llanishini ifodalaydi.

O'z-o'zidan ma'lumki, sintaktik aloqalar grammatik shakllar asosida namoyon bo'lsa, sintaktik munosabat so'zlarning funksional qismlari orqali aks etadi.

Yuqorida qayd qilinganidek, sintaktik aloqa ham sintaktik munosabat ham tilning so'z birikmalari sathida kuzatilgan. Tilning sintaktik sathi gaplardan iborat. Shuning uchun ham yuqorida qayd qilingan sintaktik aloqa va sintaktik munosabatlar gapning sintaktik tahlili jarayonida umuman tilga olinmaydi.

V.V. Burlakovaning fikricha, so'z birikmalari tarkibida asosan, uch xil sintaktik aloqa mavjud. Bular teng, tobe va akkumulyativ aloqadir. Teng aloqa asosan, teng bog'lovchi *and* yordamida ifodalanadi (*men and women, red and green*). Tobe aloqa esa yadro komponentga tobe komponentning bog'lanish orqali (*an old brown stone house, a list of names*) namoyon bo'ladi (I.P. Ivanova, V.V. Burlakova, G.G. Pochepsov). Bunday so'z birikmalarida yadro component regressiv va progressiv holatda bo'lishi mumkin.

Akkumulyativ aloqa deganda, so'z birikmalarining boshqa elementlar bilan to'ldirib borilishiga aytiladi. Masalan, (*to write*) *his friend a letter* yoki (*to write*) *a letter to his friend* birikmalarida *his friend a letter* yoki *a letter to his friend*lar o'zaro, ya'ni ikki to'ldiruvchi o'zaro akkumulyativ aloqa yordamida bog'lanmoqda.

Umuman olganda, *sintaktik aloqa*, deb atalmish atama faqat so'z birikmalar doirasida tahlil qilingan yoki so'z birikmalar sathida kuzatilgan. Bu borada O. Yespersinning "uch daraja nazariyasi" (Three ranks theory)da ham to'xtalib o'tilgan. Masalan, *terribly cold weather* birikmasida *weather* – birinchi darajali (*Primary*), *cold* ikkinchi darajali (*secondary*), *terribly* uchinchi darajali (*Tertiary*) elementlar hisoblanadi. Bunda ularning *junction* modellar asosidagi yadro komponenti bilan tobe komponentlarning bog'lanishi inobatga olingan. Yuqoridagi sintaktik birlikning *the weather is terribly cold* holati esa neksus (*Nexus* - ega va kesim o'rtasidagi predikativ munosabatdir (O. Axmanova. 1969,259)) deb ataladi (O. Jespersen. 1935,107). Ammo ular sintaktik sathda gap qurilmasida atroflicha isbotlanmagan.

Keyingi yillarda gap qurilmasini sintaktik tahlil qilishda sintaktik aloqalarga alohida e'tibor qaratildi. A.M. Muxin va uning shogirdlari tomonidan yadro predikativ, yadro bo'lmagan predikativ, subordinativ, koordinativ, appozitiv,

nolga teng predikativ, introduktiv aloqalar ishlab chiqildi va ular gapning sintaktik tahlili jarayonida keng tarzda qo'llanilmoqda. (2007). Bu sintaktik aloqalar haqida keyinchalik atroflicha to'xtalamiz.

Ma'lumki, gap sintaksisning asosiy o'rganish ob'ekti hisoblanadi. Gaplarni tasniflash bo'yicha tilshunoslar o'rtasida turlicha yondashuvlar mavjud. E.Krayzingning fikricha, sintaksis grammatikaning gap qurilmasini o'rganuvchi bir bo'limi sifatida olib qaraladi va unda gap tarkibida ishtirok etgan birliklar ikki guruhga ajratiladi: *Close syntactic groups* va *loose syntactic groups*. *Close syntactic groups* morfologik jihatidan *verb groups*, *noun groups*, *adjective groups*, *adverb groups*, *preposition groups*, *pronoun groups* kabilarga ajratib o'rganishni tavsiya etadi. *Loose syntactic groups* esa ikki xil bo'lishi mumkin: *Linked groups* va *unlinked groups*: *linked group is **five and twenty***; *unlinked group-**a low soft breathing***. Bundan tashqari, ushbu guruhlarda ishtirok etgan a'zolarning sonini ko'rsatish bilan chegaralanadi: *double*, *triple*, *quadruple* va hokazolar.

Yuqoridagi gap qurilmasida ishtirok etgan birliklarning tobe komponentlar asosida guruhlanishi sintaktik sathda gap tahliliga hech qanday qo'shimcha bilim bermaydi.

O.Jespersenning birkima (*junction*) va neksus (*nexus*) haqida shunday deydi: "*In junction the joining of the two elements is so close that they may be considered one composite name for what might in many cases just as well have been called by a single name.*" For example: a silly person: a fool, the warmest season: summer. If we compare **the red door** and **the barking dog** is junction, **the door is red, the dog barks** or **the dog is barking** is nexus (O.Jespersen, Essentials of English Grammar, 95-96).

Tilshunoslarning ta'kidlashicha, gapni aniqlashda to'rt usuli mavjud: mantiqiy, psixologik, strukturual yoki grammatik va fonetik nuqtai nazar. Ingliz tili grammatikasi uchun psixologik jihatdan gapni aniqlash tipik holat emas. Gapning mantiqiy aniqlanishi asosan, fikrning kengayishiga qarab aniqlanadi. Strukturual

tilshunoslar esa gapning grammatik yoki fonetik mezonlar asosida aniqlash usullarini qayd qilishadi.⁹

Inglizshunos olimlar gap tasnifiga nisbatan struktur jihatdan hamda aytilish (kommunikativ) maqsadga ko'ra yondashgan holda tasniflaydilar. (V.N.Jigadlo, I.P.Ivanova, L.L.Iofik, 1959, 228-232; J.Bo'ronov, O'.Hoshimov, X.Ismatullayev, 1974,291-304).

Ayrim tilshunoslar gapni tasniflashda ularning muloqatda tutgan o'rniga ko'ra uch guruhga ajratadi:

a) *a situation sentence* – situativ gap, ya'ni muloqot jarayonida biror kishini chaqirish, salomlashish, xitob qilish kabilar kiradi;

b) *sequence-sentence* – so'zlovchi o'zgarmasdan suhbatni davom ettirish jarayonida bayon etiladigan gaplar;

c) *a response-sentence* – so'zlovchilar almashib, suhbatni davom ettirishda qo'llaniladigan gaplar.

Bundan tashqari, N.Francis matn va suhbatdan zavqlanish holatlarida qo'llaniladigan gaplarni olti guruhga ajratadi:

1. *A greeting* – uchrashganda, xayrlashganda ishlatiladigan streatip jumlar;

2. *A call* – chaqirish, qisqa gaplardan iborat va suhbatdosh diqqatini qaratishga bag'ishlangan gaplar;

3. *An exclamation* – qisqa gaplardan tashkil topgan, so'zlovchining his hayajonini ifodalash yoki suhbatdoshning his-hayajonini uyg'otishda kutilmaganda ifodalanadigan gaplar;

4. *A question* – savol berishda ifodalanadigan gaplar;

5. *A request* – salomlashish yoki chaqirish jarayonida iltimos, taklif kabi ma'nolarni ifodalovchi gaplar;

6. *A statement* – suhbatdosh fikrini tasdiqlashda, arz qilishda qo'llaniladigan yoki suhbatdosh diqqatini o'ziga jalb qiluvchi gaplar.¹⁰

⁹ E. Krusing, A Handbook of Present Day English, 235-236.

¹⁰ N.Francis, The structure of American English-New York; Wiley, 1998, p226-227.

Yuqorida qayd qilganimizdek, gap tasnifi turlicha talqin qilinishining guvohi bo'ldik. An'anaviy grammatikalarda gap kommunikativ maqsadiga ko'ra: "declarative, interrogative, imperative", turlarga ajratiladi.¹¹ Ushbu tasnifga qo'shimcha holda so'zlovchi gap orqali darak, so'roq, buyruqlar bilan birga o'zining emotsional munosabatini, his-tuyg'ularini ham ifodalaydi. Shunga ko'ra gap yana ikki turga bo'linadi:

a) emotsional gaplar; b) emotsional bo'lmagan gaplar [J. Bo'ronov, O'.Hoshimov, X. Ismatullayev, - Toshkent, 1974,29.]. V.N.Jigadlo, P.Ivanova, L.L.Iofiklar esa gapni to'rt turga ajratadi: 1.Darak gaplar, 2. So'roq gaplar, 3. Undov gaplar,

4. Buyruq gaplar [V.N.Jigadlo, P.Ivanova, L.L.Iofik. 1956,232].

I.N.Ivanova, V.V.Burlakova, G.G.Pochepsovlar gaplarni tasniflashda uchta aspektga tayanish kerak, deb ta'kidlaydi: a) strukturaviy; b) semantik; v) pragmatik [I.N.Ivanova, V.V.Burlakova, G.G.Pochepsov. 1981,173.]. Ammo ushbu nazariy bo'yicha darslikda faqat gapning strukturaviy tasnifiga to'xtaladi.

G.G.Pochepsovning ta'kidlashicha, gapning strukturaviy tasnifi deganda, gaplar grammatik ma'nolarining shakliy ko'rsatkichlari asosida tadqiq qilinadi. Unda gapning tasdiq/inkor, buyruq/so'roq, shaxsli/shaxssiz belgilari o'rganiladi.

Gapning semantik aspekti esa gapning ma'noviy belgilarini, ya'ni gap bo'laklari, ergash gaplar, qo'shma gaplarning bir qismi, to'ldiruvchi, hol, shuningdek, ularning semantik roli yoki "agens", "patiens" va hokazolarini o'z ichiga oladi.

Gapning pragmatik aspekti nutq aktida gaplardan foydalanish jarayonidan iboratdir. Undan asosan, katta sintaksis ob'ekti hisoblangan matn doirasida foydalaniladi (G.G.Pochepsov,173).

Umuman olganda, gaplar strukturasi ko'ra tasniflanganda soda (*simple sentence*) va qo'shma gaplarga (*composite sentence*) bo'linadi. Soda gaplar tarkibiga ko'ra ikki tarkibli (*two-member sentence*) va bir tarkibli (*one-member*) gaplarga bo'linadi. Ikki tarkibli gaplar ham ikkiga bo'linadi: a) soda yig'iq (*simple*

¹¹ M.Y.Blokh. A Course in Theoretical English Grammar,-Moscow,1983,p251.

unextended); b) soda yoyiq (*simple extended*). Ikki tarkibli gaplar gap bo'laklarining ishtirokiga ko'ra to'liq (*complete*) va to'liqsiz gaplarga (*incomplete*) bo'linadi.

Ikki tarkibli to'liq gaplarda gap bo'laklari ishtirok etsa, ikki tarkibli to'liqsiz gaplarda esa ulardan birortasi yoki bir nechitasi eksplisit tarzda ifodalanmaydi.

Ifodalanmagan sintaktik birliklarni matn yoki vaziyat asosida transformatsiya-eksplikatsiya yordamida tiklash mumkin. Bir tarkibli gaplarda esa gap bo'laklarini aniqlab bo'lmaydi. Ular bir necha turlardan tashkil topadi: nominativ, vokativ emotive va yes-tasdiq rozilik, *no*-inkor, norozilik ma'no ottenkalarini ifodalovchi so'z-gaplardan iborat. Ushbu gaplarga keyinchalik yana to'xtalib o'tamiz.

Qo'shma gaplar (*composite*) ham o'z navbatida ikki turga bo'linadi: a) mustaqil qo'shma gap (*the compound sentence*), b) ergashgan qo'shma gap (*the complex sentence*).

Bir tarkibli gaplarning ifodalanish usullari ham tillarda turlicha tasniflanadi. V.V.Babayseva, L.Yu.Maksimovlar bir tarkibli gaplarni rus tili misolida semantik va struktur jihatdan quyidagi turlarga ajratadi:

1. Определено – личные (*Люблю грозу в начале мая*);
2. Неопределено – личные (*В нашем поселке построили новую школу*);
3. Обобщенно личные (*слезами горю непоможець*);
4. Безличные (*светает, мне холодно, Ветра нет*);
5. Инфинитивные (*тучам солнца не скрыть, войне мир непобедить*);
6. Номинативные (*зима; Вот и зима; Зима!*);
7. Вокативные (*предложения – обращение*) (Сов.рус.яз.М.1981.92).

A.P.Mordvilka ham bir tarkibli gaplarni 7 turga ajratadi, ammo u vokativ gaplarni kiritmasdan so'z – gaplarni, ya'ni *да, нет, конечно, несомненно* kabilarni kiritadi [Сов.рус.яз.Т.1977.57].

Bir tarkibli gaplar o'zbek tili misolida esa rus tilidagidek 6 guruhga bo'linadi:

1. Shaxsi noma'lum gaplar (*pulini o'g'irlab quyishdi*);
2. Shaxsi umumlashgan gaplar (*Safarga bamaylixotir xozirlanildi*)
(*Yomon bilan yo'ldosh bo'lma, nodon bilan sirdosh bo'lma*);
3. Shaxssiz gaplar (*Tong otdi, yorug' tushdi*);
4. Indikativ gaplar (*Bu qanday aqlsizlik! Mardikor olish.*);
5. Nominativ gaplar (*Qanday go'zal! Mana O'sarjonning dalasi*);
6. So'z gaplar (*Ha, Shunday, Xo'p, Yo'q, Nahot, Oh, Voydod!, Ura!*)¹²

XIX asrlarda chop etilgan ingliz tili grammatikalarga e'tibor berilsa, ularda faqat atov gap (*Nominal sentence*) tan olingan.¹³ Boshqa grammatika kitoblarida esa gaplar 4 guruhga ajratilgan:

1. Atov gaplar (*What a beautiful night! Such character! Such sense!*);
2. *Yes* va *No* bilan ifodalangan bir tarkibli gaplar;
3. Modal so'zlar yordamida ifodalangan bir tarkibli gaplar (*Of course, certainly*);
4. Undov so'zlar yordamida ifodalangan bir tarkibli gaplar (*Well!, Oh!, My goodness!, My God!*).

Umuman olganda, ingliz tili misolida G.S.Litvishenko,¹⁴ O.G.Vetrova¹⁵ va A.P.Afanasevlarning¹⁶ monografik ishlarida ta'kidlashicha “..... barcha undov so'zlar, modal so'zlar, vokativ birliklar, *Yes* va *No* kabilar nutq materiali hisoblanib, ularda predikativlik, modallik, prosodika kabi xususiyatlar mavjud bo'lib, bir tarkibli gaplar deb tan olinadi”. Ularni tarkibiga ko'ra ikkiga bo'lish mumkin:

- a) bir tarkibli yig'iq; b) bir tarkibli yoyiq gaplar.

¹² O'zbek tili grammatikasi, 2-tom. Toshkent, 1976.185-196.

¹³ Л.П.Винокурова. Грамматика английского языка. Москва, 1954.233.

¹⁴ “Однорядерные эмотивные предложения в современном английском языке” (Лекция., ЛГПИ им. А.Н.Герцена. Ленинград 1972)

¹⁵ “Вокативные синтаксические единицы в современном английском языке.” (Ленинград 1980),

¹⁶ “Выражение подтверждения и отрицания и ответных репликах в современном английском языке” (Английская филология, Краснодар. 1967)

Demak ingliz tilida uchraydigan bir tarkibli gaplar o'zbek va rus tillaridagi bir tarkibli gaplarning turlaridan farq qiladi.

2.3. Gaping sintaktik tahliliga doir.

Ma'lumki, an'anaviy tilshunoslikda gaping sintaktik talqini xususida so'z yuritilganda gapni bo'laklarga (bosh va ikkinchi darajali) ajratib tahlil qilish tushuniladi. Gap bo'laklarining bunday tavsifi tilshunoslikda XX asrning o'rtalariga qadar sintaktik tahlil jarayonida yetakchi rol o'ynadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, til birliklariga, shu jumladan, sintaksemalarga muayyan ichki strukturaga ega bo'lgan murakkab tizim sifatida yondashuv tilning boshqa sathlarida bo'lgani kabi sintaktik sathda ham turli yangicha tahlil mezonlarini ishlab chiqish uchun asos bo'ldi.¹⁷

Bu borada A.Nurmanovning fikricha, system tilshunoslikda gaping struktur elementlari gap bo'laklari yoki sintaktik pozitsiya, propositiv strukturasi elementlari ob'ektiv reallik strukturasi nisbatan izomorflik, kommunikativ (aktual) strukturasi tema (ma'lum) va rema (yangi), modal strukturasi esa ob'ektiv va sub'ektiv munosabatlar nuqtai nazaridan o'rganiladi.¹⁸

Darhaqiqat, har bir strukturaning o'ziga xos elementlari mavjud bo'lib, ular faqat shu struktura darajasidagina o'zaro assotsiativ va sintagmatik aloqada bo'ladi. Shu jihatdan qaralganda, an'anaviy tilshunoslikdagi ayrim bahstlab masalalar oydinlashadi. Xususan, an'anaviy grammatikada gaping sintaktik tahlili uni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratish bilan chegaralanadi. Bunday tahlil gaping shakliy tomonini tekshirish hisoblanadi. Mantiq tilshunoslari esa gap elementlarini ega o'rnida "sub'ekt", kesim o'rnida "predikat" kabi lingvistik atamalar yordamida tahlil qilishadi. Lekin bu borada ega bilan sub'ekt, kesim bilan predikatning o'xshashlik tomonlari hamda ularning bir-biridan farq qilish

¹⁷ .В.С.Храковский. Концепции членов предложения в русском языкознании. XIX века, Вкн: Грамматические концепции в языкознании XIX века. Ленинград, 1985

¹⁸ A.Nurmonov. Tilni sistemali o'rganish va sintaksining ayrim munozarali masalalari // O'zbek tili va adabiyoti. 1988.15.

muammosi anchagina muammolarga yo'l ochib berishi e'tibordan chetda qoladi. Masalan, rus mantiqiy tilshunosi F.I.Buslayev "..... tilda egaga bosh kelishikda kelgan ot mos keladi ba'zan ega va kesim boshqa so'z turkumlari bilan ifodalanadi, lekin har holda egani anglatgan so'z ot ma'nosini, kesimni anglatgan so'z esa fe'l ma'nosini oladi" degan fikrni bildiradi (Историческая грамматика русского языка. Москва, Наука 1968).

Shunday ekan, gapda ega har doim bosh kelishikda kelib, faqat sub'ektni ifodalasa, kesim fe'l bilan ifodalanib, predikat bo'lib kelsa va ularda o'xshashlik mavjud bo'lsa, bosh bo'laklarni har xil atamalar bilan atashga nima majbur qiladi, degan savol tug'iladi. Bundan tashqari, tilshunoslikda "predikat" atamasi o'ndan ortiq turli xil izohlarga ega. G.A.Lobonova predikatni ontologik aspektda belgi sifatida, mantiqiy aspektda esa ma'lum bir vazifa sifatida namoyon bo'lishini aytib o'tgan.¹⁹

Psixologik yo'nalish himoyachisi A.A.Shaxmatovning yozishicha "..... psixologik sub'ekt tasavvur kabi aniqlanadi, u o'z tabiatiga ko'ra, predikat tomonidan ifodalangan ijroning hokimidir".²⁰ Bu bilan olim gapdagi predmet nomi har doim o'zi bilan birikib keladigan fe'lga yoki sifatga nisbatan nisbatan grammatik ega hisoblanadi, demoqchi. Demak, predmet haqida bildirilgan fikr predikat tomonidan anglashilgan psixologik sub'ekt, belgi haqida yuritilgan fikr esa psixologik predikat bo'lib qolaveradi.

A.A.Peshkovskiy esa "..... agar kesim ish-harakatni predmet tomonidan bajarilishini anglatga, ega esa harakatni bajaruvchi predmetni anglatadi", degan fikrni bildiradi.²¹ Ushbu fikr zamirida kesimning predikatga, eganing sub'ektga mos kelmasligini ko'rish mumkin. U o'z fikrning tasdig'ini shaxsi noma'lum gaplar misolida ko'rsatib beradi.

Ayrim olimlar ega gapning mazmuniy va sintaktik tuzilish markazi predikatdir deyishadi.²² Hozirgi zamon hind-ovropa tillarida barcha leksik ma'noga

¹⁹ Реализация предикатов изменения в современном английском языке. Ленинград, 1988.

²⁰ А.А.Шахматов. Синтаксис русского языка, Ленинград, 1941.

²¹ Русский синтаксис в научном освещении. Москва, 1956

²² О.М.Тоjiyev. O'zbek tilida ot – predikat gaplarning mazmuniy va sintaktik tuzilishi. Nomzod diss.Toshkent,1995.

ega bo'lgan so'zlar mantiqiy jihatdan sub'ekt vazifasini bajarishi mumkin. Bunday holda mantiqiy sub'ekt gapda so'z tartibi, ko'makchilar, fraza urg'ulari yoki aynan shu fikrni ifodalovchi yangi gaplar tuzish usullari yordamida namoyon bo'ladi.²³

Bu borada G.L.Kolshanskiy shunday deydi "... hukmdagi sub'ekt tushuncha mazmunida har xil bo'lishi mumkin. Tilda mantiqiy sub'ekt gapda aniq sintaktik bo'lak kabi turli so'z turkumlari bilan ifodalanadi".

Hukm tarkibida predikat asosan, sub'ektda ifodalangan tushunchani anglatadi. Predikat o'z mazmuniga ko'ra sub'ektni tavsiflaydi, ya'ni sub'ekt agens yoki ob'ekt vazifasida ekanligini, ayrim hollarda unga ma'lum son, sifat xarakteristikasi yuklatilganligini anglatad. A.A.Potebnyaning fikricha, predikativ aloqa shaxsli fe'lning grammatik shaklidir.²⁴ Bu esa fe'l shakli bemalol predikatsiya tushunchasini almashtira oladi, degan ma'noni anglatadi.

Demak, predikativlik predikat fe'l, deb ta'kidlansa, mantiqiy kategoriya bilan grammatik kategoriya o'rtasidagi farq yo'qoladi. Bu borada A.A.Shaxmatov gapning grammatik va kommunikativ tarkibini farqlashga harakat qiladi, ya'ni "*Стол стоит в комнате*" gapida kesim vazifasida "*стоит*" fe'li kelgan bo'lsa, kommunikatsiyaning tobe tarkibi sifatida, ya'ni predikat vazifasida "*стоит в комнате*" kelgan deydi.²⁵

Boshqa turdagi gaplarda, masalan, "*Он высокого роста*", "*Он теперь профессором*" kabi gaplarda kesim ishtirok etmagan. Bunday holni A.A.Shaxmatov "moslashmagan tobe tarkib" deb ataydi. Lekin, ushbu gaplarda mantiqiy predikatni ifodalovchi shunday til shakllari ham mavjud, degan xulosaga kelish maqsadga muvofiqdir. Boshqa bir o'rinda u o'z fikriga qarshi chiqqan holda: "kesimni o'rganishni tasdiqlaydigan tabiiy va yagona usul fe'ldir deyish, menimcha xato" deb ta'kidlaydi.

Qayd etilganlardan anglashiladiki, har qanday gapning predikat qismi turli xil so'z turkumlar yordamida ifodalanishi mumkin. Bosh bo'laklar masalasining hozirga qadar ko'pgina bahslarga sabab bo'lishi esa, nazarimizda, tilshunoslikda

²³ В.Н.Мигрин Отношения между частями речи и членами предложения. НДВШ. 1959.№1.

²⁴ Из записок по русской грамматике, Москва,1958

²⁵ Синтаксис русского языка. (2-е изд) Ленинград, 1941,42

ega yoki kesimni aniqlash uchun aniq lingvistik usullardan foydalanmaslikka borib taqaladi. Xususan, amaliy va nazariy grammatikalarda, gap bo'laklari savollar qo'yish yo'li bilan yoki so'z tartibi yordamida aniqlanadi, degan fikrlar ilgari suriladi.²⁶

Yuqorida ta'kidlangan manbalarda qayd etilganidek, tilshunoslikda bosh bo'laklar mantiqiy va grammatik bo'laklarga ajratiladi. Grammatik bo'laklar bilan mantiqiy bo'laklar bir-biri bilan bog'liq, lekin ular o'zaro farqlarga ham ega. Olimlarning bunday xulosasoda ikki element mavjud bo'lib, shu elementlarning qo'shilishidan fikr hosil bo'ladi, ya'ni fikrning sub'ekti va predikati yuzaga keladi. Demak, fikr nima haqida borayotgan bo'lsa, shu narsa haqidagi tasavvur sub'ekt hisoblanadi. Sub'ekt haqida o'ylangan, nutq predmeti haqida aytilgan narsa – belgi predikat hisoblanadi.

Shunga ko'ra, gapda ham ikki bo'lakni, ya'ni sub'ektga mos keladigan bo'lak – egani va predikatga mos keladigan bo'lak – kesimni ko'rish mumkin. Bunday holat faqat ikki tarkibli soda yig'iq gaplargagina xos. Lekin grammatik holatning bundan boshqa xususiyatlari ham bor. Masalan, *My brother speaks English well* – *Mening akam inglizcha yaxshi gapiradi* gapiga e'tibor qilaylik. Har ikkala gapda ham *My* – *Mening* – aniqlovchi, *brother* – *akam* – ega, *speaks* – *gapiradi* – kesim, *English* – *inglizcha* – to'ldiruvchi, *well* – *yaxshi* – hol vazifalarida kelgan.

Ushbu gaplar mantiqiy jihatdan qaralganda yoki bevosita ishtirokchilarga ajratilganda ikki katta qismdan, ya'ni *My brother* – *mening akam* hamda *speaks English well* – *inglizcha yaxshi gapiradi* kabilardan iborat bo'ladi. Bunda fikr ikki hokim (*My brother, mening akam*) va tobe (*speaks English well, inglizcha yaxshi gapiradi*) bo'laklardan ortiq bo'lishi mumkin emasligi namoyon bo'ladi.

Bundan anglashiladiki, gapning sintaktik jihatdan qismlarga bo'linishi mantiqiy bo'linish bilan aloqador, lekin u bilan teng, ya'ni bir xil emas. Mantiqiy struktura bilan grammatik struktura mos kelishi ham, mos kelmasligi ham mumkin. Yuqorida qayd etilganlardan ma'lumki, bosh bo'laklar deyilganda gapning egasi

²⁶ В.Н.Жигадло, И.П.Иванова, Л.Л.Иофик, Современный английский язык. Москва,1956. 245-246.

va kesimi anglashilsa, ikkinchi darajali bo'laklar esa to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol tushuniladi. Bunda ikkinchi darajali bo'laklarning tasnifi gapning mundariyasi va strukturasi bilan bog'liq bo'lib, bir qancha semantik va leksik – grammatik belgilarga asoslanadi. Ikkinchi darajali bo'laklar tushunchasini rus tilshunosligidagi ikki lingvistik maktab namoyondalari turlicha talqin qilishadi.

Ayrim tilshunoslar ikkinchi darajali bo'laklarni ajratishda logik – grammatik tamoyildan kelib chiqqan holda ma'noga qarab so'roq qo'yish hamda elementlarning o'zaro bog'lanish usullarini aniqlashga asoslanadi.²⁷ Boshqa maktab namoyondalari morfologik tamoyilga tayangan holda so'z turkumlarining gap bo'laklariga mutanosibligidan kelib chiqishni afzal ko'radilar.²⁸

Bunday nazariy qarashlar sintaksisning rivojlanishiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilganiga qaramasdan, yuqorida qayd qilingan maktab namoyondalari gap qurilmalarida bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni ajratish tamoyillarini va ularni tadqiq etish metodlarini to'la aniqlab bera olmadilar. Shuning uchun rus tili misolida bayon qilingan quyidagi ilmiy qarash muhim ahamiyat kasb etadi: “Gapda uchta ikkinchi darajali bo'lak turlari (aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol)ni ajratishda gap qurilmasidagi so'zlarning o'zaro aloqalarini aniqlashda gap tuzilishi sun'iy ravishda sxemaga tushiriladi. Bu esa gapning ikkinchi darajali bo'laklarini qaytadan ko'rib chiqishga majbur etadi.

2.4. Ingliz va O'zbek tillaridagi fe'lli qurilmalarning qiyosiy tahlili.

Sodda gap tarkibiga turli sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, shart maylidagi fe'lli o'ram (o'ram)larni kiritish natijasida bu gap qurilishi murakkablashishi (ham shakl, ham mazmun jihatdan) va bunday o'ram(o'ram)lardagi ikkinchi darajali predikatsiyaga ko'ra gapda predikativ jamlanish yuzaga kelishi mumkin. Ana shunday o'ram (o'ram)lar bilan

²⁷ М.В.Бадхен. Понятие пространственной локализации и его интерпритация в английском языке // Лингвистические исследования. Анализ синтаксических единц. Москва, 1986.

²⁸ А.М.Пешковский. Русский синтаксис в научом освещении. Москва, 1956; А.А.Потебня. Из записок по русской грамматике, Москва,1958.

murakkablashgan sodda gaplarda bu predikativ jamlanishga ko'ra shu tipdagi gaplarning sintaktik maqomini belgilashda, ya'ni bunday gaplar haqiqatan ham sintaktik jihatdan sodda gapmi yoki ergash gapli qo'shma gapmi, degan masalada, xususan, turkologiyada, qolaversa, boshqa tilshunosliklarda ham uzoq yillardan beri keskin munozara boradi, biroq, hanuzgacha yagona, to'g'ri, ko'pchilik tomonidan tan olingan bir fikrga kelinganicha yo'q.

Bunday tizim (konstruksiya)lardagi, garchi ikkinchi darajali bo'sa-da, predikatsiya ayni tizimlarni ma'lum darajada ergash gap sifatida qo'llanuvchi muayyan tizimlar bilan yaqinlashtiradi. Ana shundan kelib chiqib, o'z egasiga ega bo'lgan sifatdosh o'ramlarni aniqlovchi ergash gap deb talqin qilish to'g'ri emas, bunday tizimlar bilan to'la ma'nodagi ergash gaplar o'rtasida to'liq tenglik yo'q. Bu tizimlarning "bosh gap" bilan bog'lanishida ergash gaplarning bosh gap bilan bog'lanishidagiga qaraganda sezilarli darajada farq bor. Ayni paytda bu tizimlardagi kesim deb qaralgan fe'l shakllarning kesimlik darajasi ham "bosh gap"dagi kesim bilan aynan bir xil emas.

Mazkur tizimlarda muayyan propozitsiya ifodalanadi. Bu propozitsiya esa harakat va uning bajaruvchisi o'rtasidagi, belgi va belgi egasi o'rtasidagi va shu kabi munosabatlardan iborat bo'ladi. Shuning uchun ham bunday tizimlarning bo'laklari o'rtasida, sub'ekt – predikat aloqasi mavjud, ammo ularda gap qurilishining muhim ega-kesimlik belgilarining yo'qligi bu birliklarning gap sifatida qaralishiga imkon bermaydi. Mazkur sub'ekt – predikat aloqasiga ko'ra bunday tizimlarni ikkinchi darajali predikatsiyali tizimlar deb nomlash mumkin.

Ana shunday tizimlarda predikativ bo'lak vazifasini fe'lning shaxssiz shakllaridan tashqari **bor, yo'q** kabi modal so'zlar, shuningdek, boshqa ko'pgina belgi ifodalovchi so'zlar ham bajarib kelishi mumkin. Masalan: **They were met by an old man with a white beard. Bularni soch-soqoli oppoq bir chol qarshi oldi (A.Qahhor), Those who have melody in their heart live in all the times. Qalbidagi kuyi bor odamlar hamma zamonda yashaydi (M.Mahmudov)** gaplarida oppoq va bor so'zlari predikativ bo'lak vazifasida, ya'ni ikkinchi predikatni ifodalab kelgan, bu bo'laklar ikkinchi darajali predikatsiyali tizimni shakllantirgan. Bu tizimlarga

ko'ra mazkur sodda gaplarda semantik-sintaktik nomuvofiqlik yuzaga kelgan. Ularning semantik-sintaktik xususiyatlari ham ikkinchi darajali predikatsiyali sifatdash o'ramlarning semantik-sintaktik xususiyatlari bilan deyarli bir xil. Hatto ularda sifatdash shaklida qo'llanishi mumkin bo'lgan **bo'lmoq** bog'lamasining o'rni ham sezilib turadi. Qiyoslang: **soch-soqoli oppoq (chol) – soch-soqoli oppoq bo'lgan (chol); Qalbida kuyi bor (odamlar) – Qalbida kuyi bor bo'lgan (odamlar)**. Shuning uchun ham ikkinchi darajali predikatsiyali sifatdash o'ramlar bilan murakkablashgan sodda gaplarning semantik-sintaktik tahlilidan kelib chiqadigan xulosalarni bunday tizimlar bilan murakkablashgan sodda gaplarga ham to'liq tadbiq etish mumkin.

Ikkinchi darajali predikatsiyali ravishdash o'ramlar qatnashgan sodda gap tarkibidagi mazmunlar qo'shiluvida ikkinchi darajali propozitsiyadagi harakat bilan asosiy propozitsiyadagi harakatning bir paytda sodir bo'lganlik ma'nosidan iborat qo'shimcha ma'no ham ifodalanishi mumkin. Masalan: **Adolat went to the spring with her instrument on her shoulder. Adolat ketmonni yelkalab, buloq boshiga bordi (I.Rahim)**.

Ayrim hollarda ikkinchi darajali predikatsiyali ravishdash o'ramning predikativ bo'lagi bo'lgan ayni ravishdash fe'lining analitik shaklidan yoki hozirgi zamon shaklidan shakllanganda birmuncha boshqacharoq qo'shimcha ma'no ifodalanadi. Ikkinchi darajali predikatda ifodalangan harakat davomli bo'ladi, asosiy predikatda ifodalangan harakat esa mazkur davomli harakat "ichida" bajariladi. Shuni ham aytish mumkinki, bunda ikkinchi darajali predikatning asosiy predikatga tobeligi birmuncha kuchsizlanadi va ayni paytda uning umumiy sub'ekt (gapda ega shaklida ifodalangan)ga tegishliligi, u bilan aloqadorliligi yana ham bo'rtib ko'rinadi. Masalan: **Drying her hands in the towel, Saltanat looked out of the kitchen window. Saltanat qo'lini sochiqqa arta turib, oshxona derazasi orqali tashqariga qaradi (O'.Usmonov)**.

Bunday gaplardagi propozitsiyalarning qo'shiluvi ayni propozitsiyalar o'rtasidagi sabab-oqibat aloqasidan iborat qo'shimcha ma'noni aks ettirishi mumkin. Bunda ayni propozitsiyalarning aloqasi benihoya zich bo'ladi, ular bir-

birini hamisha taqozo etadi. Zero, sababsiz oqibat va oqibatsiz sabab mantiqan bo'lishi mumkin emas. Ikkinchi darajali predikatsiyali ayni ravishdosh o'ramlar sabab mazmunli propozitsiyani ifoda etadi va bu propozitsiya asosiy propozitsiyani keltirib chiqaradi, uning voqe bo'lishi uchun sabab bo'ladi. Shuning uchun ham ikkinchi darajali propozitsiyadagi harakat (holat va sh. k.) asosiy propozitsiyadagi harakat (holat va sh.k.)dan oldin amalga oshadi. Masalan: **Aziz, irritated by this weep, can't sleep on the balcony even in summer. Aziz shu yig'idan bezib, yozda ham balkonda yotolmaydi** (*O'.Usmonov*).

Juda ko'p hollarda tarkibida ikkinchi darajali predikatsiyali ravishdosh o'ramlarda ifodalangan propozitsiya asosiy propozitsiyadagi harakatning bajarilishi tarsi, usulini ifodalaydi. Bunda ayni propozitsiyaning asosiy propozitsiyaga tobeligi yaqqolroq seziladi. Masalan: **Sherzod looked out moving the window curtain. Sherzod deraza pardasini surib, tashqariga qaradi** (*O'.H.*).

Ayrim hollarda tarkibida ikkinchi darajali predikatsiyali ravishdosh o'ramlar mavjud bo'lgan sodda gap doirasida ikki yoki undan ortiq mazmun munosabatining qo'shiluvi juda ham zich bo'lishi mumkin. Bu holat asosiy va ikkinchi darajali predikatlar sub'ektlarining ayni tizimlardagi mazmunlar qo'shiluvini zaruriy sharoiti sifatidagi umumiylikidan tashqari yana biror zaruriy mazmun uzvi ham umumiy bo'lganda kuzatiladi. Quyidagi gapga e'tibor beraylik: **Ikrom took out the knife from the metall-shield and put it close to the old man. Ikrom jez poynakli qindan pichoq chiqarib cholning oldiga qo'ydi** (*Said Ahmad.*). Bu gapda **jez poynakli qindan pichoq chiqarib** o'ramining predikativ bo'lagi bo'lgan **chiqarib** ravishdoshi bo'lgan **qo'ydi** asosiy predikatining sub'ektlari umumiy **Ikrom**. Unda sub'ektlarning umumiylikidan tashqari asosiy va ikkinchi darajali predikatlarining zaruriy mazmun uzvlari bo'lgan vositasiz (harakat bevosita o'tadigan) ob'ektlarining ham umumiylikini ko'rish mumkin. Ular bir xil bo'lgani uchun takrordan qochilib, keyingi o'rinda sintaktik jihatdan ifodalanmagan. Qiyoslang: **pichoq(ni) chiqarib; pichoqni qo'ydi**. Ana shu holat mazkur mazmunlar qo'shiluvining benihoya zich bo'lishini ta'min etgan.

Mazmuniy bog'lanishi bilan mazkur sodda gapning mazmuniy qurilishi murakkablashgan.

Ko'p hollarda o'z sub'ekt bo'lagi sintaktik jihatdan bevosita ifodalanmagan sifatdosh o'ramlar aniqlab kelgan sub'ekt ifodalovchi so'zning tushishi natijasida sifatdosh o'ramlar butunisicha otlashishi mumkin. Tushib qoladigan bunday so'zlar, asosan, **odam, kishi** kabi shaxs bildiruvchi so'zlar bo'ladi. Asosiy va ikkinchi darajali predikatlarning umumiy sub'ektini ifodalovchi so'z tushib qolgach, sifatdosh o'ram asosiy predikatning sub'ektini ifodalaydigan bo'lib qoladi. Sifatdosh o'ramdagi predikativ bo'lakning sub'ekti esa ayni otlashgan o'ramning o'z mazmunidan anglashilib turadi. Ikkinchi darajali predikatsiya ifodachisi bo'lgan sifatdosh o'ramining butunisicha asosiy predikatsiyadagi zaruriy uzv – sub'ektni ifodalashi ikki propozitsiya aloqasining mazmuniy jihatdan benihoya zich bo'lishini ta'min etadi. Masalan: **Those people in the corridor immediately called Aziz in. Yo'lakda turganlar darrov Azizni chaqirib olishdi** (*O'.Usmonov*) gapidagi **yo'lakda turgan** sifatdosh o'rami asli asosiy predikat (**chaqirib olishdi**)ning sub'ekt bo'lgan **odamlar** so'zini aniqlab kelgan va ikkinchi darajali predikat (**turgan**)ning ham mazmuniy jihatdan sub'ekt bo'lagini ifoda etgan. Mazkur gapda esa ana shu **odamlar** so'zining tushishi bilan **yo'lakda turganlar** shaklida sifatdosh o'ram otlashgan va asosiy predikatning sub'ektini ifodalab kelgan. Ana shu asosda mazkur sodda gapning mazmuniyati murakkablashgan.

II bob bo'yicha xulosa

Sifatdosh o'ramlar boshqa bo'laklarni ham aniqlab kelishi yoki otlashib boshqa bo'laklar vazifasida kelishi ham mumkin. Barcha hollarda shakl va mazmun nomuvofiqligi yuzaga keladi.

Ma'lumki, sifatdosh o'ramlar sintaktik jihatdan o'z ichida bo'lina oladi. Ayni paytda ular hoh sifatlashgan holda bo'lsin, hoh otlashgan holda bo'lsin, yoyiq bo'lak sifatida muayyan bir sintaktik o'rinni egallaydi. Bu holat esa sifatdosh

o'ramning o'z ichidagi sintaktik aloqa butun gap nuqtai nazaridan funksional emasligini, bu sintaktik aloqaning funkcionalligi faqat o'ram ichidagina namoyon bo'lishini, bu aloqani faqat ayni o'ramni alohida sintaktik tahlil qilish yo'li bilangina baholash mumkinligini ko'rsatadi. Ammo mavjud lingvistik adabiyotlarning juda ko'pchiligida sifatdosh o'ram (shuningdek, harakat nomi va boshqa tizim) tarkibida muayyan "bo'laklar" gapning funksional bo'laklari bilan mutlaqo tenglashtiriladi. Aniqlovchi gapning zaruriy (konstruktiv) bo'lagi bo'la olmaganligi uchun o'ramdagi aniqlovchi bilan o'ramdan tashqarida, gapda mavjud bo'lgan aniqlovchi tenglashtirilishi mumkin. Ammo o'ram tarkibidagi "to'ldiruvchi"ning o'ramdan tashqarida, gapda mavjud bo'lgan to'ldiruvchi bilan tenglashtirilishi mutlaqo asosga ega emas. Chunki avvalo, birinchisi gap nuqtai nazaridan funkcionl emas, ya'ni butun gapning zaruriy (konstruktiv) bo'lagi emas, ikkinchisi esa funksional bo'lib, gapning bevosita zaruriy (konstruktiv) bo'lagidir. Qolaversa, o'ram tarkibidagi "to'ldiruvchi" ikkinchi darajali predikatning ob'ektini bildirsa, undan tashqaridagi "haqiqiy" to'ldiruvchi asosiy predikatning ob'ektini ifodalaydi. Bunday to'ldiruvchilarning maqomini bir xil deb qarash ikkinchi darajali va asosiy predikatlarning ham bir-biriga tenglashtirilgan holda baholanishiga olib keladi. Bu esa mutlaqo ilmiy asosga va mantiqqa ega emas. Shuning uchun ham to'ldiruvchilarni baholash kriteriyalarini birmuncha aniqlashtirish lozimga o'xshaydi. Bizningcha, to'ldiruvchilarni 2 turga ajratish kerak: 1) funksional to'ldiruvchilar va 2) nofunkcional to'ldiruvchilar. Bunda bevosita asosiy predikatning ob'ektini ifodalagan, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri kesimga bog'langan to'ldiruvchilar funksional to'ldiruvchilar deb, ikkinchi darajali predikatning ob'ektini ifodalagan, ya'ni turli tizimlar (o'ramlar) tarkibidagi to'ldiruvchilar eas nofunkcional to'ldiruvchilar deb qaralishi maqsadga muvofiqdir. Ana shunda to'ldiruvchilarning mazmuni ham, ayni paytda butun gapning mazmunini ham baholashdagi yondashuv yana ham xolis bo'lgan bo'lardi.

III BOB. INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SINONIMIK STRUKTURALARINI FUNKSIONAL TADQIQI

3.1. Predikativ aloqalarning tabiati va ularni hozirgi zamon Ingliz va O'zbek tillarida ifodalanishi.

Ingliz tili nazariy grammatikasida ikkilamchi predikatsiya masalasi kam o'rganilgan sohalar sirasiga kiradi. Ma'lum bir izohlarni ayrim rus tilshunoslarning zamonaviy ingliz tilida gap tuzilishini o'rganishga qaratilgan izlanishlarida ko'rimishimiz mumkin. Biroq ikkilamchi predikativlik hodisasi alohida izlanish sifatida hech qayerda ajratilmaydi va shu sabab ham kam o'rganilgan hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek tashqi ikkilamchi predikativ aloqa gapning ikki alohida mustaqil va o'zaro sintaktik aloqada bo'lgan bo'laklari orasida ichki ikkilamchi predikativ aloqa esa, gapning bir murakkab bo'lagining ikki qismlari orasida mavjud bo'ladi. Bundan kelib chiqadiki predikativ struktura nafaqat gapda balki gapning murakkab bo'lagi vazifasida ayrim so'z birikmalarida ham mavjud bo'lishi mumkin. So'z birikmalarining gaplardan asosiy farqi ulardagi predikativlik ma'no jihatdan predmet va belgining keng ma'nodagi moddiy aloqadorligidan iborat. Gaplarda esa predikativlik zamon, reallik, so'zlovchining munosabati planidagi borliqqa aloqadorlikni ham o'z ichiga oladi. Demak, predikativ strukturasi eng kichik birlik bo'lib, nafaqat gap balki, so'z birikmasi ham hisoblanishi mumkin. Bizning fikrimizcha ingliz tilidagi predikativ so'z birikmalariga murakkab ega, murakkab to'ldiruvchi, murakkab aniqlovchi, murakkab hol va murakkab predikativ bo'lakni kiritishimiz mumkin. Gapning barcha murakkab bo'laklarining vazifasi ingliz tili sintaksisi muammolarini o'rgangan tilshunoslar tomonidan ko'rsatib o'tilgan biroq ular buni sintaktik birliklar o'rtasidagi aloqalarning ifodalanishining boshqa uslublariga aloqadorligi tizimida ko'rib chiqilmagan.

Predikativ oppozitsiyalarning namoyon bo'lish shartlarini o'rganish ularning neytrallashish imkoniyati (so'z birikmalari bir ma'noda bo'lganda va bir

xil sintaktik va semantik vazifalarga ega bo'lganda) funksional-struktura tahlil qilish orqali amalga oshishi mumkin va bu narsa gap bo'laklari o'rtasidagi turli xil aloqalarning izohi sifatida xizmat qiladi. Ko'p hollarda normal tahlil til strukturasining an'anaviy tahlil qilish deyarli hech narsa olib kelmaydigan murakkab qismlarini ochib berishda qo'l keladi. Predikativ so'z birikmalarini o'rganishda nafaqat ularning har birining an'anaviy klassifikatsiya asosidagi vazifasini aniqlash balki ushbu so'z birikma nimaga aylanishi mumkinligi va qanday o'ziga xos o'zgarishlarga uchrashi mumkinligi ham o'rganilishi lozim. Bu izlanishimiz predmeti sintaktik birliklarning ifoda jihati va mazmun jihatining aloqadorligidir. Har bir struktura alohida holda emas balki boshqa strukturalar bilan bog'lanib o'rganiladi. Biz predikativ so'z birikmalarining turlarini aniqlashimiz, ularning disturbutsiya va valentligini hamda strukturaning boshqa turlari bilan o'zaro aloqasini o'rganishimiz lozim. Izlanishimizda transformatsiya metodi qo'llaniladi. Predikativ so'z birikmalarining ayrim modellarini ko'rsatish - ularning vazifasini aniqlash (komponentlar o'rtasidagi semantik aloqalar) va matnda ro'yobga chiqishidir.

Predikativ so'z birikmasi bo'lgan gap murakkablashgan bo'lgani uchun (predikativ aloqada) bunday so'z birikmasining oppozitsiyasi o'ziga xosdir. Masalan, *Accusatives cum infinitive* ning ingliz tilidagi quyidagi kabi gaplarda:

I saw him swim, him – swim oppozitsiyasini ko'rish mumkin va boshqa bir oppozitsiyaning ichidagina mavjud bo'la oladi. Aynan kesim (*saw*) – murakkab to'ldiruvchi (*him swim*) oppozitsiyasida. Shunday qilib murakkab to'ldiruvchi murakkab oppozitsiyaga (*kesim – murakkab to'ldiruvchi*) kiradi va u o'zida yana bir oppozitsiyaga egadir. Oxirgi vaziyatni ichki oppozitsiya deb atash mumkin. Demak, Ingliz tilida ikkilamchi predikativ aloqa ichki oppozitsiya sifatida predikativ so'z birikmasi bo'lgan *Accusatives cum infinitive* orqali ro'yobga chiqadi. *Accusatives cum infinitive* ishtirok etgan murakkab oppozitsiyaning disturbutsiyasini quyidagicha tasavvur qilish mumkin: kesim – murakkab to'ldiruvchi (ikkilamchi sub'ekt – ikkilamchi predikat).

Predikativlik kategoriyasini ro'yobga chiqaruvchi oppozitsiyalar tizimini o'rgana turib, I.B.Xlebnikova keltirib o'tgan grammatik kategoriya va grammatik oppozitsiya tushunchalarining ta'rifiga suyanamiz.²⁹ Predikativlik kategoriyasi mazmun jihatining birligi hisoblanadi va u ma'lum shakllar yig'imida ro'yobga chiqadi. U ma'lum bir belgining oppozitsiya a'zolarida mavjud yoki mavjud emasligini qarama-qarshi qo'yish orqali yuzaga chiqadi va bu yerda belgining birdamligi orqali solishtiriladi. Bu predikativlik belgisi bo'lib, xabarning mazmunan yaqinligiga xizmat qiladi va u korrelyativ juftlik bo'lmish ega-kesim yoki birinchi raqamli sintaktik oppozitsiyaning o'zida oppozitsiyaning ikkinchi a'zosiga ega bo'ladi. Morfologik bosqichdagi grammatik oppozitsiyadagi kabi, har qanday sintaktik oppozitsiya o'z a'zolarining o'xshashligi va qiyosiyliigi asosida ko'riladi. U ikki sintaktik birliklarning ma'no farqlovchi qarama-qarshiligini anglatadi, ushbu birliklar oppozitsiyaning ikkala a'zosi uchun umumiy bo'lgan belgiga ega bo'ladi (taqqoslash uchun asos) va ushbu oppozitsiya a'zolarini farqlovchi asosiy ma'no farqlovchi belgining mavjud yoki mavjud emasligini ajrata oladigan xususiyatga ega bo'ladi.

Sintaktik oppozitsiya mazmun jihatining ham birligi hisoblanadi. Predikativ aloqalar mikrosistemadagi oppozitsiyalarning umumiy klassifikatsiyasining maqsadi bo'lib, mazmun jihati birliklari o'rtasidagi aloqani ko'rsatish aloqalarning belgilanganlik yoki belgilanmaganligining formal tasdig'i (oppozitsiya a'zolari (ya'ni oppozitsiya a'zolarida ma'lum bir belgining mavjud yoki mavjud emasligi)) hamda ularning ishchanligi yoki neytralizatsiyasi xizmat qiladi. Amaliylik predikativ oppozitsiyalarning neytrallashuvi ham turli xil holatlarda formal darajada mavjudlik yoki mavjud emaslikni tasdiqlashi, shuningdek gap bo'laklari o'rtasidagi predikativ aloqalarning ierarxiyasini ko'rsatishi mumkin. Bu yerda oppozitsiyalarni gapda ishtirok etuvchi predikativ aloqalarining nutqdagi turli xil real vazifalari nazaridan aniqlashda ishlatilishi nazarda tutilmoqda. O'zining tarkibi bo'yicha sintaktik oppozitsiya ikki a'zolidir.

²⁹ И.Б.Хлебникова. Система английского глагола и сослагательное наклонение. Автореферат док.дисс. М. 1965, стр15-16.

A'zolari o'rtasidagi aloqalarga ko'ra sintaktik oppozitsiyalar ularning a'zolariga xos bo'lgan belgilarga qarab klassifikatsiya qilinadi.

Oppozitsiyalarning matndagi ma'lum bir shartlar yoki nutqdagi neytralizatsiya qilinish imkoniyati gap bo'laklari o'rtasidagi aloqalarning mazmunini tasdiqlaydi. Sintagmatik hodisa deb tushuniladigan sintaktik oppozitsiyaning neytralizatsiyasi nutqdagi ishlatish jarayonida bir a'zoning ma'lum bir a'zosi yo'qolishi-yu va oppozitsiya ikkala a'zosidagi umumiy ma'noning saqlanishini anglatadi. Gap bo'laklari o'rtasidagi aloqalar mazmunining transpozitsiyasi yuz beradi. Shunday qilib sintaksemalar (invariantli va variantli ma'nolar)ning nutqdagi turlicha ishlashi sharoitida shuni rasman aniqlash mumkin-ki oppozitsiyalar va neytrallashuv jarayonidir. Oppozitsiyalar neytrallashuvda ma'no ham neytrallashadi. U holda ma'noning neytrallashuvi ifoda jihatiga ta'sir qilmaydimi? Ifoda va mazmun jihatlarini o'rtasidagi doimiy o'zaro munosabati ifoda etiluvchining ifoda shakliga ta'sir qilmaydi. Oppozitsion tahlil bir-biridan ajratib qo'yilgan oppozitsiyani qamrab olmaydi, balki berilgan tizimning (masalan predikativ) barcha oppozitsiyalarini o'zaro munosabatini o'rganadi. U har bir oppozitsiya a'zolarini turli xil oppozitsiyalarning tutash nuqtalarini distributsiya faktorlarining oppozitsiya ma'nosiga va ularning neytrallashuviga ta'sirini o'rganadi. Sintaksis darajasidagi til birligi shakl va ma'nosi bo'lgan ikki taraflama belgini bildiradi va oppozitsiyalar ajralib ketadigan dioferensiol belgilarning bog'lami hisoblanadi. Predikativ tizim bir xil korrelyativ belgiga ega bo'lgan korrelyatsiyalarning majmui hisoblanadi. Oppozitsiyalar yordamida sintagmatik qatordagi har bir korrelyatsiya juftliklarining ma'nosini chiqarish turli xil lingvistik sharoitlar ta'siridagi invariantli va variantli ma'nolarni izohlash mumkin. Sh yo'l bilan predikativlik sintaktik kategoriyasi formalizatsiyaga uchraydi.

Demak, izlanishimizda asosan formal tahlilning ikki xil metodi ishlatiladi: transformatsiya va oppozitsiya. Agar oppozitsiya metodi (OM) turli tilshunoslik maktablari va yo'nalishlarining tilshunoslari tomonidan fonologiya va morfologiya sohalarida lingvistik tahlilda ishlatilsa, sintaksisda ushbu usul unchalik ishlatilmagan. Ushbu metod til birliklarining sintaksis darajasidagi strukturalar

semantic aloqalarini aniqlashda transformatsion metod (TM) yetarlicha natijaga olib kelmaganda foyda beradi. Agar biz TM orqali ifoda jihatining formal elementlari o'zgarishini to'g'ridan to'g'ri kuzatish, OMning ustunligi uning nafaqat ifoda jihati elementlarining balki til birliklarining mazmun jihati elementlaridagi o'zgarishlarni tahlil qilishda ham ishlatilishi hisoblanadi. Gapni o'rganar ekanmiz biz an'anaviy tilshunoslikning gapga berilgan tafsilotli ta'rifini, shu jumladan "gap modeli" atamasini ishlatamiz. Bu yerda gap grammatik va aktual bo'laklarga ajratish mos tushadigan ikki tarkibli gaplar haqida bormoqda. Tayanch gap elementlarining ergashish tartibi yo'lga qo'yilgan hisoblanadi; gapning har bir bo'lagi ma'lum bir pozitsiyaga ega. Asosiy muammoli boshlang'ich holat pozitsiyalarining o'rganilishi hisoblanadi. Ikki tarkibli gap modeli tushunchasiga ikkilamchi predikatsiyali gaplarni ham qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularning ayrimlari ingliz tilida N pozitsiyasida bo'ladi va transformatsiyaga uchragan gaplar hisoblanadi.³⁰

Gapning barcha bo'laklari biror qarama-qarshilikka kiradi: gapning asosiy bo'laklari bir-biriga qarshi qo'yiladi; ega va kesim bosh bo'laklar sifatida ularga bog'liq bo'lgan ikkinchi darajali bo'laklarga qarama-qarshi qo'yiladi; ikkinchi darajali bo'laklar bir-biriga ularning qaysi biri bosh bo'lakga bog'liqligi belgisi bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Natijada gapning 5 bo'lagi kira oladigan sintaktik oppozitsiyalarning butun bir tizimi yuzaga keladi. Ingliz tilida sintaktik oppozitsiyaning ifoda jihatiga ta'aluqli bo'lgan differensial belgilar so'z shakllarining belgilari hisoblanadi: morfologik (so'z o'zgarish shakllari, kelishik va son, so'z yasashning to'rt shaklsi) va sintaktik (artikl bilan qo'llana olish, pozitsiya - so'zlar tartibi, talaffuz, grammatik aloqaning usuli). Sintaktik oppozitsiyaning mazmun jihati formal belgilarga oppozitsiya a'zolarining quyidagi belgilari ta'aluqlidir: a'zolarining ierarxiyasi, belgining umumiyliigi, belgining bor-yo'qligi, distributsiya, relevantlik va neytralizatsiya. Bularning barchasi mazmun jihatining tashqi belgilari hisoblanadi. Sintaktik oppozitsiyaning mazmun jihati

³⁰ N.Chomskiy Structures 'S' – Gravenhage, p1. Z.S.Harris. Co-occurrence and Transformation in Linguistic Structure, "Language", vol.3,№3(Part I), 1957, pp283-340.

ichki belgilari bu – sintaksemalarning struktural ma'nosi: predikativlik, attributivlik, kompletivlikdir.

Sintaksemalarning rasmiylashtirilishining morfologik va sintaktik vositalari ma'nosi sintaktik oppozitsiyaning mazmun jihati ichki belgilariga kiradi. Tayanch gapning semantik invariantligi tushunchasi turli xil sintaktik qurilmalarning mazmunini tashkil etuvchi sintaksemalarning bir xil o'zaro aloqasiga olib keladi. Oppozitsiyalar yordamida qilinadigan tahlil sintaksis darajasidagi struktural munosabatlarning umumiy tizimidagi turli xil mikrotizimlar a'zosi sifatidagi sintaktik birliklarning tarkibi mazmuni va o'zaro aloqarini yangi asosda aniqlashda qo'l keladi. Predikativ strukturalarning material tarkibi ularning ierarxiyasi va asosan ushbu strukturalarning aloqa va munosabatlari mazmun jihati formal tahlilini ta'minlovchi transformatsiya va oppozitsiyalar yordamida yo'lga qo'yiladi va ochib beriladi.

Bularning barchasi asosan yoki nomzodlik dissertatsiyalari yoki maqolalar bo'lib o'z oldiga bir tur so'z birikmalari rivojlanish jarayonlarini aniqlashtirish, so'z birikmasidagi asosiy so'zni ko'rib chiqish bir tur so'z birikmasining gapdagi vazifasini aniqlash kabi maqsadlarni qo'yishgan. Masalan, V.L.Kokla ishining mazmuni ingliz tildagi gerundiylilik so'z birikmalarining rivojlanishi va sistematizatsiyasini o'rganishdan iborat bo'lib bu yerda izlanuvchi predikativ gerundial o'ramlarni qoldirib ketadi.³¹ Bunday o'ramlarni esa Ye.N.Sherstovanning nomzodlik dissertatsiyasida yoritilganligini ko'rishimiz mumkin.³² Biroq ingliz tilidagi ayrim so'z birikmalarining o'rganilishidan tashqari barcha turdagi so'z birikmalarining ishlatilish joyi va ma'nosi ko'rsatilgan, shuningdek, ularning struktural turlari hamda ularning variantlarini ham ko'rsatib o'tilgan birorta izlanish mavjud emas.

Bizning izlanishlarimiz predikativ so'z birikmalar gapning struktural asosi sifatida so'z birikmalari umumiy tizimida asosiy o'rin tutadi degan fikrni oldinga

³¹ В.Н.Кокла. Сочетание герундия с предлогами в современнаи английском языке (канд диссерт) М. 1963.

³² Е.Н.Шерстова. Развитие словосогетаний с герундием в английском языке (канд диссерт) Л. 1964.

surish imkonini beradi. Bundan tashqari, predikativ aloqalar ushbu umumiy tizimning bir qismi bo'lgan so'z birikmalari mikrotizimida vujudga keladi.

So'z birikmasi deganda ikki yoki undan ortiq ko'p o'zaro bog'langan so'zlarning nutq zanjirida tarixiy vujudga kelgan grammatik bog'lanishini tushuna turib, biz ingliz tilidagi predikativ so'z birikmalariga oddiy yoyiq gapning to'rt murakkab a'zosini murakkab ega, murakkab to'ldiruvchi, murakkab aniqlovchi va murakkab holni kiritamiz.

Bularning barchasi bir-biridan ajratilmagan holda, balki o'zaro aloqada va birinchi navbatda birinchi raqamli predikativ so'z birikmasi bo'lgan ega-kesim aloqasida o'rganiladi. Ingliz tilidagi predikativ so'z birikmasining o'ziga xosligi shundaki, u gapning yagona bo'lagini hech qanday qayta tuzishsiz yuzaga keltira oladi; masalan:

I want you to come, biroq Men sizning kelishingizni istayman yoki Я хочу, чтобы вы пришли.

Biz o'z izlanishimizda birinchi raqamli so'z birikmasini va uning turlarini batafsil ko'rib chiqmoqchi emasmiz, chunki birinchidan ushbu hodisalar umuman olganda rus va o'zbek tillariga xosdir, chunki birlamchi predikativlikni ifodalashda ushbu ikki tilda sistemali farqlanishlar mavjud emasdir. Ikkinchidan esa bu hodisalar har qanday tilda ham yetarli darajada o'rganilgan. Turli tillardagi predikativlik kategoriyasining ifodalanishi vositalarini taqqoslab o'rganish ushbu vositalarning har bir tildagi o'rni va o'zaro aloqalarini atroflicha tushuntirish imkonini beradi.

Tabiiyki gap bo'laklarining erkin tartibi bo'lgan tillarda so'zlar o'rtasidagi sintaktik va mantiqiy aloqalarning yanada murakkabroq kesishuvi ro'y beradi, biroq so'zlarning qat'iy tartibi bo'lgan tillarda bu narsa kuzatilmaydi. Ingliz tilida sintaktik guruhlarining siqishuvi va shu bilan birgalikda grammatik komplekslar gapning murakkab a'zolari hisobiga aloqalarning soddalashuvi yuz beradi. Gap strukturasi tizimida mazmunning an'anaviy ravishda asosiy vosita sifatida ishlatilishini inkor qilsakda lekin mazmunga lingvistik tahlil apparatida o'rin ajratamiz.

Gaplarni soʻz shakllariga ajratishda biz funksional klassifikatsiyadan yaʼni morfologik sinflarni ularning sintaktik xususiyatlariga qarab ajratishdan foydalanamiz. Sintaktik modellar ikki klassifikatsiya asosida yaratiladi: morfologik va transformatsion. Morfologik (funktional) klassifikatsiya konstruksiyasining struktural turini oʻrnatadi, transformatsion klassifikatsiya esa har bir turdagi yana bir ichki turni yaʼni transformatsion potensial orqali topiladigan va har qanday ichki turning xususiyati va formal xarakteristikasi boʻlganlarni yoʻlga qoʻyadi. Har qanday yadro (yoki minimal) gap transformatsiya yordamida yechilishi mumkin. Murakkab strukturasi (gapning murakkab boʻlaklari) boʻlgan ingliz tildagi oddiy gap yadro gaplar (kamida ikki) tizimi sifatida qaralishi mumkin va ular transformatsiya orqali oʻzgartirilgan va maʼlum bir maʼnoda (umumiy soʻzdagi kesishganlik S2 ning ega, toʻldiruvchi va boshqalar S1 da ishlatilishi va hokazo) bogʻliqdir. Sintaktik model (til) maʼnaviy variantlarga ega boʻla olishi sabab, klassifikatsiya qilinayotgan birliklarning sinflarini taʼkidlash lozim boʻladi. Misol uchun accusatives cum infinitive li modelda V simvolini maxsus belgilar bilan taʼminlash zarur va bu belgilar feʼning maʼlum bir leksik sinfga tegishlilikini ifodalash lozim. Bundan kelib chiqadiki bu yerda leksik maʼno formant sifatida yuzaga chiqadi.

Transformatsiya metodi maʼnaviy aloqalarning formal namoyon qilish vositasi sifatida relyatsiya metodi hisoblanadi. U mazmunni obʼektivlashtirishda uning ushbu shaklda mavjudligini tajribaga asoslanib isbotlashda bir biri bilan semantik bogʻlangan til birliklarining oʻrtasidagi semantik aloqalar xarakterini ochishda yordam beradi. Ifoda jihatiga oʻxshab mazmun jihati ham komponentlarning majmuidir. Sintaktik darajada modellarning relyatsion maʼnolari barqarordir, ularning leksik toʻldirʼishi esa oʻzgaruvchandir. Shuning uchun ham transformatsiya jarayonida mazmunning invariant birinchi navbatda grammatik maʼnoga tegishli boʻladi.³³

³³ Е.Н.Шерстова. Развитие словосогетаний с герундием в английском языке (канд диссерт) Л. 1964.
Д.С.Уорс. Трансформационный анализ конструкций с творительным падежаи в русском языке. – В сб.:Новое в лингвистике. Выл.И. изд-во иностранной литературы, М., 1962, стр. 654-682.
Dean Stoddard Worth, Transform analysis of Russian instrumental constructions “Word”, vol.14,№2-3, New York, 1958, p247-290.

Predikativlikning kategorial ma'nosi grammatik ma'no guruhiga kiradi va ularning asosida predmetlar va ob'ektiv borliq hodisalar o'rtasidagi aloqalar yetadi. Ushbu ma'noni ajratib olishda uning turli-tumanligini hisobga olish lozim. Bizning fikrimizcha so'z birikmasi yoki gapdagi predikativ aloqalarning xarakteristikasi uchun ma'lumot miqdori (yoki belgi massasi) tushunchasini kiritish samarali bo'lar edi. Ma'lumot miqdorining asosiy qismi birlamchi predikativ aloqa (yagona va qo'shaloq predikatsiya) orqali ifodalanadi, ma'lumotning qo'shimcha miqdori esa ikkilamchi predikativ aloqa (ikkilamchi predikatsiya) orqali ifodalanadi.

Transformatsion tahlil predikativ xarakteri shubha chaqiruvchi ingliz tilidagi bir qator so'z birikmalarda predikativ aloqa mavjudligi ma'nosining invariantini saqlangan holatdagi konstruksiya formal elementlarini o'zgartirish orqali isbotlaydi. Yana bir ta'kidlash lozimki, biz so'z birikmalari va gaplar o'z holiga bir-biridan keskin farq qiluvchi sintaktik birlik sifatida nafaqat formal-struktural va funksional jihatdan, balki semantik jihatdan ham bir-biridan farq qilishidan kelib chiqmoqdamiz. Biz so'z birikmalarini gap qurilishida ko'rib chiqamiz chunki bu yerda ular o'zlarining predmet jihatdan o'zaro munosabatidan tashqari borliqqa bo'lgan ma'lum bir zamon va modallik aloqasini ifodalaydi.

Transformatsion tahlilni mazmuning invariant yo'lga qo'yadi. Sintaksis darajasida transformatsiyani ishlatishning ikki hodisasi quyidagilarga olib keladi: a) kerakli kategoriyaning mavjud yoki mavjud emasligini isbotlash maqsadida konstruksiyalar o'rtasidagi ma'lum bir semantik aloqani aniqlashga; b) antonimlik konstruksiyalarni aniqlashga. Boshqacha aytganda transformatsion tahlil konstruksiyalarning sinonimik va antonimik ravishda o'zgarishiga ya'ni PS va PA ning³⁴. PS ushbu izlanishda transformatsiyaning asosiy turi hisoblanadi. Sinonimik konstruksiyalar bitta matnning o'zida bir xil distributsiyaga ega bo'ladi. Sinonimik aloqalar deganda ikkala konstruksiyada barcha grammatik ma'nolar shu jumladan yangilikni ro'yobga chiqaradigan kommunikativ vazifalar ham to'g'ri kelishi tushuniladi. Izlanishda omonimga o'zgarish ya'ni ikki qatorli bo'lgan PS va PA

³⁴ Г.К.Крушельницкая. Трансформационный метод и проблема знания. – В сб.: Иностранные языки в высшей школе. Тематический сборник 1-й МГПИИГ. Вып. III, М., 1964 Изд-во "Высшая школа" стр.10.

dan farq qiluvchi uch qatorli transformatsiya ishlatiladi. Predikativ soʻz birikmali omonimlik sintaktik modelda predikativlikning potensial mazmuni ikki transshaklda eksplatsiya qilinadi. Semantik invariant deganda ushbu transformatsiya yoradamida oʻzining eksplisit ifodasini topadigan predikativ maʼno tushuniladi.

Boshqa grammatik maʼnolar oʻzgarish mumkin. Ushbu oʻzgarish odatda grammatik maʼnolar sonini oshirish evaziga amalga oshadi, chunki omonimiyaga oʻzgartirishda boshlangʻich boʻlak boʻlib qoidaga binoan chapga aylana turib unga xos boʻlgan maʼnolarni oladigan soʻz birikmasi xizmat qiladi. Tabiiy ingliz tilidagi nutqqa gapdagi otli soʻz birikmalarining oʻzgarishi yoki buning teskarisi xosdir. Nutq shartlariga tegishli boʻlgan bitta maʼno oʻralgan yoki yoyilgan holda koʻrinishi mumkin. Sintaktik konstruksiyalarning har xil maʼnoligi unga kiruvchi soʻzlar leksik maʼnolari bilan olinmasa omonimiyaga oʻzgartirish yaqqol ravishda sintaktik konstruksiyalar oʻrtasidagi barcha semantik aloqalarni mujassam etadi va oydinlashtiradi.

Transformatsion tahlil orqali chiqarilgan xulosalarning qiymatiga transformatsiyaning toʻgʻriligi prinsipi orqali erishiladi. Transformalar til voqeligida ingliz tili normalariga toʻgʻri keladigan sifatida tekshiriladi. Transshaklning oxirgi boʻlagi model sifatida ushbu aloqalarda konstruksiyaning leksik toʻldirilganligi bilan mustahkamlanishi lozim boʻladi. Boshlangʻich va soʻnggi modellarning toʻgʻriligini yoʻlga qoʻyish (grammatik tomondan) leksik tomoni yoki aynan ushbu leksemalarning xuddi shunday grammatik rasmiylashtirilishda ishlatila olinish imkoniyatini tekshirishni talab etadi. Har bir transformatsiya maʼno invariant bilan aloqadagi berilgan sharoitlarda aniqlanadi. Transformatsiyaning turiga qarab oʻzgarishning oxirgi boʻlagi ushbu tashkil etuvchi maʼnosiga berilgan sharoitda tekshiriladi.

Berilgan predikativlik maʼnosiga transformatsiya qilishda yashirin ravishda ifodalangan predikativlik maʼnosining izohi tekshiriladi. Transformning toʻgʻriligini tekshirishning eng samarali yoʻli bu uning xuddi boshlangʻich konstruksiyadagi kabi holatda maʼnoni oʻzgartirmasdan ishlatishdir.

Omonimga o'zgartirish murakkabroq sharoitda qo'llaniladi, chunki u sinonimga va antonimga o'zgartirishni o'z ichiga oladi. Sinonimik konstruksiyalarning har xil strukturali bo'lish imkoniyati va bu yerdan kelib chiqadigan predikativ ma'noni ifoda etish ma'nosidagi farqliklar izlanuvchidan chuqur e'tiborni talab etadi.

Transformatsion tahlilning maqsadi va ulanishdagi sintaktik bo'laklarning xarakteri muallifga o'rganilayotgan kategoriyaning tushunchaga oid tarafini ro'yobga chiqaradigan turli xil formal ma'lumotlarni ishlatishda hech qanday cheklovlar qo'ymaydi. Sintaktik birliklar aloqalari tahlili uchun oppozitsiya metodi mazmun jihati belgilarining formal ifodasi bilan bog'liqdir va boshlang'ich ma'lumotlar sifatida sub'ekt, predikat, ob'ekt va hokazo semantik kategoriyalarni olish bizningcha ancha qulayroqdir.³⁵ Tayanch gap sifatida izlanishida fe'l-kesim, darak va nogiosional (ya'ni grammatik va aktual bo'laklarga ajratish o'rtasida farqlilar mavjud bo'lmagan) shaxsiy formali ikki tarkibli gapning modeli qo'llanilgani uchun oppozitsiyasining bo'laklari sifatida ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqllovchi va hol yuzaga chiqadi.

Ushbu sintaktik kategoriya predikativlik aloqasi strukturalar jihatdan dominant o'rin egallagan har xil relyatsiyalar orqali bog'lanadi. U gapda ifoda etilishi lozim bo'lgan, ya'ni uning asosiy elementlari fikrning asosiy mazmunini anglatadi. Oppozitsiya predikativ aloqa mavjud yoki mavjud emasligini bildiruvchi xulosalarning to'g'riligini tekshirishning yana bir formal usuli sifatida sintaktik ta'rifni to'ldiradi va til relyatsion strukturasi chuqurroq kirishga imkon yaratadi.

Transformatsiyaning izohlash kuchi oppozitsiyalar bilan isbotlanadi. Misol uchun, transformatsion metodning natijalari normativ grammatika sxemasining kommunikativ vazifasi jihatiga to'g'ri kelmaydigan gaplarni oppozitsiya metodi orqali tahlili bilan o'z isbotini topadi. Ularda so'zlar tartibi yoki intonatsion vositalar ushbu va yangi (данное и новое) ma'lumotni ifoda etish usuli hisoblanadi, biroq ushbu gaplar antonimlik transformalar bo'ladi. Birinchi raqamli

³⁵ Г.К.Крушельницкая. Трансформационный метод и проблема знания. – В сб.: Иностранные языки в высшей школе. Тематический сборник 1-й МГПИИГ. Вып. III, М., 1964 Изд-во "Высшая школа" стр.3.

oppozitsiya (ega-kesim)ning neytralizatsiyasi bunday gaplarda ushbu gaplarni berilgan grammatik ma'noni oppozitsiya asosini saqlagan holda qarama-qarshiligiga o'zgartirishni anglatadigan antonimlik transformalar (AT) deb ta'riflashning to'g'riligini tasdiqlaydi. Qaysidir ma'noda trnsshakltsion ta'rifning chegaralanganligini yoki ayrim holatlarda ish bermasligini aynan oppozitsiya metodi to'ldiradi. Mazmun jihatini antonimga o'zgartirishda sintaktik modellar uchun foydalanish qulayroqdir, chunki ularda har bir element morfologik emas, balki sintaktik kategoriyalarga mos keladigan grafik tasvirlarga ega bo'ladi, masalan N1 VN2 o'rniga SPO (Subject, Predicate, Object) kabi. Transformatsion metod kabi oppozitsiyalar metodi ham relyatsiyalar metodi hisoblanadi. Sintaktik darajada oppozitsiyalar yo'li bilan ya'ni barcha sintaktik birliklarning qarama-qarshi qo'yilishi lozimligi holati asosida yechilishi kerak bo'lgan muammolar mavjud. Predikativlik kategoriyasi ifoda va mazmun jihatlarining tahlilida biz quyidagilarni aniqlaymiz:

- 1) Predikativlik so'z birikmalarining morfologik strukturasi, ularning son va sifat tarkibini, ularning struktural turlarini va distributiv belgilarini;
- 2) Har bir struktural tur va uning predikativ ma'nosini transformatsion metod bilan;
- 3) Predikativ so'z birikmalarini o'z ichiga olgan oppozitsiyalar xarakterini, ularning oppozitsiyalar klassifikatsiyasida tutgan o'rnini va ma'lum bir kontekstual sharoitlarda neytralizatsiyalashish imkoniyatini, ya'ni mazmun jihati birliklari formal aloqalarini tasdiqlash imkonini beradigan va ingliz tilidagi gaplarning o'rganilayotgan murakkab bo'laklariga qo'shimcha ravishda omonimlik sintaksemalarning variantli va invariantlilik ma'nolarini izohlah.

To'laqonli lingvistik tahlil uchun an'anaviy deskriptiv va transformatsion grammatikaning barcha bizga ma'lum usullaridan foydalanamiz. Gap predikativ tizimining barcha bo'laklari tarkibi, va ierarxiyasini o'rganib, predikativlik kategoriyasining ifoda va mazmun jihatlari o'zaro munosabatini aniqlaymiz.

Ingliz tilidagi predikativ so'z birikmalarni klassifikatsiya qilishda ajratilgan gap bo'laklari va ularning sintaktik qurilma sifatidagi o'rnini aniqlab olish lozim.

Agar biz hozirda tilshunoslikda keng qo'llanilayotgan ta'rif – so'z birikmasi bu ikki yoki undan ko'p mazmun va grammatik tomondan bog'langan so'zlarning birikmasini qo'llab, makonga oid o'zaro bog'liqlik, so'zlar tartibi, ritmik va intonatsion vositalar ham so'z birikmasini ajratish va chegaralashni shart qiladi, biroq ularga ajratilgan aniqlovchi va izohlovchini, hamda ajratilgan holni ham qo'shish kerak bo'ladi.

Gapning ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklari – bu gapning talaffuz orqali ajratiladigan ma'noli bo'laklaridir. Ular har doim grammatik bog'langan butunlikni anglatadi. Barcha ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklarning umumiy belgilari bo'lib ularning gapdagi nisbiy ma'no erkinligi xizmat qiladi, shu jumladan yozuvda vergul bilan belgilanadigan gap ichidagi u bilan shartlangan intonatsion ajratilish ham. Ajratilgan bo'laklar gapdagi asosiy ma'lumotga nisbatan turli xil ma'nolar belgisi bilan qo'shimcha ma'lumotni o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, ular ma'lum bir miqdordagi qo'shimcha ma'lumotni beradi va gap strukturasiidagi ikkilamchi predikativlikni ifodalaydi. Ingliz tilida ular gapning tegishli murakkab bo'laklaridan nafaqat o'z strukturasiining soddaligi, balki berilayotgan ma'lumotning sifati bilan ham farq qiladi, garchi ularning gapdagi vazifasi o'zgarmasa-da, bir xil miqdordagi ma'lumotni bera turib, murakkab aniqlovchi, ajratilgan aniqlovchi, murakkab hol, ajratilgan hol, murakkab ega va murakkab to'ldiruvchi ikkilamchi predikativlikning bildiruvchisi hisoblanadi. Biroq ular ifoda etadigan ikkilamchi predikativ aloqaning sifati o'xshashdir.

3.2. O'zbek tilidagi sintaktik strukturalarning funksional tavsifi.

Sintaksis (grekcha syntaxis – “tuzilish” demakdir) grammatikaning bir qismi bo'lib, unda so'zlarning o'zaro bog'lanish yo'llari, bir-biri bilan aloqasi, munosabati, so'z birikmasi; gap, gap bo'laklari, gaplarning tuzilishiga, intonatsiya va mazmunga ko'ra turlari, ko'chirma va o'zlashtirma gaplar o'rganiladi.

Gapda soʻzlar bir-biri bilan bogʻlangan boʻladi. Bu bogʻlanish maʼlum grammatik qonun-qoidalar asosida reallashadi. Masalan: *Talabalarimiz qishki sessiyani muvaffaqiyatli yakunladilar* gapida grammatik jihatdan quyidagicha shakllanib, oʻzaro bogʻlangan birikmalar mavjud:

- 1) *Talabalarimiz yakunladilar;*
- 2) *sessiyani yakunladilar;*
- 3) *qishki sessiyani;*
- 4) *muvaffaqiyatli yakunladilar.*

Har bir soʻz birikmasi kamida ikki mustaqil soʻzdan tashkil topadi. Har ikki soʻz birgalikda murakkabroq tushunchani anglatish uchun xizmat qiladi. Demak, oʻzaro semantik, grammatik jihatdan bogʻlangan ikki yoki undan ortiq mustaqil soʻzlar qoʻshilmasi **soʻz birikmasi** deyiladi.

Soʻz birikmasining yuqorida keltirilgan koʻrinishlari erkin birikma sanaladi. Erkin birikmalarni turgʻun birikmalardan farq qilish kerak. Chunonchi, *yeng shimarmoq, qoʻltigʻidan tarvuzi tushmoq, xamir uchidan patir* kabi iboralar ham strukturasi koʻra soʻz birikmasi hisoblanadi, ammo bu birikmalar tarkibidagi soʻzlar gap boʻlagi sifatida ajratilmaydi, chunki ular nutq paytidan oldin oʻzaro birikkan holda mavjud boʻladi, nutqda ham shu holicha qoʻllaniladi, hozir buzilmas birikma holatiga kelib qolgan. Bunday birikma tarkibidagi soʻzlarning har biri mustaqil tushuncha bildirmay, butunicha koʻchma maʼno ifodalaydi, gapda ham bitta vazifada keladi. Birikmalarning bu tiplari **turgʻun birikmalar** deb ataladi. Turgʻun birikma leksikologiya (frazologiya)da oʻrganiladi.

Erkin birikmalar sintaksisning oʻrganish obʻektidir. Unda oʻzaro bogʻlanib kelayotgan har bir soʻz mustaqil tushuncha bildiradi, gapning boʻlagi vazifasida keladi, alohida soʻroqqa javob boʻladi.

Soʻz birikmasini *qoʻl qoʻymoq, imzo chekmoq, yalang oyoq, bosh yalang* kabi qoʻshma soʻzlardan ham farqlash lozim. Qoʻshma soʻzlar soʻz birikmasi kabi maʼlum darajada murakkabroq tushunchani ifodalasa-da, sodda soʻz kabi gapda birgina gap boʻlagi vazifasini bajaradi, soʻz birikmasi (erkin birikma) tarkibidagi

so'zlar esa, yuqorida aytib o'tilganidek, alohida-alohida gap bo'lagi vazifasida keladi. So'z birikmasi sintaktik kategoriya sifatida sintaksisda o'rganilsa, qo'shma so'zlar qaysi so'z turkumiga xosligiga ko'ra morfologiyada o'rganiladi.

So'zlarning gapdagi sintaktik aloqasi ikki xil bo'ladi: *tenglanish va ergashish* (tobelanish). Gapda bir xil vazifada kelgan bo'laklarning teng bog'lovchilar vositasida yoki sanash intonatsiyasi orqali bog'lanish **teng bog'lanish** deb ataladi. Masalan: *O'rik va bodom gulladi. O'rik, bodom gulladi kabi*. Teng sintaktik aloqada bo'lgan bo'laklar orasida tobelik bo'lmaydi. **Ergash bog'lanish** esa biri hokim, biri tobe bo'lgan gap bo'laklarining sintaktik aloqasini ifodalaydi. Masalan: *bizning jamoamiz; kitobni o'qimoq; qizil gullar* kabi birikmalarda *bizning, kitobni, qizil* so'zlari tobe, *jamo'a, o'qimoq, gullar* hokim so'zlar hisoblanadi.

Tobe so'z hokim so'zni biron bir tomondan aniqlaydi, to'ldiradi yoki izohlaydi. Tobe so'z, odatda, biron kelishik affiksini qabul qiladi yoki u keng ma'noda belgi bildiruvchi so'z bilan ifodalanadi (*yaxshi bola, po'lat sandiq* kabi).

So'zlarning ergashish yo'li bilan bog'lanishi uch xil bo'ladi:

1. *Moslashuv.* 2. *Boshqaruv.* 3. *Bitishuv.*

Moslashuv. Hokim va tobe so'zning shaxs-sonda o'zaro moslashib kelishi moslashuv deyiladi. Masalan: *Biz o'qidik, Rustam o'qidi. Mening ukam. Bizning ko'chamiz* kabi.


Bu birikmalarning birinchi va ikkinchisida *o'qidik* so'zi *biz* so'zi bilan, *o'qidi* so'zi *Rustam* so'zi bilan shaxs (I shaxs, III shaxs) larda molashgan.

Boshqaruv. Tobe so'zning hokim so'z talab qilgan kelishik affiksini olishi (bosh va qaratqichdan tashqari) yoki ko'makchi bilan qolishi **boshqaruv** deyiladi. Masalan: **darsni tayyorlamoq, imtihonga tayyorlanmoq, sizdan kichik, qalam bilan yozmoq, paxta uchun kurashmoq** kabi bog'lanishlarda *tayyorlamoq, tayyorlanmoq, kichik, yozmoq, kurashmoq* – hokim so'zlar talabiga ko'ra tobe so'zlar kelishik qo'shimchalari (**-ni,-ga,-dan**) yoki ko'makchilar (*bilan, uchun*) bilan qo'llanadi.

Boshqaruv munosabatida hokim soʻz vazifasida koʻproq feʼllar keladi (*vatanni **sevmoq**; Gulni **sevgan** tikanni ham **sevadi** kabi*), ammo oʻrni bilan sifatlar va ravishlar ham hokim soʻz vazifasida qoʻllanishi mumkin (*jondan **aziz**, shakardan **shirin**, sendan **katta**, otdan **baland** kabi*).

Boshqaruvda kesim (hokim soʻz) **boshqaruvchi**, toʻldiruvchi yoki hol (tobe soʻz) esa **boshqariluvchi** deyiladi.

Ergash bogʻlanish



Bitishuv. Bitishuvli aloqada hokim soʻz tobe soʻz bilan asosan tartib va intonatsiya yordamida birikadi. Masalan: *aʻlochi talaba, aqlli bola, chaqqon qiz, eʻtiborli kishi, birinchi bosqich, shoshib gapirdi, turtinib yurdi, shiq-shiq tugma, tez yurdi* kabi.

Bitishuvda tartib yetakchi rol oʻynaydi. Shuning uchun tartibning va intonatsiyaning (ohangning) oʻzgarishi bunday aloqa asosida tashkil topgan soʻz birikmasining grammatik xarakterini ham oʻzgartiradi. Solishtiring: *goʻzal bogʻ* (bitishuv), *Bogʻ – goʻzal* (moslashuv).

Sifatlovchi va sifatlanmish (*chaqqon qiz*), ravish holi va feʻl kesim (*jilmayib gapirmoq*) oʻzaro bitishuv yoʻli bilan aloqaga kirishadi. Aniqlovchi vazifasidagi yoki holat bildiruvchi soʻzlar asosan tobe soʻz, aniqlanmish yoki kesim vazifasidagi soʻzlar esa hokim soʻz boʻladi.

Gap fikr bildirish, xabar berish vazifasini bajaradigan, turli his tuygʻularni ifodalaydigan bir soʻz yoki bir necha soʻzlar yigʻindisi, nutqning grammatik jihatdan shakllangan, nisbiy intonatsion tugallikka ega boʻlgan qismidir. Masalan: *Oy. Nozik jimjitlik. Salqin shamollargina, qizning sochlari bilan oʻynashardi.* (O.) Bunda uchta gap bor: 1. *Oy.* 2. *Nozik jimjitlik.* 3. *Salqin shamollargina, qizning sochlari bilan oʻynashardi.* Bu gaplarning har qaysisi maʼlum fikr bildiradi.

Gapdagi soʻzlar bir-biri bilan oʻzaro bogʻlangan boʻladi, ularning har biri gapda biror grammatik funksiyani – gap boʻlagi vazifasini bajarib keladi. Masalan: *Viloyatimiz paxtakorlari rejani oshirib bajardilar.* Bu gapda *paxtakorlar* – ega, *viloyatimiz* – aniqlovchi, *rejani* – toʻldiruvchi, *oshirib* – hol, *bajardilar* soʻzi esa kesimdir.

Gap boʻlaklari ikkiga – *bosh boʻlaklar* va *ikkinchi darajali boʻlaklarga* boʻlinadi.

Bosh boʻlaklar (ega va kesim) gapning asosini tashkil qiladi. Ikkinchi darajali boʻlaklar (aniqlovchi, toʻldiruvchi, hol) gapning bosh boʻlaklarini aniqlaydi, toʻldiradi yoki izohlaydi.

Har qanday gap so'zlovchining maqsadini: xabar berish, tinglovchidan biror voqea-hodisani so'rash, buyurish, maslahat kabi ma'nolarni ifodalaydi. Shunga ko'ra gaplar uch turga bo'linadi: *darak gap, so'roq gap, buyruq gap*.

Biror voqea-hodisa haqida xabar bildiruvchi gap darak gap deyiladi. Masalan: *Kecha biz Navoiy muzeyiga bordik*. Darak gap yuz bergan, yuz berishi mumkin bo'lgan voqea-hodisani tasdiq yoki inkor qilish yo'li bilan bildiradi. *Nazokatning ovozi titrab, yuragi urar edi. (S.Ahm.)* – gapida tasdiq mazmuni; *U imtihonga tayyorlanmadi. U imtihonga tayyorlagan emas. U imtihonga tayyorlangani yo'q* – gaplarida inkor mazmuni ifodalangan.

Darak gaplar bir tekis, tinch ohangda talaffuz qilinadi. Intonatsiya gap oxiriga tomon pasaya boradi. Yozuvda darak gaplarning oxiriga odatda nuqta quyiladi.

Gap tarkibidagi so'zlar turli vazifani bajaradi – gapning turli bo'laklari bo'lib keladi. Bu so'zlar o'zaro bog'langanda, o'zaro munosabatda kirishgandagina gap bo'lagi bo'la oladi. Masalan: *Shavkat birpasda jonlanib ketdi. (O'.Umarbekov.)* gapida quyidagi gap bo'laklari mavjud: *Shavkat (kim?)* – ega; *jonlanib ketdi (nima qildi?)* kesim; *birpasda (qachon?)* – ravish holi.

Har bir gap bo'lagi o'zi munosabatga kirishgan so'z bilan ma'lum sintaktik aloqada bo'ladi:

- 1) *Shavkat jonlanib ketdi;*
- 2) *birpasda jonlanib ketdi.*

Har bir gap bo'lagi o'zining qaysi so'z bilan ifodalanishiga va boshqa gap bo'lagi bilan bo'lgan grammatik munosabatiga ko'ra belgilanadi.

Gap bo'laklari vazifalariga, gapdagi mavqeiga qarab dastlab ikkiga bo'linadi: 1. *Bosh bo'laklar*. 2. *Ikkinchi darajali bo'laklar*.

1. Ikki tarkibli gapning asosini tashkil qilgan bo'laklar ega va kesim **bosh bo'laklar** deyiladi. Masalan; **Ortiq** devor tagidagi qo'zilarni **ko'rib qoldi.**(P.Q).

2. Bosh bo'laklardan biriga ergashib, ularni aniqlab, to'ldirib, izohlab keladigan bo'laklar **ikkinchi darajali bo'laklar** deyiladi. Ikkinchi darajali

bo'laklarga aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol kiradi: *Tepada (hol) bir parcha (aniqlovchi) oq (aniqlovchi) bulut suzib yuribdi. (P.Q.).*

3.3. Ingliz tilidagi erkin ikkilamchi predikatsiyaning sinonimiyaga munosabati.

Ingliz tilida gapning ajratilgan bo'laklariga bag'ishlangan maxsus izlanishlar olib borilmagan. Shu yerda aytish kerakki ingliz tili bo'yicha yozilgan ishlarda bunday bo'laklarning yo'qligi o'rinli emasdir, chunki gapning ikkinchi darajali bo'laklarning ajratilishi o'z ichida chuqur tizimni yashiradi. Bu tizimni o'rganish bevosita kuzatishda ko'rinmaydigan sintaktik aloqalarni ochish imkonini beradi. Zamonaviy ingliz tilida yakkalash ko'pincha tegishli punktuasion rasmiylashtirilmaydi va gapning talaffuz orqali bo'laklarga ajratilishi bilan cheklanadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki ingliz tilida ajratilgan aniqlovchi izohlovchi va holdan tashqari shuningdek ajratilgan to'ldiruvchi va aniqlovchili bo'laklar ham mavjuddir.³⁶ Mazkur izlanishda bu sintaksisga bo'lgan generativ yondashuvdan kelib chiqamiz jumladan, bir gapning ikkinchisiga yorib kirishi ta'limotiga (ya'ni gapni ikki uch va hokazo elementar gaplarning bir-biriga sintaktik ta'siri natijasi deb o'rganadigan) tayanamiz. Ta'kidlash kerakki ingliz tilida ajratilgan bo'lakli gapning yuza tuzilishi aynan kamida ikki elementar gaplar ramkaga oid elementarlarining qator joylashuvlarining permutatsiyasi deb tushunilishi lozim va boshlang'ich tuzilishini almashtiradi (transformatsiyaga uchraydi) va ramkaga oid konstruksiyaga yorib kiradi. Sifatdoshli va gerundiyl iboralar ushbu hodisani ayniqsa juda yorqin ravishda izohlab beradi. Ular fe'llarning shaxsli shaklsi bo'lgan tegishli gaplarning transformalari hisoblanishadi va ramkaga oid gaplar bilan aniqlovchi yoki hol sifatida birlashib ketadi. Demak, He stayed there, watching the entrance and the little white car until 4.30 in the afternoon gapi ramkaga oid gapdan (tashkil topadi), He stayed there va gapdan shuningdek He watched the entrance and the little white car until 4.30 in the

³⁶ Г.Н.Воронцова. Вторичный предикат в английском языке. "Иностранный языке в школе", 1950, №6, стр47.

afternoon dan tashkil topadi. Tashkil topgan gap sifatdoshli transformatsiyaga duch keladi va ramkaga oid konstruksiyaga kirib ketadi. Shunga o'xshash hodisalarni quyidagi gaplarda ham ko'rishimiz mumkin bo'ladi: *Before leaving Burma's, Father Finial added a paragraph to his personal diary* (A.Christie) gapida *Father Finial added a paragraph to his diary* ramkaga oid konstruksiya hisoblanadi va unga gapning transformi hisoblangan gerundiyl o'ram qo'shib ketadi: *before leaving Burma's he left Burma* yoki ramkaga oid gap: *Father Finial added a paragraph to his personal diary; He left Burma.*

Quyida biz ramkaga oid gaplarning birikishi ajratilganlikning barcha holatlarida yuz beradi, bu esa ajratilganlik va polupredikativlikning bog'liqligini yana bir tasdiqlaydi. Predikativlik yakka ajratilgan bo'laklarda hamda so'z birikmalarida bo'ladi, ikkinchisi juda keng tarqalgan va ularni yarim gaplar deb atash mumkin, faqat ularning nutqdagi barcha ma'lum permutatsiyaga uchragan grammatik tuzilishiga qarab. So'z tartibining mumkin bo'lgan o'zgarishlari soni (gap elementlarining permutatsiyasi) ingliz tilida unchalik ham ko'p emas. Buni esa biz ingliz tilida nomustaqil so'z tartibi bilan izohlaymiz.

Hozirgi zamon ingliz tilidagi aniq material tahlili asosida erkin ikkilamchi predikatsiyada quyidagi so'z birikmalarining mavjudligini qayd qilish mumkin:

- I So'z birikmasi – ajratilgan aniqlovchi;
- II So'z birikmasi – ajratilgan izohlovchi;
- III So'z birikmasi – ajratilgan hol;
- IV So'z birikmasi – ajratilgan to'ldiruvchi;
- V So'z birikmasi – gapning izohlovchi bo'lagi.

I guruh sifat va sifatdoshli birikmalarni o'z ichiga oladi. Aniqlanayotgan so'zga nisbatan ular prepositiv va postpositiv holatda joylashishlari mumkin. Struktural ajratilgan aniqlovchi ayrim so'z yoki so'zlar guruhi tomonidan murakkablashtirilganligi bilan izohlanadi, faqatgina ayrim hollarda bir yoki ikki ergash gap bilan:

Her eyes, puffed and wet with tears, looked past him (A.Christie). at that moment a respectable, clean-shaven man, neatly dressed in blue serge,

came up to them (A.Christie). *Mr.P. anxious to escape, said to Colonel M.* (A.Christie). **Being an invalid, he gets easily upset and worried** (A.Christie). *True to his ingrained belief that the gentry didn't let you down, Mrs.B. immediately moved to the door* (A.Christie) **to pick her up and carry her perhaps for the rest of his life, haunted by the knowledge, the unspoken blackmail, that, if he dropped her, it would certainly be to kill her** (A.Christie).

Yuqorida ta'kidlangan gaplardan tashqari lingvistik adabiyotda hali yoritilmagan ingliz tilidagi ajratilgan aniqlovchilarni ko'rsatish lozim. Biz bu yerda to'ldiruvchiga aloqador bo'lgan biroq uning tarkibiy qismi bo'lmagan ajratilgan aniqlovchilarni nazarda tutmoqdamiz. Masalan: **Once again he heard footsteps approaching. Rapid and impatient (footsteps).** Shunga o'xshash konstruksiyalarni maksimal darajada ajratilgan bo'lak deb atash mumkin. Shunday bo'lsa-da, uning mustaqilligi ifoda jihati bilan cheklanadi (talaffuz, lokalizatsiya) chunki mazmun jihatidan u butunlay gapning asosiy qismi bo'lagiga bog'liqdir. Uzoq to'xtam shunga o'xshash ajratilgan bo'lakni bir qadar mustaqil sintaktik birlikka aylantirishga imkon tug'diradi chunki nuqta butun gapning strukturasi shaklan va tubdan o'zgartiradi. Ingliz tilida maksimal darajada ajratilgan konstruksiyalar sifatida nafaqat aniqlovchi balki gapning boshqa bo'laklari ham yuzaga chiqadi. Masalan: **It was a meeting, in fact, to which attention must not be called. A guilty meeting.**

II guruhni kengaytirilgan izohlovchilar tashkil qiladi va ular nafaqat predmetning belgisini bildirishadi balki unga yangi nom ham beradi. Izohlovchining asosiy bo'lagi yoki ot yo nutqning otlashgan bo'lagi hisoblanadi. Izohlovchi va izohlovchi bo'lakning chegara kategoriyalarining struktural tahlili ularni butkul boshqalardan ajratish imkonini beradi. Transformatsion potensialning va old qo'shimchali transformatsiya farqlarining o'rnatilishi zamonaviy ingliz tilida ikki mustaqil sintaktik kategoriya haqida gapirish imkoni beradi.³⁷

³⁷ С.Н.Козлова. Утожняющие гленк предложения как синтаксическая категория в современной английской им языке. Научная конференция "Проблемы синхронного изучения грамматического старая языка". Тежы докладов и сообщений. 1-й МГПИИЯ ит. М.Тореза, М. 1965, стр. 99-101.

Kesimning otga oid qismiga tegishli izohlovchining asosiy a'zosining artikli rasmiylashtirilishi undagi predikativ belgilar mavjudligini tasdiqlaydi:

The next day was Sunday, a hot September day.

Ajratilgan izohlovchi gapning har qanday bo'lagiga tegishli bo'lishi mumkin.

Miss Wet herby, a long nosed, acidulated spinster, was the first to spread the intoxicating on shakltion (A.Christie). He looked at the banker, the man from Lillie (A.Christie).

Izohlovchi so'z birikmalar gapda murakkablashishlari mumkin.

Originally the home of Sir Grease foliate, a contemporary of Sir Francis Geake who sailed with him in his voyage to the new world, it is now the property of Sir George Stubbs (A.Christie). A sensitive, rather poetical boy of twenty one when the Cavil War broke out, Lena shod gone to South America..... (A.Christie).

Postpozitsiyada ajratilgan izohlovchi aniqlanayotgan bo'lakka aniqlashtiruvchi va tushuntiruvchi so'zlar bilan bog'lanishi mumkin. Ushbu so'zlar sifatida ravish, bog'lovchilar, va olmoshlar ishlatilishi mumkin:

He was sitting once more in the tent and the voice of Madame Suleiman, alias Sally Legend was talking of dark women and journey across the sea (A.Christie). I had to hold over her a small green umbrella, really more of a parasol (A.Christie). His starting exhortations would come up, like summer thunder, at the most unexpected times and in the most surprising places (A.Christie). I understand there's some kind of a murder hunt or treasure hunt, going on (A.Christie). As you say, anyone who lived in the house, such as a servant or one of family, might know about it (A.Christie). Many auto biographers, among them Lincoln Stiffens and Gertrude Atherton describe earthquakes their families have been in (A.Christie).

Ko'p hollarda stilistik maqsadda ma'no jihatdan ajratish uchun ajratilgan izohlovchi gapning oxiriga joylashtiriladi. Bu odatda takrorlangan otning to'ldiruvchi aniqlovchi so'zlar bilan kelgan holatidan tashkil topuvchi so'z

birikmalari bo'ladi. Bunday izohlovchining alohida talaffuz qilinishi uning nuqta orqali maksimal darajada ajratilishiga olib keladi.

He saw Iris coming down the stairs. Iris, very straight and slim, with her pale face and black hair and grey eyes. Iris with much less than Rosemary's beauty and with all the character that Rosemary would never have (*A.Christie*).

III guruhiga xuddi ajratilgan aniqlovchi kabi tildagi eng sermahsul bo'lgan ajratilgan hol kiradi. Morfologik belgilarga ko'ra ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- 1) Asosiy elementi sifatdagi va gerundiy bilan ifodalangan hol.
- 2) Asosiy elementi sifat va ravish bilan ifodalangan hol.
- 3) Asosiy elementi ot va predlogli guruh bilan ifodalangan hol.

His man oeuvre was successful and enabled him-painting very slightly-to come up beside Mrs.Foliate (*A.Christie*). **Once started he would go on for hours** (*A.Christie*). **Before leaving Burma's, Father Finial added a paragraph to his personal diary** (*A.Christie*). **When alone with my fellow-patients I was mainly disposed towards self-pitying estrangement** (*A.Christie*). **They went on, down a steep hill through woods** (*A.Christie*). **Several months later there was famine in the southern areas** (*A.Christie*). **As a quite young man he had spent a vast fortune** (*A.Christie*). **On the night in question, however we had all gone to bed** (*A.Christie*).

Ajratilgan hol ba'zida sifatdoshli o'ram orqali ergash gapga murakkablashishi mumkin. Masalan:

With an intensity that was almost phusical, he wanted to grapple with it (task). In the big bedroom overlooking, the sea, C.Jefferson was sitting in his wheel-chair by the window (*A.Christie*).

Ajratilgan qiyosiy hol like qiyoslash bog'lovchisi bilan kiritiladi, struktural jihatdan u ot yoki ravish orqali ifodalangan holga to'g'ri keladi, masalan:

..... but like all Surinamese intellectuals he was expected to serve his country where his talents were needed most (*A.Christie*). **O am not, like the English women, romantic** (*A.Christie*).

IV guruh so'z birikmalari shartli ravishda ajratilgan to'ldiruvchi deb ataladi. Ular to'ldiruvchiga oid aloqalarni ifoda etishmaydi va to'ldiruvchiga faqat ifoda jihatdan kelib chiqib (ravish predlog+ot boshqaruv aloqa usuli sifatida) ta'aluqli bo'lishi mumkin. Ingliz tilida shu kabi birikmalar quyidagi so'zlar bilan kiritiladi: **except, instead of, apart from, in spite of, besides, to, from, aside from, despite, among, with, the exception of, with, by in the midst of**. Masalan:

Our other servants I don't remember except the one who set the house on fire, I wouldn't put it past her to sneak away quietly, instead of being a corpse, and go and have tea. Apart from the medical evidence and evidence of identity, there was little to feed the curiosity of the spectator. An enigmatical woman he thought and a woman who, in spite of the gentle ness and fragility of her appearance, had a side to her that could be ruthless. Rosemary, besides her beauty, had been an heiress. To Sir George, Amanda Brews was an efficient machine He apparently gathered, from the talk and excitement and weeping, that somebody had died. Now Den, aside from those two things and despite the newspaper lies everything is on an even Keel out here. Sixty-seven people put in applications, among them Morel M. a retimed engineer With the exception of Atkins, that engineer, very applicant will be making more money He insisted, with complete confidence, that the temple was the safest place for them. Attached to his left breast, by a large pin which had been driven twice through the flesh, was a note in English. In the midst of vague and unremarkable dreams, Loin Colvin became aware of his bandages (A.Christie asarlaridan olindi).

Ajratilgan qiyosiy to'ldiruvchini biz hali hech qayerda uchratmadik.

Ichki to'ldiruvchining ajratilishi juda ham qiziq tuyuladi, masalan:

She was smiling at him-an enchanting smile, but it left him unmoved.

V guruh – gapning izohlovchi bo'laklari o'z ichiga mustaqil ikkilamchi predikatsiyaning so'z birikmalari klassifikatsiyasini oladi. Sintaktik hodisa sifatida

u ingliz filologiyasidagi kam o'rganilgan sohalar sirasiga kiradi. Izohlovchi so'z birikmalari gapning har qanday bo'lagining mazmunini yoritib beradi va morfologik cheklangan kategoriya hisoblanmaydi. Ular o'zlari izohlayotgan komponentning sintaktik vazifasini takrorlaydi ular izohlovchi aloqa bilan bog'langan va faqat uning mavjudligida ajratiladi. Ot guruhi yoki otlashgan nutq bo'lagi bilan ifodalangan izohlovchi bo'lak ma'lum bir transformatsiyalarga uchraydi va shu transformatsiya uni izohlovchidan farqlab turadi.

Four men U Time among them, came flitting through the trees. His physical weakness was enormous, a pervading maddening softness. The crowd began to sing-about three hundred Filipinos standing in a tightly-packed circle singing (A.Christie).

Ushbu gaplardagi eganing izohlovchisi old ko'makchili va tushuntirishli transformatsiyaga (izohlovchi elementga tushuntiruvchi so'zlar va predlogni qo'yish) uchraydi. Biroq bunday transformatsiyalar quyidagicha o'xshash gaplarda ajratilishi iboraning belgilanmasdan qolishiga olib keladi:

The girl stopped in the middle of the stairs a slime dainty figure dressed in white.

Bu yerda ajratilgan izohlovchi who – iborasiga transformatsiya qilinyapti. Izohlovchi bo'lak maksimal darajada ajratilgan bo'lishi mumkin xuddi gapdagi izohlovchi to'ldiruvchi kabi:

He recalled again the day he had sat in the Folly, and Surprise on the boy's face at seeing him there. Not a very pleasant face, despite the youthful good looks. An arrogant ruthless face (A.Christie).

Tarkibi kesmning ot qismiga aniqlik kiritishda ergash gapdan foydalanishi mumkin:

His first reaction was always the same, a quick irresponsible Shudder as he remembered the scene in the restaurant (A.Christie).

Izohlovchi hol ko'p hollarda makon va zamon ma'nosini beradi:

Another time, a murky winter afternoon, she came blubbering up the cellar stairs A flimsy sort of more or less home-made job in the garden,

by the wall of the house and had made a way from it into the house into the cellar (*A.Christie*).

Ko'pincha quyidagi gapdagicha o'xshash aniqlashga aniqlash kiritilganligiga duch kelishish mumkin:

His home was in the North, in the mountains, about fifty miles from the border (*A.Christie*).

Izohlovchi aniqlovchi aniqlanayotga so'zning belgisini aniqlashtiradi yani aniqlashtirilayotgan tushunchaning chegaralanishi ma'nosida:

It was a gracious house, beautifully proportioned, she hated it. A gracious well-built house, harmoniously furnished and decorated (*A.Christie*).

Xulosa sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin:

1) So'z birikmasi atamasi deganda biz kamida ikki leksemaning birikishini tushunamiz;

2) So'z birikmalari chegarasida besh xil sintaktik aloqa mavjud: attributiv ob'ektli, sirkuitantli, appozitiv va predikativ.

3.4. Ingliz va O'zbek tillaridagi sintaktik sinonimiya hodisasini mantiqiy-gnosiologik masalalari.

Sintaktik mazmuniyat gap mazmuni sof, alohida olingan holda o'rganmaydi, bunday qilish, albatta, shakl va mazmun dialektikasini buzishga olib keladi. Garchi, "mazmuniy tahlil gapning qanday tushunilishi, qanday talqin qilinishi va uning tashqi olamdagi holatlar, jarayon, ob'ektlar bilan qanday aloqadorlikda ekanligini tushuntirishi kerak" bo'lsa-da, bunday tushuntirishda gap shakli, sintaktik qurilishini hamisha e'tiborda tutish lozimligi hech shubhasizdir. Sintaksisda ham ma'no kategoriyasi, umuman, tilda bo'lganiday, markaziy masaladir, ammo sintaksis va mazmuniyat (semantika) ni qay tarzda bo'lmasin bir-biridan keskin ajratish ulardan qaysi birining birinchi jihatga chiqarilishidan qa'tiy nazar kutilgan natijaga olib kelmaydi. Qisqasi, R.A.Budagov ta'kidlaganiday, shakl va mazmun hamda ularning o'zaro aloqadorligi masalasi sintaksisning

markaziy muammosi bo'lib, ularni tadqiq etishda bu har ikki kategoriya dialektik birlikda olib qaralishi lozim. Zero, A.A.Vetrov ko'rsatganiday, "shakliy va mazmuniy tahlil bir-biri bilan dialektik ravishda bog'langan".

Sintaktik nazariya ana shu ikki tomonni, ya'ni ham shakliy, ham mazmuniy tomonni to'liq nazarda tutgandagina, u haqiqiy nazariya bo'la oladi. Chunki gapning shakliy va mazmuniy qurilishlari o'rtasidagi aloqa benihoya murakkab va ziddiyatli bo'lib, juda ko'p asosiy hollarda bu qurilishlar bir-biri bilan aynan bir xil, teng, muvofiq aloqada bo'lmaydi, ular o'rtasida deyarli hamisha muvofiqlik (simmetriya)ning buzilganligi kuzatiladi. Dastlab S.Karsevskiy tomonidan oldinga surilgan lisoniy belgining nomuvofiq dualizmi haqidagi konsepsiya sintaktik sathda ham to'liq namoyon bo'ladi.

Gapning mazmuniy va shakliy qurilishlari o'zaro dialektik birlikda o'rganilar ekan, ayni qurilishlar o'rtasidagi mavjud nomuvofiqlik (assimetriya)ni hisobga olish shart.

Albatta, sintaktik tuzumi aniq, ko'rish mumkin bo'lgan sath bo'lganligi uchun bu tuzilishni aniq belgilash qiyin emas. Ammo gapning mazmuniy qurilishi haqida bunday deb bo'lmaydi. Gapning mazmuni nima? Hozirgi kunda gap mazmuning talqini masalasida tilshunoslikda bir necha yo'nalishni kuzatish mumkin. Ulardan gap ma'nosining denotativ (yoki referent) konsepsiyasi tilshunoslar orasida keng tarqalgan. Bu konsepsiyaning mohiyati gap ma'nosining denotati sifatida g'ayrilisoniy vaziyat (ekstralingvistik situatsiya)ni, voqeani qarashdan iborat.

V.G.Gak gapni so'zdan farqli o'laroq, to'liq til belgisi deb hisoblaydi va gap ("высказывание")ning referenti vaziyat (ситуация) ekanligini ta'kidlaydi. U yozadi: "Gap yaxlit situatsiyaning nomi sifatida kelib, leksik nominatsiyadan mutlaqo farq qiluvchi o'ziga xos nominatsiyadir". Gap vaziyat bilan bevosita bog'lanadi, ya'ni gapning ifodalanuvchisi vaziyat, muayyan dalil, shuning uchun ham gap to'liq til belgisi hisoblanadi. So'z esa ana shu to'liq til belgisi tarkibiga kirgandagina vaziyat bilan bog'lana oladi, ana shunga ko'ra so'z xususiy til belgisidir. To'liq til belgisi sifatidagi gapning bu denotativ tomonini

O.I.Moskalskiya gapning “gapning semantik yadrosi” deb ataydi. Albatta bu “semantik yadro” gap mazmuni to’lig’icha qamrab olmaydi, balki gap mazmuning muayyan bir jihatini tashkil etadi. Shunday bo’lsa-da, gapning shakliy va mazmuniy qurilishlari o’rtasidagi nomutanosib munosabatni belgilashda ayni shu “semantik yadro” ahamiyatlidir.

Hozirgi turli yo’nalishli mazmuniy izlanishlar jarayonida gap ma’nosini o’z tabiatiga ko’ra turlicha bo’lagan unsurlar majmui sifatida tushunish anchayin turg’unlashib va umumiydashib bormoqda. V.A.Beloshapkova shunday yozadi: “Semantik sintaksisning taraqqiyoti munosabati bilan juda ko’p tilshunoslar tomonidan turli vaqtlarda aytilgan gap ma’nosida bir-biridan prinsipial farqlanuvchi ikki tur mazmun – borliqni aks ettiruvchi ob’ektiv mazmun va fikrlovchi sub’ektning ana shu borliqqa bo’lgan munosabatini aks ettiruvchi sub’ektiv mazmun qo’shilgan, degan fikr alohida dolzarflik kasb etadi”. Gap mazmunidagi bu ob’ektiv va sub’ektiv tomonlar dastlab Sh.Balli tomonidan farqlangan bo’lib, u gapning yaxlit mazmunini tashkil etuvchi bu unsurlardan birini diktum (ob’ektiv mazmun) deb, ikkinchisi esa modus (sub’ektiv mazmun – fikrlovchi sub’ektning ayni ob’ektiv mazmunga nisbatan munosabatining ifodasi) deb nomlagan. Sh.Balli atamalari bilan aytganda, muayyan bir diktum turli moduslar bilan birga ifodalanishi mumkin. Masalan, **Ahmad o’qiydi, Ahmad o’qisa edi, Ahmad o’qimoqchi, Ahmad, ehtimol o’qiydi. *Ahmad studies; If only Ahmad studied; Ahmad is going to study; Perhaps Ahmad would study*** gaplarining hammasida ayni bir diktum ifodalangan, ammo har bir gapda boshqa-boshqa modus ifodalangan, ya’ni fikrlovchi sub’ektning ayni bir ob’ektiv mazmunga turli munosabati aks etgan. Ko’rinadiki, ob’ektiv mazmunhar qanday gap mazmunining asosini, “semantik yadrosi”ni tashkil qiladi.

Gapning ob’ektiv mazmunini tasvirlashda hozirgi kun tilshunosligida turlicha tushunchalardan foydalaniladi. Ular orasida propozitsiya tushunchasi eng muvaffiyatlilaridan biridir. Propozitsiya atamasi ostida muayyan gap mazmunida o’z ifodasini topgan muayyan voqea, hodisa, gapning nominativ aspektdagi ifodasini, gapning mantiqiy negizi, asosi, xullas, gapning sub’ektiv mazmunidan

va gapning shakliy tuzilishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan barcha boshqa ma'nolaridan ajralgan ob'ektiv mazmuni tushuniladi. Bu tushunchadan foydalanilar ekan, har qanday gap mazmunida uch jihatdan farqlash mumkin: 1) propozitiv (nominativ) qarash, 2) modal va 3) kommunikativ qarashlar. Albatta, gap mazmunida ayni propozitiv qarash asl, ob'ektiv mazmun sifatida asosiy, hal qiluvchi rol o'ynaydi. "Til birligi sifatidagi gap mazmuni uchun mohiyatan faqat nominativ jihat – propozitsiyalar jihatini tegishlidir. Kommunikativ jihat jumla mazmunining va, demak, nutq mazmunining predikatidir; modal reja ular o'rtasidagi oraliq holatni egallaydi". – deb yozadi L.M.Vasilev.

Propozitsiya muayyan ob'ektiv mazmun bo'lganligi uchun u mustaqil gapda boshqa jihatlar bilan (moduslar bilan – Sh.Balli) birgalikda, qo'shilgan holda ham va ayni paytda ayni jihatlarsiz sof holda so'z birikmasida va hatto leksik ma'nosi voqea, hodisani ifodalovchi alohida so'zda ham ifodalanishi mumkin. Bu hol bir gapda birdan ortiq propozitsiyaning ifodalanishi mantiqan to'g'ri ekanligini ko'rsatadi. Albatta, propozitsiyaning asosiy ifodalanish birligi gap, ammo, ko'rinadiki, propozitsiya gapdan kichik birliklarda ham ifodalanish imkoniyatiga ega. Bu holat T.V.Shmelevaga propozitsiyaning asosiy (birlamchi) va ikkilamchi ifodalanishlari haqida gapirishga imkon bergan. Bir sintaktik sodda gapda ikki yoki undan ortiq propozitsiya ifodalansa, ya'ni propozitsiya reprezentatsiyaning har ikki usuli ham mavjud bo'lsa, tabiiyki, gapning sintaktik va mazmuniy tuzilishlari o'rtasidagi muvofiqlik buziladi, nomuvofiqlik yuzaga keladi. Bunday holatlar qachon yuzaga keladi, ularning tabiati qanday, ular qanday qonuniyatlar bilan xarakterlanadi, ular qanday ko'rinishlarga ega kabi savollar muhimdir.

Tilda semantik-sintaktik nomuvofiqlikning yuzaga kelishi tildagi doimiy ikki tamoyilning – ortiqchalik va til vositalarini tejash tamoyillarining u yoki bu shaklda namoyon bo'lishidan iborat. Birinchi tamoyilga ko'ra bir sintaktik sodda gapda ifodalanishi lozim bo'lgan muayyan bir propozitsiya sintaktik qo'shma gapda ifodalanishi mumkin, natijada mazmunan sodda, ammo sintaktik qo'shma bo'lgan gaplar shakllanadi. Albatta, bunday gaplar qurilishida semantik-sintaktik nomuvofiqlik yuzaga kelgan bo'ladi. Sh.Balli ta'biri bilan aytganda, ayrim

hollarda (masalan, *I think that this accused is not guilty; I think you are cheating*) modus va diktum alohida-alohida va to'liq ifodalanishi mumkin. Ingliz tilida bunday holatlar juda keng kuzatiladi. Ergash gapli qo'shma gaplarning ayrim turlarida bosh gap to'lig'icha sub'ektiv mazmuni (Sh.Balli: modusni), ergash gap esa ob'ektiv mazmuni – propozitsiyalarni (Sh.Balli:diktumni) ifodalab keladi. Masalan, *I think that Ahmad won't come today* to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapida bosh gap (I think) propozitsiyani emas, balki sub'ektiv mazmuni ifodalagan (modal munosabat), to'ldiruvchi ergash gap (*Ahmad won't come today*) esa propozitsiyani (sub'ektiv mazmun bilan birga) ifodalab kelgan. Ko'rinadiki, gap sintaktik jihatdan qo'shma, ya'ni birdan ortiq propozitsiyani ifodalovchi shakl, mazmun jihatidan esa sodda, ya'ni monopropozitiv. Qisqasi, ortiqchalik tamoyilining mohiyatiga ko'ra sodda mazmun murakkab shakl orqali ifodalangan.

Tildagi ortiqchalik tamoyilining qarama-qarshi qutbi til vositalarini tejash tamoyili bo'lib, sodda gaplardagi semantik-sintaktik nomuvofiqlik, asosan, ana shu prinsip asosida yuzaga keladi. Murakkab mazmunning murakkab shaklda emas, balki sodda shaklda ifodalanishi til vositalarini tejash tamoyilining tilda yaqqol namoyon bo'lish shakllaridan biridir.

Albatta, bu mazmun munosabatlarning tushunilmay qolishiga yoki chalkash tushunilishiga olib kelmaydi. Chunki tildagi juda ko'p mazmun uzvlari bevosita emas, balki bivosita ifodalana oladi. Bunda “yashirin kategoriyalar” deb nomlanuvchi hodisa ishtirok etadi. Bu kategoriyalar har qanday til aloqasida zaruriy ravishda ishtirok etadi, ammo ularning ifodasi birdan ko'zga tashlanmaydi (yoki eshitilmaydi). Shuning uchun S.D.Kensalson ochiq-oydin tarzda shunday yozadi: “Yashirin kateoriyalar – tilda mustaqil ifodaga ega bo'lmagan, ammo nazarda tutiladigan, anglanadigan kategorial belgilardir. Ammo bundan yashirin kategoriyalar mutlaqo tovush ifodasiga ega emas” degan fikr chiqmasligi kerak. Barcha fikr uzvlariday ular ham zaruriy ravishda tovush ifodasini talab etadi, lekin ular to'g'ridan to'g'ri, bevosita emas, balki so'zlar va matn vositasida aylanma yo'l bilan ifodalanadi.

Tilda ana shunday “yashirin kategoriyalar” ning mavjudligi, ya’ni mazmundagi muayyan uzvlarning doimiy ravishda bivosita ifodaga ega bo’la olish imkoniyati ayni nomuvofiqlikka ega bo’lgan sodda gaplarning to’g’ri tushunilishini, ulardagi mazmunning to’liq, hech qanday nuqsonsiz berilishini ta’min etadi. Ayni ana shu imkoniyat sodda gaplardagi semantik-sintaktik nomuvofiqlikni qonuniyatga aylantiradi. Semantik-sintaktik nomuvofiqlikka ega bunday gaplar shuning uchun ham tabiiy va qonuniyki, gap hamisha o’zining muqarrar va uzviy xususiyati bo’lmish bir qancha fikran tiklash imkonlarini o’z ichiga oladi.

U.Veynreyx ta’kidlaganiday, ma’no bilan uning ifodasi o’rtasidagi qa’tiy moslik faqat ideallashtirilgan semiotik belgilargagina xosdir. Til taraqqiyotini ta’min etuvchi mazmun va shakl o’rtasidagi munosabatlar dinamikasi bu belgilar uchun xos emas, shakl va mazmunning ziddiyatli tabiati tilning o’ziga xos xususiyatidir. Til birliklarining shakli va mazmuni o’rtasidagi ziddiyat ularning uzviy birligiga qarshilik, to’sqinlik qilmaydigina emas, balki bu ziddiyat ana shunday birlik mavjud bo’lgandagina mumkin bo’ladi, bu ziddiyat boshqa har qanday tabiiy yoki ijtimoiy hodisada bo’lgani kabi tilda ham qonuniy va ob’ektivdir.

3.5. Ingliz va O’zbek tillaridagi sifatdoshli predikativ qurilma va gaplar o’rtasidagi sintaktik sinonimiya.

Ma’lumki, barcha sof fe’llarda bo’lgani singari sifatdoshlarda ham o’timli-o’timsizlik, nisbat, bo’lishli-bo’lishsizlik va zamon kategoriyalari mavjud. Shaxsli fe’llardagi kabi sifatdoshlarda ham, asosan, uch zamon farqlanadi. Sifatdoshlardagi bu har uch zamonning shakllanishida, garchi bevosita zamon ko’rsatkichi sifatida bo’lmasa-da (o’tgan zamon sifatdoshidan tashqari), **-gan** qo’shimchasi ishtirok etadi (hozirgi zamon **-yotgan**, kelasi zamon **-digan**). Zero, shaxsli fe’ldan ayni sifatdosh shaklini bevosita shakllantiruvchi vosita ham **-gan** qo’shimchasining aynan o’zi ekanligi, tabiiyki, hech kimga qorong’i emas. U yoki bu zamondagi

sifatdosh-ko'chimdanda oldindagi gapda mavjud bo'lgan to'liq predikatsiyaning go'yoki "soyasi" sifatida namoyon bo'ladi. Ana shunday ikkinchi darajali predikatsiyali sifatdosh o'rami qatnashgan gapning mazmuni o'ramdagi propozitsiyaga ko'ra murakkablashuvi, ya'ni bir sintaktik sodda gapda ikki mazmun munosabati joylashishi mumkin. Bunda tizim asosiy predikatsiyadagi sub'ektni mantiq jihatdan ta'kidlash, uni sifatlash, tasvirlash maqsadiga qaratilgan bo'ladi. Ushbu gapda buni ko'rish mumkin. *Fascinated by the beauty of the nature Kuldoshali looked down on to his feet*// **Tabiat sehri elitgan Qo'ldoshali oyoq taglariga qaradi** (Y.Sulaymon). Shuni ham qayd etish mumkinki, agar mantiqiy ta'kid **Qo'ldoshali** so'ziga emas, balki **tabiat sehri** birikmasiga berilishi lozim bo'lganda, ko'chim yana ham boshqacha bo'lardi, ya'ni **Qo'ldoshalini elitgan** shaklidagi sifatdosh o'rami shakllantirilib, gapda ega vazifasidagi mazkur **tabiat sehri** birikmasi "tashqariga" aniqlanmish sifatida chiqariladi: *Fascinated by the magic of the nature...// Qo'ldoshalini elitgan tabiat sehri*, masalan: *Nature embraced everyone...// Qo'ldoshalini elitgan tabiat sehri hammani o'z og'ushiga oldi*. Bunda sifatdosh o'ramdagi sub'ekt bo'lak, ya'ni ikkinchi darajali predikatsiyaning sub'ekti sintaktik jihatdan ifodalanmaganday bo'lib ko'rinadi. Aslida gapdagi asosiy predikatsiyaning sub'ekti (*nature fascinated*// **tabiat sehri oldi**) bilan ikkinchi darajali predikatsiyaning sub'ekti (**tabiat sehri elitgan**// *fascinated by the magic of the nature*) o'z referentlariga ko'ra bir-biriga mos tushadi, ular bir xil. Ayni paytda tizim bilan asosiy predikatsiyaning sub'ektini ifodalovchi bo'lak o'rtasidagi mavjud ham grammatik, ham mazmuniy bog'lanish juda ham mustahkam. Shuning uchun ham mazkur sifatdosh o'ramdagi ikkinchi darajali predikatsiyaning sub'ekti sintaktik ifodalanmagan bo'lsa-da, u osonlik bilan tasavvur qilinishi mumkin.

Ikkinchi darajali predikatsiyaga ega bo'lgan va sub'ekt bo'lagi ifodalangan sifatdosh o'ramlar yaxlitligicha asosiy predikat sub'ektiga qo'shimcha tavsif beradi, sifatdoshning ayni semantikasiga ko'ra asosiy predikat sub'ektining doimiy bo'lmagan belgisini, xususiyatini, holatini bildirib keladi. Ayni paytda sifatdosh o'rami, to'g'rirog'i, predikativ bo'lak sifatidagi sifatdosh

bilan asosiy predikat sub'ekti o'rtasida shunday zich grammatik va mazmuniy aloqa mavjud bo'ladiki, bundan ana shu asosiy predikat sub'ektining sifatdosh o'ram ko'chimidan oldingi qurilmada konstruktiv bo'lak – vositasiz to'ldiruvchi sifatida qatnashganligini sezish qiyin emas. Boshqacha qilib aytganda, asosiy predikatning sub'ekti ayni paytda sifatdoshdan iborat predikativ bo'lak ifoda etgan harakatning vositasiz (harakat bevosita o'tadigan) ob'ektini ham ifoda etadi. Bu holat o'ramdagi predikativ bo'lak o'timli sifatdoshdan iborat bo'lgandagina kuzatiladi. Masalan: **Men sevgan qiz meni sevmas ekan** (*N.Aminov*)//**The girl I loved would not love me** gapidagi asosiy predikat (**sevmas ekan**)ning sub'ekti – qizga xos doimiy bo'lmagan belgi **men sevgan//the girl I loved** sifatdosh o'rami bilan ifodalangan.

Bu sifatdosh o'ramning predikativ bo'lagi bo'lmish **sevgan//loved** – o'timli shakldir, shuning uchun ham asosiy predikatning sub'ekti sifatida qatnashayotgan **qiz** so'zi mazkur sifatdosh o'ram ko'chimidan oldingi qurilmada vositasiz to'ldiruvchi o'rnida bo'lganligini qayd etish mumkin. Qiyoslang: **I loved the girl//Men qizni sevdim; the girl I loved//men sevgan qiz** yoki **I, who loved the girl//qizni sevgan men**. Bunday zich bog'liqlik sifatdosh o'ramdagi ikkinchi darajali predikatsiya asosida yotuvchi propozitsiyaning asosiy gapdagi propozitsiya bilan qo'shilib, mazkur sodda gap mazmuniy tarkibini murakkablashtirishida muhim rol o'ynagan.

Aytish mumkinki, mazkur holatlarda sifatdosh o'ram hamisha ham asosiy predikatning sub'ektini aniqlab kelavermaydi. Asosiy predikat o'zlik va majhul nisbatdagi fe'llar bilan ifodalanganda, ma'lumki, bu predikatning sub'ekti noma'lum yoki ob'ekti bilan birga ifodalangan bo'ladi. Gapning grammatik egasi sifatida ham ana shu ob'ektni ifoda etuvchi so'z shaklsi qatnashadi. Bu ob'ekt esa sifatdosh o'ram predikativ bo'lagining ob'ekti bilan referentlari jihatidan bir xil bo'ladi, shunga ko'ra ikki semantik propozitsiya bir gapda birlashgan holda ifodalanadi. bunday hollarda, demak, sifatdosh o'ram asosiy predikatning sub'ektini emas, balki ob'ektini ifodalagan bo'lak bilan munosabatda bo'ladi. Masalan: **The paths I walked around were lost in the bushes//Ko'milib bo'libdi**

men kezgan so'qmoq (*A. Oripov*) gapidagi asosiy predikat – **ko'milib bo'libdi** shaklidagi o'zlik nisbatdagi fe'l bilan ifodalangan. **So'qmoq//The path** so'zi esa ayni predikat ifoda etgan harakatning ob'ektini ifodalagan. Ayni sifatdosh o'ramning predikativ bo'lagi ifodalagan harakatning ob'ekti ham shudir (**So'qmoqni kezgan//to walk along the path**). Ko'rinib turganidek **men kezgan** sifatdosh o'rami asosiy predikat ifodalagan harakatning sub'ektini emas, balki ob'ektini karakterlagan, aniqlagan.

Ayrim sifatdosh o'ramlarning sub'ekt bo'lagi egalik qo'shimchalari (asosan, III shaxsdagi) bilan shakllangan bo'ladi. Bu esa mazmuniy va grammatik jihatdan shu sub'ekt bo'lagining qaratqich kelishigidagi so'zdan iborat o'z aniqlovchisi bor ekanligiga ishora qiladi. Ammo bu aniqlovchi ayni sifatdosh o'ramning ichida sintaktik ifodalanmagan bo'ladi. Lekin e'tibor qilinsa, ana shu aniqlovchi asosiy predikatning sub'ekti sifatida o'ramdan tashqarida gap tarkibida mavjudligini umumiy mantiqqa ko'ra ko'rish mumkin. Masalan: **The singer said good-bye with sorrowful eyes//Ko'zlari mo'ltiragan ashulachi bo'shashib xayrlashdi** (*Y.Sulaymon*) gapidagi **ko'zlari multiragan** sifatdosh o'ramida sub'ekt bo'lak III shaxs egalik qo'shimchasini olgan **ko'zlari** so'zidir. Bu so'z shakli uchun zaruriy bo'lgan qaratqich kelishigidagi so'z, ko'rinib turganiday, shu o'ram doirasida yo'q. biroq mazkur gapdagi asosiy predikat (**xayrlashdi**)ning sub'ekti bo'lgan **ashulachi//singer** so'zi ayni sifatdosh o'ramning sub'ekt bo'lagiga ham tegishli ekanligi, garchi bevosita bo'lmasa-da, gapning umumiy mazmunidan anglashilib turibdi, ya'ni muayyan ko'chimdan keyin sifatdosh o'ram shakllanishi barobarida undagi sub'ektning aniqlovchisi asosiy predikatning sub'ektiga aylangan va sifatdosh o'ram ana shu sub'ektni xarakterlash, sifatlash uchun xizmat qiladigan bo'lgan. Qiyoslang: **The singer's eyes became sorrowful – The singer with sorrowful eyes//Ashulachining ko'zlari mo'ltiradi – ko'zlari mo'ltiragan ashulachi.**

“Tarkibida o'z egasi bo'lgan sifatdosh konstruksiyalar, albatta, ergash gap bo'ladi” degan qa'tiy hukm u qadar ham aniq va ishonarli emas. Ammo, to'g'ri, tarkibida o'z egasi mavjud bo'lgan sifatdosh o'ramlar ergash gap bo'lishi mumkin.

Faqat muayyan shartga mos bo'lgan ana shunday sifatdosh o'ramlarnigina ergash gap deb qarash mumkin, ya'ni ularni yana bir muhim belgiga ko'ra chegaralab olmoq lozim. Bu chegaralashni tilshunos M.Asqarova shunday bayon qiladi: “-**gan** affiksi bilan bog'liq bo'lgan fe'ning sifatdosh shakli o'zining alohida egasi mavjud bo'lsa, o'rin va chiqish kelishiklari shaklida (o'ram yaxlitligicha otlashib) qo'llangandagina ergash gapning kesimi, shuning bilan bir vaqtda, bosh gapga birlashtiruvchi vosita bo'lib keladi”. Chunki bu kelishiklardagi sifatdoshlar boshqa so'zlar bilan birgalikda harakatning dinamikasini ifoda eta olish imkoniyatiga ega.

Ayni choqda bu kelishik shakllari ergash gapning bosh gapdan ma'lum ohang bilan ajralib turishini ham ta'min etadi: Qiyoslang: **We all liked the story told by Ahmad//Ahmad so'zlagan hikoya hammamizga ma'qul bo'ldi. We were all impressed by the story told by Ahmad//Ahmad so'zlaganda, hammamiz qoyil qoldik.** Birinchi gap sifatdoshli o'ramli (**Ahmad so'zlagan//Ahmad who spoke**) sodda gap, ikkinchi gap esa ergash gapli (**Ahmad so'zlaganda//When Ahmad spoke**) qo'shma gapdir.

Ayrim hollarda sifatdosh o'ram ko'chimida sub'ekt bo'lakning shakli ham o'zgarishi mumkinki, bunda sub'ekt bo'lak qaratqich kelishigi shaklini oladi. Masalan: **I have got something to tell you too//Mening ham sizga aytadigan bir gapim bor.** (*I.Sulton*). Bu gapdagi sifatdosh o'ram (**mening ham sizga aytadigan**)ning sub'ekt bo'lagi qaratqich kelishigi bilan shakllangan I shaxs, birlikdagi kishilik olmoshidir (**mening//my**). Asosiy predikatning sifatdosh o'ram aniqlayotgan sub'ekti (**gapim//something to say**) sifatdosh o'ramining sub'ekt bo'lagi bilan unga mos I shaxs, birlikdagi egalik qo'shimchasini olib moslashgan (**Mening sizga aytadigan gapim//Thing I wanted to say to you**). Bu holat esa sifatdosh o'ram bilan u aniqlayotgan bo'lak o'rtasidagi aloqa, bog'lanish nafaqat mazmuniy jihatdan, balki grammatik jihatdan ham benihoya mustahkam ekanligini ko'rsatadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bu tip tizimlardagi mazkur egalik qo'shimchalari va shunga mos ravishda qaratqich kelishigi sof egalik munosabatini, ya'ni otlardagi egalik kabi predmetning xosligini bildirmaydi, balki sifatdosh o'ramdagi sifatdoshdan iborat predikativ bo'lak ifodalagan harakatning

sub'ektini ko'rsatadi. Ye.A.Poseluyevskiy bunday tip tizimlar (ya'ni **mening aytadigan gapim** kabi)ni odatdagi ikki bo'lakli (“ega+kesim”, “aniqlovchi+aniqlanmish”, “to'ldiruvchi+to'ldirilmish” kabi) tizimlardan alohida farqlagan holda o'ziga xos “uch a'zoli (bo'lakli) tizimlar” deb ataydi va bu tizimlar turkiy tillar sintaksisining muhim xususiyatlaridan biri ekanligini, ayni paytda boshqa guruhdagi tillarning birortasida ham bunday tizimlarga barcha ikirchikirlari bilan mos tushadigan tizimlar yo'qligini ta'kidlaydi.

Sub'ekt bo'lak bilan predikativ bo'lakning aloqasidan iborat ikkinchi darajali predikatsiya asosidagi propozitsiyaning asosiy predikatsiya asosidagi propozitsiya bilan bir sodda gap doirasida osonlik bilan qo'shilishda mazkur egalik qo'shimchasi va unga mos qaratqich kelishigi alohida ahamiyatga ega. Bunda har uch shaxsdagi egalik qo'shimchasi ham ishtirok eta oladi. Quyidagi misollarda buni kuzatish mumkin: **Mening ham hozir uyda kutadigan hech kimim yo'q** (*N.Aminov*).//*There is nobody in the house to wait for me.* **Lekin o'zimning yotgan joyim dushmanga bilinib qolar edi.** (*P.Qodirov*).//*But the place I was hiding myself would be known to the enemy.* **Ha, boyvachchalarning ko'ngil ochadigan joylari ko'payib qolgan** (*I.Sulton*).//*Yeah, the rich men found more places to make merry.* **Xayolining kirmagan ko'chasi qolmadi** (*Y.Sulaymon*).//*There was nothing left for him to think about.*

Albatta, asosiy predikatsiyaning sub'ektini ifodalovchi bo'lakning egalik qo'shimchasi bilan va shunga mos holatda ikkinchi darajali predikatsiya sub'ekt bo'lagining qaratqich kelishigi shaklida kelgan holati ayni bo'laklar mazkur shakllarsiz shakllangan holatdan muayyan uslubiy maqsadga ko'ra farqlanadi. Bu uslubiy maqsad esa umumlashtirish va aniqlashtirishdan iborat, ya'ni mazkur shakllar ishtirok etganda, predikatlar mantiqiy jihatdan ta'kidlanadi, aniqlashtiriladi, aksincha holatda esa umumlashtirish ustun turadi. Qiyoslang: *The places for the rich men to make merry* - **Boyvachchalar ko'ngil ochadigan joylar.** *The places for the rich to make merry* - **Boyvachchalarning ko'ngil ochadigan joylari.**

Ko'p hollarda sifatdosh o'ram aniqlab kelishi lozim bo'lgan bo'lak tushib qoladi. Zero "aniqlovchi+aniqlanmish" munosabatidagi birikmada aniqlanmishning tushishi, boshqa turli tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham juda keng tarqalgan hodisalardan biridir. Buning natijasida sifatdosh o'ram butunisicha otlashadi. Shunga ko'ra aniqlanayotgan bo'lakdagi egalik qo'shimchasi ham o'ramdagi sifatdoshdan iborat predikativ bo'lakka o'tadi. Masalan: ***I scarcely remember our moving with my father and mother to your house early in the dark morning when I was young***//**Yosh pallamda dadam, ayam bilan birga shahardagi hovlingizga kelganim g'ira-shira yodimda bor (Oybek) gapidagi yosh pallamda dadam,ayam bilan birga shahardagi hovlingizga kelgan(im)** shaklidagi sifatdosh o'ram aniqlab kelishi lozim bo'lgan va asosiy predikatsiya sub'ektini ko'rsatuvchi **paytim** so'z shaklining tushganligini gapning umumiy mazmuniga ko'ra sezish mumkin. Shuning uchun ham mazkur sifatdosh o'ram otlashgan va ayni so'z shakli (**paytim**)dagi egalik qo'shimchasi (**-im**) ham unga o'tgan.

Ba'zi hollarda o'z sub'ekt bo'lagiga ega bo'lgan birdan ortiq sifatdosh o'ram birdaniga, uyushgan holda asosiy predikatning sub'ektini aniqlashi mumkin. Bunda mazkur sifatdosh o'ramlar gapning mazmunini murakkablashtirish bilan birga asosiy predikatsiya sub'ektining tashqi tavsifini tasvirlash uchun ham xizmat qiladi: **Qoshlari oftobda kuygan, yuzi kulrangroq bo'lib qoraygan odam allaqanday rangi aynigan kamzul kiyib olgan edi. (A.Muxtor)**//***With brows burnt in the sun, wiyh the face of dark grey, worn to a colorless old sleeveless coat.*** U yerda yonoq suyaklari bo'rtib turgan, cho'qqi soqoli yuziga yarashgan mo'ysafid mollarning tagini kurayotgan edi. *(T.Po'lat)*. **Suratda yelkalariga ofitserlik pogoni taqilgan, ozg'inligidan lunjlari ichiga botib ketgan qopqora bir yigit horg'ingina jilmayib turardi. (O.Yoqubov)**//***A black young fellow stood smoling in the photo.***

Sifatdosh o'ramlar gapdagi boshqa bo'laklar (aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol)ni ham aniqlab kelishi mumkin. Bunda ham gapda shakl va mazmun nomuvofiqligi yuzaga keladi.

Ko'p hollarda esa sifatdosh o'ramlar butunisicha otlashgan holatda asosiy predikatga ifodalangan harakatning ob'ektini ifodalab keladi. Boshqacha qilib aytganda, gap tarkibiga yoyiq to'ldiruvchi bo'lak sifatida kiradi, ya'ni sifatdosh o'ram butunisicha gapning zaruriy bo'lagi bo'lib qoladi. Bunda sifatdosh o'ramdagi nominalizatsiyaning kuchayishi bilan undagi predikativ mazmuning kamayganligi birmuncha yaqqolroq seziladi. Ayni paytda mazmun munosabatlarining bog'lanishi juda kuchli bo'ladi, chunki mazmuniy kirishuv, propozitsiyalar bog'lanishidagi zichlik ancha ortiq bo'ladi. Bu, albatta, bir propozitsiyaning (sifatdosh o'ramdaifodalangan) ikkinchi bir propozitsiya (asosiy predikatsiya ifodachisi bo'lgan gapda ifodalangan) tarkibiga muayyan uzv sifatida kirishi bilan izohlanadi. Masalan: *Shahlo couldn't know who said it*//**Bu gap kimdan chiqqanini Shahlo bilolmadi** (*Said Ahmad*) gapida o'z sub'ekt (**gap**) va predikativ (**chiqqan**) bo'laklariga ega bo'lgan **bu gap kimdan chiqanini** sifatdosh o'rami otlashganligi uchun ham tushum kelishigida shakllangan. Bu tushum kelishigi shakli esa mazkur sifatdosh o'ram asosiy predikat (**bilolmadi**)da ifodalangan harakat bevosita o'tadigan ob'ektini ifodalab kelganligini ko'rsatadi.

O'z sub'ekt bo'lagi sintaktik jihatdan ifodalangan bunday sifatdosh o'ramlar otlashib gapda hol sintaktik o'rnini deyarli egallay olmaydi, ya'ni ular gapdagi asosiy predikatning muayyan belgisini ifodalashni o'z ustiga olish imkoniyatiga deyarli ega emas. Chunki mazkur o'z sub'ekti sintaktik jihatdan ifodalangan sifatdosh o'ramlar butunisicha otlashib, bosh kelishik shaklda kelsa, asosiy predikatning sub'ektini ifodalaydi; qaratqich kelishigi shaklida juda kam keladi, kelganda ham predmetning qarashlilikini ifodalaydi; tushum va jo'nalish kelishigi shaklida kelsa, asosiy predikatning ob'ektini ifodalaydi; o'rin-payt va chiqish kelishigi shaklida kelsa, ergash gap bo'lib qoladi.

Ammo mazkur holatdagi sifatdosh o'ramlarning faqat juda kam hollarda jo'nalish kelishigi shaklida sabab holi sintaktik o'rnida kelishi kuzatiladi. Bunda ayni sifatdosh o'ramning sub'ekt bo'lagi ko'proq belgili qaratqich kelishigi shaklida bo'ladi. Bu o'rinda ham aytish lozimki, o'z sub'ekt bo'lagi sintaktik ifodalangan va butunisicha otlashgan sifatdosh o'ramlar jo'nalish kelishigi

shaklida sabab holi sintaktik o'rnida kelsa-da, asosiy predikatning aniq sabab belgisni bildirish bilan bir paytda mazkur asosiy predikatning vositali ob'ektini bildirishga birmuncha moyil bo'ladi. To'g'rirog'i, shakliy va ayni paytda mazmuniy jihatdan ham ob'ekt bildirishga tomon siljigan bo'ladi. Masalan: **Kichik pochchamning juda izzatli bo'lib ketganiga katta pochchamning ichida g'ashi kelardi** (*S.Siyoyev*)//*That young brother-in-law became respectable irritated my elder brother-in-law* gapidagi jo'nalish kelishigidagi **kichik pochchamning juda izzatli bo'lib ketganiga** sifatdosh o'rami asosiy predikatning sabab belgisini bildiradi, ayni paytda u asosiy predikatning ob'ektiga ham o'xshab ketadi yoki yaqinlashadi. Bu holat u darajada keng tarqalgan emas.

Ta'kidlash kerakki, mazkur sifatdosh o'ramlar muayyan o'ziga xos bo'lgan bir holatda otlashib, asosiy predikat ifodalagan harakatning payt (ba'zan sabab) belgisini bildirishi, ya'ni payt (ba'zan sabab) holi sintaktik o'rnini egallashi mumkin. Bu o'ziga xos holat shundan iboratki, sintaktik jihatdan ifodalangan sub'ekt, bir qarashda, sifatdosh o'ramdagi ikkinchi darajali predikatga tegishliday, asosiy predikatning sub'ekti esa bevosita sintaktik ifodalanmaganday tuyuladi: **When you heard that news you were in the nature**//**Siz qishloqda o'sha qo'shiqni eshitganingizda tabiat qo'ynida bo'lgansiz** (*O'.Hoshimov*). Bu gapda sintaktik jihatdan bevosita ifodalangan sub'ekt –**siz**. Bir qarashda u avvalo, **qishloqda o'sha qo'shiqni eshitganingizda** shaklidagi sifatdosh o'ramdagi **eshitganingizda** predikativ bo'lagining sub'ekti bo'lib, ayni chog'da asosiy predikat (**bo'lgansiz**)ga ham tegishli tuyuladi. Gap esa sintaktik jihatdan sodda, mazkur o'ram butunisicha asosiy predikatning payt belgisini bildirgan, ya'ni hol sintaktik o'rnida kelgan. Bu holat esa biz yuqorida oldinga surgan fikrlarimizni shubha ostida qoldiradi. Ammo mazkur holatga jiddiy diqqat qilinsa, II shaxs kishilik olmoshi orqali sintaktik jihatdan bevosita ifodalangan **siz** sub'ekti avvalo asosiy predikat (**bo'lgansiz**)niki ekanligini, biroq u ikkinchi darajali predikat uchun ham umumiy ekanligini sezish mumkin. Chunki butun sodda gapning kommunikativ maqsadi, tabiiyki, asosiy predikatsiyada ifodalanadi va shuning uchun ham asosiy predikatsiya ikkinchi darajali predikatsiyaga nisbatan mutlaqo

hokim vaziyatda bo'ladi. Shunga ko'ra ham mazkur sintaktik ifodalangan sub'ekt avvalo asosiy predikatga tegishli. Albatta, mazkur sub'ektning gapdagi o'rni ham qa'tiy emas. Uning o'rni uslub talabi bilan o'zgarishi ham mumkin: **Qishloqda o'sha qo'shiqni eshitganingizda siz tabiat qo'ynida bo'lgansiz.** Bu o'rinda aniq sintaktik ifodaga diqqat qilinayapti, aslida har ikki predikatdagi mavjud morfologik ko'rsatkichlar bir shaxsni ko'rsatib turibdi.

Bunday holatlar yuqoridagi fikrni shubha ostida qoldirmaydi, balki unga yana ham aniqlik kiritadi. Ya'ni sifatdosh o'ramlar otlashib, o'rin-payt va chiqish kelishiklari bilan shakllansa, undagi predikativ bo'lak bilan asosiy predikatning sub'ekti bir shaxsda bo'lgandagina sifatdosh o'ram payt va sabab holi sintaktik o'rnida kela oladi. Bunda ham gapning mazmun jihati murakkablashadi.

Sub'ekt bo'lagi sintaktik jihatdan bevosita ifodalanmagan sifatdosh o'ramlarda sub'ekt bo'lak, garchi sintaktik jihatdan bevosita ifodalanmagan bo'lsa-da, mazmuniy jihatdan asosiy predikatning sub'ekti, ob'ekti, belgisi yoki shu kabilari bilan o'z referentiga ko'ra bir xil bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur ikkinchi darajali predikatsiyaning sintaktik jihatdan ifodalanmagan sub'ekt bo'lagi asosiy predikatsiya ifodachisi bo'lgan gapda mazmunan mavjud bo'ladi. Ana shu asosiy va ikkinchi darajali predikatsiyalarni ifodalashda u yoki bu darajada qatnashuvchi muayyan bo'laklarning referent jihatdan bir xilligi bir sodda gap doirasida ikki yoki undan ortiq propozitsiyaning ifodalashini ta'minlaydi va, demak, gap mazmuniy qurilishining murakkablashishi uchun zaruriy sharoit yaratadi.

Bunday sifatdosh o'ram asosiy predikatning sub'ektini ifodalagan bo'lakni aniqlab kelishi mumkin. Bunda mazkur sintaktik ifodalanmagan sub'ekt bo'lak asosiy predikatning ana shu aniqlanayotgan ob'ekti bilan referent jihatdan bir xil bo'ladi, ya'ni u mazmunan mavjud. Yana ham aniqrog'i, asosiy va ikkinchi darajali predikatlarning sub'ektlari umumiy bo'ladi. Predikatsiyaning zaruriy uzvlaridan biri bo'lgan sub'ektlarning bunday umumiyligi asosida gap mazmuniy qurilishi murakkablashar ekan, ikki (yoki undan ortiq) mazmun munosabatlarning bog'lanishi juda zich, bo'ladi. Masalan: **Hali hech kimdan bunchalik maqtov**

eshitmagan Botirbekov juda erib ketdi (*P.Qodirov*)//*Batirbekov who never heard such a praising from anyone became very pleased* gapidagi hali hech kimdan bunchalik mqtov eshitmagan sifatdosh o'ramida eshitmagan predikativ bo'lagining sub'ekt bo'lagi sintaktik jihatdan bevosita ifodalanmagan. Ammo asosiy predikat (**erib ketdi**)ning mazkur sifatdosh o'ram aniqlab kelgan **Botirbekov** so'zi bilan ifodalangan sub'ekti mazmuniy jihatdan mazkur ikkinchi darajali predikat uchun ham sub'ekt bo'la oladi, ya'ni **Botirbekov eshitmagan**. Demak, asosiy va ikkinchi darajali predikatlarning sub'ektlari umumiy, o'z referentlariga ko'ra bir xil.

3.6. Ingliz va O'zbek tillaridagi gerundiyl predikativ qurilmalar va gaplar o'rtasidagi sintaktik sinonimiya.

Harakat nomi harakat-holatni predmet sifatida emas, balki jarayon holida bildiradi va shu harakat-holatning atamasi hisoblanadi. Shuning uchun ham bu shaxssiz fe'li shakli bir tomondan, mazmunan harakat bildirish, o'timli-o'timlisizlik, nisbat, boshqarish kabi fe'lga xos xususiyatlar bilan xarakterlansa, ikkinchi tomondan, otlashgan holatda qo'llanishi, turlana olishi bilan xarakterlanadi.

Harakat nomi $-(i)sh$, $-(u)v$ va $-moq$ qo'shimchalari bilan yasaladi. Ammo $-(i)sh$ qo'shimchasi bilan yasalgan shakl o'zbek tilida o'zining juda keng qo'llanishi, uslubiy jihatdan xolisligi, leksik-semantik jihatdan murakkabligi bilan boshqalaridan farqlanadi.

Harakat nomili tizimlar ham muayyan gapning nominalizatsiya maqsadidagi ko'chimidan iborat. Tilshunos A.Hojiyev ham $-(i)sh$ qo'shimchasi bilan yasalgan harakat nomi mustaqil gapga teng tizimni gapning kengaytirilgan biror bo'lagi vazifasida qo'llanuvchi tizimlarga aylantirishda ishtirok etishini alohida ta'kidlaydi. Boshqacha qilib aytganda, A.Hojiyev ham harakat nomili tizimlarni muayyan gapning u yoki bu tarzidagi ko'chimi sifatida baholaydi. Bunday ko'chimda mustaqil gapning gap bo'lmagan tizimga aylanishi barobarida

depredikatsiya yuzaga keladi: mustaqil gapda mavjud bo'lgan predikativ mazmun sezilarli darajada kamayadi, ya'ni u ikkinchi darajali predikatsiyaga aylanadi. Harakat nomining otlik xususiyati benihoya ortiq, u otga juda ham yaqin.

Predikativ mazmun darajasining nominalizatsiya darajasiga teskari nisbatda bo'lishiga ko'ra bunday harakat nomili tizimlardagi ikkinchi darajali predikatsiya darajasi juda ham kuchsiz bo'ladi. Ammo shunga qaramasdan, ikkinchi darajali predikatsiyali harakat nomili tizimlar ham muayyan propozitsiyani, mazmun munosabatini ifoda etadi.

Ikkinchi darajali predikatsiyali ana shunday harakat nomili tizimlar ishtirok etgan gap tarkibi ham sintaktik jihatdan soddaligicha qolgani holda uning mazmuniy tarkibi ikki propozitsiyaning qo'shiluvidan iborat bo'lib, murakkablashadi.

Aytish lozimki, ikkinchi darajali predikatsiyali harakat nomili konstruksiyalar kuchli darajada nominalizatsiyalashganliklari uchun ham deyarli substantiv holatda qo'llanadi. Boshqacha qilib aytganda, asosiy mazmun munosabatining "ichiga" muayyan mazmuniy uzv sifatida kiradi. Ikkinchi darajali predikatsiyali harakat nomili tizimlarni 2 guruhga ajratish mumkin: 1) sub'ekt bo'lagiga ega bo'lgan va 2) sub'ekt bo'lagiga ega bo'lmagan harakat nomili tizimlar.

Harakat nomili tizimlarning 1-guruhi gapda sintaktik jihatdan ega vazifasini bajarib, asosiy predikatning sub'ektini ifoda etishi mumkin, ya'ni tizimda ifodalangan propozitsiya asosiy propozitsiyaning "ichiga" sub'ekt sifatida kiradi, uning zaruriy mazmuniy uzviga aylanadi. Bu holat esa mazkur ikki propozitsiyaning zich aloqaga kirishuvi uchun zaruriy sharoit vazifasini o'taydi.

Bunda o'z sub'ekt bo'lagiga ega bo'lgan harakat nomili tizimning gapda ega vazifasida kela olishi ayni gapda kesim sintaktik o'rnini egallagan fe'lning ma'nosi bilan bog'liq, ya'ni har qanday ma'noli fe'l ham ayni tizimlarning gapda ega sintaktik o'rnini egallashga yo'l qo'yavermaydi. Chunki bu tizimlar ega sintaktik o'rnida kelganda, gapning sub'ekti propozitiv ifodaga ega bo'ladi. Propozitiv sub'ektning qo'llanish imkoniyati esa asosiy predikatning semantikasi

bilan chegaralanadi. O'zbek tilida, misollarning ko'rsatishicha, shuningdek, umumiy mantiqqa ko'ra muayyan fizik harakat ifodalaydigan fe'llar deyarli barcha hollarda propozitiv sub'ekt qo'llanishiga imkon bermaydi. Albatta, bu holat propozitiv sub'ektning mantiqan muayyan fizik harakat uchun bevosita bajaruvchisi bo'la olmasligi bilan izohlanadi. Kesim o'rnidagi fe'lning ma'nosi umuman fizik harakatdan iborat bo'lmaganda esa gapda propozitiv sub'ekt ifodasining qo'llanishi uchun imkoniyat mavjud bo'ladi. Masalan, turli hissiy, affektiv holat, umuman, ruhiy faoliyat va shu kabilarni ifodalovchi predikatlar propozitiv sub'ekt bilan bog'lana olishi mumkin, chunki ayni holatlar uchun muayyan propozitsiyaning sub'ekt olishi mantiqiydir. Demak, ana shunday semantikali fe'llar kesim o'rnida kelganda, gapdagi ega sintaktik o'rnini o'z sub'ekt bo'lagiga ega bo'lgan harakat nomli tizimlar egallashi mumkin. Masalan: **Qodirovning mag'rurlanishi Oyqizga yoqmasdi.** (*Sh.Rashidov*)//*Oikiz wouldn't like Kadirov's proud stature* gapidagi kesim o'rnidagi fe'l (asosiy predikat) semantikasining fizik harakatdan iborat emasligi **Qodirovning mag'rurlanishi**//*Kadirov's proud stature* shaklidagi harakat nomli tizimning ayni gapda ega sintaktik o'rnini egallashga imkon bergan. Bu harakat nomli tizim o'z sub'ekt bo'lagiga ega, bu sub'ekt bo'lak qaratqich kelishigadagi **Qodirovning** so'z shakli bilan ifodalangan. Bu tizimning gapdagi mazkur sintaktik o'rniga ko'ra unda ifodalangan propozitsiya asosiy predikat (yoqmadi)ning sub'ekti sifatida kelgan. Boshqacha qilib aytganda, bu propozitsiya asosiy propozitsiyaning "ichiga" sub'ekt sifatida kirgan, uning zaruriy mazmuniy uzviga aylangan va shu tarzda bu ikki propozitsiya o'zaro juda zich aloqaga kirishgan. Mazkur gap sintaktik jihatdan sodda, lekin uning mazmuniy tarkibi murakkablashgan, natijada sodda gapda kuchsiz semantik-sintaktik nomuvofiqlik yuzaga kelgan.

Bunday tizimlarning tushum kelishigi shaklida kelib, asosiy predikatning vositasiz ob'ektini (vositasiz to'ldiruvchi) ifodalash hollari juda ham keng tarqalgan. Bunda ham kesim sintaktik o'rnidagi fe'l (asosiy predikat)ning semantikasi hal qiluvchi rol o'ynaydi: **Men bobomning qadrdon qishlog'imiz**

Qamchinda qolishini juda-juda istar edim (N.Rahmat).//I was earnestly wishing my grandfather to remain in our village Kamshin.

Harakat nomili tizimlar ko'chirma gapli tizimlarni o'zlashtirma gaplarga aylantirishda ham juda keng qo'llanadi.

III Bob bo'yicha xulosa

Insonning dunyoni bilish jarayonida qiyoslash juda katta ahamiyatga ega. Ikki yoki undan ortiq predmetni ular o'rtasidagi o'xshashlik yoki farqli tomonlarni aniqlash maqsadi bilan qiyoslash tashqi olamning bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri bo'lib, u inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda o'z ifodasini topadi.

Qiyosiy gaplarning mazmuniy tarkibida mantiqiy kategoriya bo'lmish ana shu qiyoslash aks etadi. Bunday gaplar dunyo tillarining deyarli barchasida mavjud, ammo ularning qurilishi, shakllanish qonuniyatlari har bir tilda muayyan xususiy tomonlar bilan xarakterlanadi.

O'zbek tilidagi qiyosiy sodda gaplar bir qancha o'ziga xos tomonlarga ega.

Mantiqiy jihatdan qaraladigan bo'lsa, qiyosiy sodda gaplarda ifodalanadigan hukmning qurilishi boshqa har qanday gapda ifodalanadigan hukm qurilishidan sezilarli farq qiladi. Aritoteldan boshlangan va hozirgacha davom etib kelayotgan formal logikaga ko'ra har qanday hukm ikki qismdan, ya'ni ikki a'zodan – sub'ekt va predikatdan iborat. Ammo qiyosiy sodda gaplarda ifodalanadigan hukmning tarkibi ham aynan shundaymi? “Qiyosiy hukmlarning tarkibi odatdagi hukmlardan farq qiladi: ularda fikrning tugalligi faqat hukmning ikki bosh bo'lagiga bog'liq emas, balki qiyosning ikkinchi ob'ekti sifatidagi uchinchi bo'lakka ham bog'liqdir. Agar ikki a'zoli hukmning tarkibi S – P bo'lsa, qiyosiy hukmning tarkibi S –P – S dir”. Har qalay, bu uch a'zoli hukm konsepsiyaning to'g'ri yoki noto'g'riligidan, ko'pchilik tomonidan tan olinganligi yoki tan olinmaganligidan qa'tiy nazar, ana shu konsepsiyaning yuzaga kelganligining o'zi qiyosiy hukmlarning o'ziga xosligini, anchayin murakkabligini

ko'rsatadi. Ana shunday hukmlar ifodalanadigan qiyosiy sodda gaplar mazmuniy qurilishining murakkab bo'lishini aytish mutlaqo mantiqiydir.

Bunda ko'chirma gap predikatsiyasi ikkinchi darajali predikatsiyaga aylanadi va bu ikkinchi darajali predikativ ifoda hamisha asosiy predikatning vositasiz ob'ektini ifodalab keladi. Albatta, bunda asosiy predikat hamisha nutq fe'llaridan iborat bo'ladi. Shuning uchun ham nutq fe'llari mazmun valentligining yuzaga chiqaruvchilaridan biri sifatida tushum kelishigidagi harakat nomili tizimlarni ta'kidlab ko'rsatiladi. Demak, asosiy predikat nutq fe'llaridan iborat bo'lganda ham vositasiz to'ldiruvchi vazifasida ayni tizimlarning qo'llanishi uchun imkoniyat yaratiladi. Ko'chirma gapda ifodalangan propozitsiya ayni tizim orqali ifodalanib, bu tizim gapda to'ldiruvchi o'rnini egallar ekan, sintaktik qo'shma gap sintaktik sodda gapga aylanadi. Ammo uning mazmuniy tarkibi ikki propozitsiyaning qo'shiluvi tarzida murakkablashadi. Buning natijasida gapdagi mazmuniy va sintaktik qurilish o'rtasidagi mavjud muvofiqlik buziladi va nomuvofiqlik yuzga keladi.

Mazkur harakat nomili tizimlar turli kelishik shakllarida kelib, gapda yuqoridagilardan tashqari yana vositali to'ldiruvchi, hol, ba'zan aniqlovchi sintaktik o'rinlarini ham egallab kelishi mumkin.

Sub'ekt bo'lagi bo'lmagan harakat nomili tizimlar sub'ekt jihatdan xolis bo'lib, ular ham turli kelishik shakllarida kelib, gapda muayyan sintaktik o'rinni egallaydi, ularda ifodalangan mazmun munosabati asosiy mazmun munosabati tarkibiga muayyan mazmuniy uzv sifatida kiradi va demak, shu tarzda ikki propozitsiyaning qo'shiluvi amalga oshadi.

Shakl va mazmun nomuvofiqligi shart fe'lli tizimlar bilan murakkablashgan sodda gaplarda ham kuzatiladi.

YAKUNIY XULOSA

Gap mazmunini tuzilish tarxlari asosida tahlil qilish N.Yu.Shvedova asarlarida o'z ifodasini topdi.

Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari gapning nominativ minimum uzvlarning leksik ma'nolariga asoslanadi. Bunga muvofiq, gapning mazmuniy tuzilishi tuzilish tarxlari doirasida emas, balki undan tashqarida ajratiladi. Tuzilish tarxlari va mazmuniy tuzilishi bir-biridan bilan kesishmaydigan yonma-yon qatorlarga teriladi.

Mazmuniy sintaksisning keying yutuqlari gapga nominativ vazifa bajaruvchi birlik deb qarashga olib keldi. Gapga ob'ektiv borliqdagi voqeaning nomini ifodalovchi birlik sifatida yondashiladi. Voqea propozitsiya atamasi bilan nomlanadi. Demak, gap propozitsiya nomi hisoblanadi va u predmet nomi bo'lgan so'zga qarama-qarshi qo'yiladi.

Predikat va voqea ishtirokchilari o'rtasidagi munosabat gapning mazmunini tashkil etadi.

Voqea va uni ifodalovchi gap o'rtasidagi munosabat ikki yo'nalishda – ifoda tomonidan ma'no tomoniga qarab va aksincha, ma'no tomonidan ifoda tomoniga qarab o'rganiladi. Birinchisi, nutqiy faoliyatdagi tushunish hodisasini, ikkinchisi esa ifodalash hodisasini namoyon qiladi. Bunga muvofiq, mazmuniy sintaksisda ham o'zaro bog'langan va ayni paytda yo'nalishiga ko'ra bir-biriga zid bo'lgan ikki qarash: semasiologiya va onomasiologiya ajratiladi.

Birinchisi, ma'lum sintaktik birlik nimani ifodalashini, ikkinchisi ma'lum voqea qanday ifodalanganini o'rganadi.

Birinchi yo'nalish gap ma'nosi ob'ektiv borliq bilan bog'langanligi uchun voqeani, vaziyatni aniqlashga va tahlil qilishga alohida ahamiyat beradi. Tahlilning bu tomonini gapning denotativ yoki nominativ aspekti deyiladi.

Propozitsiya faqat gap orqali ifodalanishi shart emas. U so'z birikmasi va hatto so'zlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan: reja bajarildi – rejaning bajarilishi.

Demak, ma'lum bir sintaktik qurilma gap bo'lishi uchun ma'lum propozitsiyani ifodalashdan tashqari yana boshqa belgilarni – kommunikativ mustaqillik va modallik belgilariga, boshqacha aytganda, gapning grammatik kategoriyalariga ega bo'lishi kerak. Masalan, yuqorida solishtirilgan ikki sintaktik qurilma bir propozitsiyani ifodalash jihatidan umumiylikni hosil qiladi. Lekin propozitsiyani qanday ifodalash jihatidan bir-biridan farq qiladi. Birinchisi predikativlik, kommunikativlik, modallik kabi kategoriyalarga ega bo'lib, gap sifatida shakllangan. Ikkinchisi esa bunday kategoriyalarga ega emas. Shuning uchun gap bo'lib shakllana olmagan.

Demak, har qanday gap mazmunida ma'lum propozitsiyadan tashqari predikativlik, so'zlovchining kommunikativ niyati (tema-remajratish) ishtirok etishi kerak bo'ladi.

Boshqacha aytganda, propozitsiyadan real gap mazmuniga o'tish uchun propozitsiya ustiga yana ikki unurni – predikativlikni va aktuallikni qo'shish kerak bo'ladi. Keying ikki unsur har qanday gapning mazmuniy tuzilishining zaruriy uzvlari hisoblanadi.

Ravishdosh o'ramlar ham xuddi sifatdosh o'ramlar kabi muayyan gaplarning ko'chimi (transformatsiyasi)dan iborat, ya'ni gaplardan shakllangan. Ammo ravishdosh o'ramlardagi nominalizatsiya darajasidan deyarli farq qiladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur ko'chimning maqsadi bo'lgan nominalizatsiya shu ko'chim natijasida shakllangan ravishdosh o'ramlarda sezilarli darajada kuchsiz bo'ladi. Ma'lumki, nominalizatsiya darajasi predikativ mazmun darajasiga teskari nisbatda bo'lib, ravishdosh o'ramlarda voqe bo'ladigan depredikatsiya sifatdosh o'ramlarda voqe bo'ladigan depredikatsiyaga qaraganda birmuncha kuchsiz. Yana ham aniqroq qilib aytganda, ravishdosh o'ramlardagi predikativ mazmun sifatdosh o'ramlardagiga nisbatan ham sezilarli darajada ortiq, ravishdosh o'ramlardagi ikkinchi darajali predikatsiya yana ham aniq sezilib turadi.

Ravishdosh o'ramlar gapdagi asosiy harakatga belgi sifatidagi qo'shimcha harakat, holat va shu kabilarni ifodalaydi. Ikkinchi darajali predikatsiyali bunday

ravishdosh o'ramlar ishtiroki bilan sodda gapning mazmuniy tarkibi murakkablashadi.

Ravishdosh o'ramlar o'zining alohida sub'ekt bo'lagiga ega bo'lishi yoki bo'lmasligiga ko'ra 2 ga ajratiladi: 1) o'zining alohida sub'ekt bo'lagiga ega bo'lgan ravishdosh o'ramlar; 2) o'zining alohida sub'ekt bo'lagiga ega bo'lmagan ravishdosh o'ramlar.

O'zining alohida sub'ekt bo'lagiga (egasiga) ega bo'lgan ravishdosh o'ramlar ergash gaplar sifatida baholanadi.

O'zining alohida sub'ekt bo'lagiga ega bo'lmagan ravishdosh o'ramlardagi ikkinchi darajali predikatsiya ayni o'ramlarni gapga aylantirmaydi. Bunday ravishdosh o'ramlar butunisicha muayyan mazmunni ifoda etib, gapda, asosan, hol sintaktik o'rnini egallaydi. Shunga ko'ra bunday o'ramlar qatnashgan gap tarkibi sintaktik jihatdan soddaligicha qolgani holda mazmuniy jihatdan murakkablashadi va demak, ayni gap tarkibida sintaktik va mazmuniy jihatdan nomuvofiqlik yuzaga keladi. Ana shu tarzda bir sodda gapda ikki yoki undan ortiq mazmun munosabati joylashishi mumkin.

Tabiiyki, bir sodda gap doirasida ikki yoki undan ortiq semantik propozitsiyaning joylasha olishi uchun muayyan zaruriy mazmuniy sharoit imkoniyat yaratadi. Mazkur ravishosh o'ramlarda ifodalangan ikkinchi darajali predikatsiyaning o'zi ham ikki yoki undan ortiq mazmun munosabatlarning bog'lanishida mutlaqo zaruriy omildir. Ammo ayni ikkinchi darajali predikatsiya bilan gapdagi asosiy predikatsiya o'zaro munosabatga kirishuvi uchun ularning muayyan uzvlari o'rtasida muayyan aloqadorlik bo'lishi lozim. Ana shu aloqadorlik esa mazmunlar bog'lanishi uchun zaruriy sharoit vazifasini bajaradi. Ikkinchi darajali predikatsiyali ravishdosh o'ramlar ishtirok etgan gaplarda mazmuniy bog'lanishning ana shunday zaruriy sharoiti asosiy va ikkinchi darajali predikatlar sub'ektlarining umumiyligidan iborat.

Ravishdosh shakllarining bir necha xili mavjud:

1. –a//–y qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdosh shakllantirgan ikkinchi darajali predikatsiyali o'ram. Ikkinchi darajali predikatsiyali bunday ravishdosh

o'ramlarning predikativ bo'lagi bo'lmish ravishdosh, asosan, takror yoki juft holda qo'llanadi. Ikkinchi darajali predikatsiyali ana shunday ravishdosh o'ramlar ishtirok etgan gaplar sintaktik jihatdan soddaligicha qolgani holda ularning mazmuniy tarkibi ikki yoki undan ortiq propozitsiyaning qo'shiluvidan iborat bo'ladi. Har ikki propozitsiya ham muayyan bir sub'ektni xarakterlaydi, ya'ni asosiy predikatning ham, ikkinchi darajali predikatning ham sub'ekti umumiy bo'ladi. Bunday hollarda mazkur qo'shiluv munosabatida ikkinchi darajali predikat ifodalagan harakatning davomliligi va tugallanmaganligini, shuningdek, uning asosiy propozitsiyadag harakat bilan bir paytda sodir bo'lishi kabi qo'shimcha ma'no noziklari ham yuzaga keladi. Ana shu umumiy asosida ikki propozitsiya osonlik bilan aloqaga kirishgan va gap sintaktik jihatdan soddaligicha qolgani holda uning mazmuniy qurilishi murakkablashadi. Ayni paytda ikkinchi darajali predikat takror holda qo'llangan ravishdosh orqali ifodalanganda ham ayni harakatning davomliligi va bu davomli harakatning asosiy predikatdagi harakat bilan bir paytda sodir bo'lganligidan iborat qo'shimcha ma'no nozikligi ham sodda gapda o'z aksini topadi.

2. –(i)b qo'shimchasi bilan yasalgan ravishdosh shakllantirgan ikkinchi darajali predikatsiyali o'ram. Ikkinchi darajali predikatsiyali bunday ravishdosh o'ramlar o'zbek tilida qo'llanishiga ko'ra juda ham faol bo'lib, ular ishtiroki bilan sodda gapning mazmuniy tarkibi murakkablashadi. Bu holda ham ikki yoki undan ortiq propozitsiyaning bir sodda gapdagi qo'shiluvi uchun asosiy va ikkinchi darajali predikatlar sub'ektlarining referentlariga ko'ra umumiyliigi zaruriy sharoit vazifasini o'taydi. Bu xildagi mazmuniy qo'shiluvda esa juda ham xilma-xil qo'shimcha ma'no noziklari ifodalanadi.

Ikkinchi darajali predikatsiyali ravishdosh o'ramalar ishtiroki bilan ikki yoki undan ortiq mazmun munosabatining sub'ektlarining umumiyliigiga ko'ra qo'shiluvi natijasida sodda gap mazmunan murakkablashar ekan, ikkinchi darajali predikatdagi harakatning asosiy predikatdagi harakatdan oldin bajarilganlik ma'nosidan iborat qo'shimcha ma'no juda ham aniq ifodalanadi. Demak, asosiy va ikkinchi darajali predikatlarning sub'ektlari umumiy bo'ladi. Sub'ektlarning bu

umumiyligi sodda gap doirasida ikki propozitsiyaning qo'shiluvi uchun zaruriy sharoit sifatida imkoniyat yaratadi, sintaktik sodda gapning mazmuniy tarkibi murakkablashadi. Ayni paytda ikkinchi darajali propozitsiyadagi harakat asosiy propozitsiyadagi harakatdan oldin sodir bo'lganligi ko'rinib turadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston,2000.-528 b.
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. “Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga javoblar. - T.: O'zbekiston, 2000. -40 b.
3. Karimov I.A. Hayotimizning taraqqiyotimizning huquqiy asosi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'n yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq., 2000 yil, 5 dekabr. – T.: O'zbekiston, 2002. -48 b.
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. –T.: O'zbekiston, 2001. -432 b.
5. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-tom. – T.: O'zbekiston, 2003. -320 b.
6. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: O'zbekiston, 2005. - 96 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: O'zbekiston, 2005. -144 b.
8. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T.13. – T.: O'zbekiston, 2005. -448 b.
9. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. O'zbekiston konstitutsiyasining 13 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2005 yil, 7 dekabr. – T.: O'zbekiston, 2005. -48 b.
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus Ta'lim vazirligi 2405 buyrug'i. “Magistratura to'g'risidagi Nizom, 2012 y, 29 oktyabr.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24 iyuldagi PF-4456-son “Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risidagi” farmoni.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", PQ-1875 sonli qarori.
13. A Handbook of Present Day English, part II, 3,p. 235-236.
14. Ashurov Sh. S. Ingliz va o'zbek tillarida kesim tipologiyasi. Nom. diss, Samarqand, 2007.
15. Blokh M.Y. A Course in Theoretical English Grammar. Moscow, 1983.
16. Buranov J. Ingliz va O'zbek tillari qiyosiy grammatikasi. Toshkent, 1973.
17. Buranov J., Hoshimov U., Ismatullayev H. English Grammar, Tashkent, 1974.
18. Bushuy T., Safarov Sh. Til qurilishi: tahlil metodlari va metodologiyasi. Toshkent, 2007.
19. Chomskiy N. Structures 'S' – Gravenhage, p1. Harris Z.S. Co-occurrence and Transformation in Linguistic Structure, "Language", vol.3,№3(Part I), 1957, pp283-340.
20. Curme G. OA Grammar of the English Language, vol.2. 1931.
21. Daniyeva M.J. Ingliz tilida otli so'z birikmalarining derivatsion-funksional va matn shakllantirish xususiyatlari. Nom.diss.avtoref., Samarqand,2012.
22. Dean Stoddard Worth, Transform analysis of Russian instrumental constructions "Word", vol.14,№2-3, New York, 1958, p247-290.
23. Fernald J. English Grammar Simplified. New York,1963.
24. Francis W.N. The Structure of American English, New York, 1998.
25. Fries Ch.The Structure of English, New York,1956.
26. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent, 1987.
27. Gordon E.M., Krylova I.P. A Grammar of Present Day English. Moscow, 1974.
28. Guziyva K.A. Kostigina S.I. The Infinitive, English Grammar. СПб, 2000.
29. Hozirgi o'zbek adabiy tili, II tom. Sintaksis. T., 1966, 119-bet.
30. Ilyish B.A. The Structure of Modern English. Leningrad, 1971.

31. Jespersen O. A Modern English Grammar on Historical Principles. Copenhagen, 1954.
32. Jespersen O. Essentials of English Grammar, London, 1933.
33. Jespersen O. The Philosophy of Grammar, London, 1935.
34. Khaimovich B.S., Rogovskaya B.I. A Course in English Grammar, Moscow, 1967.
35. Komilova X. O'zbek tilidagi to'ldiruvchilar haqida. A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot institute asarlari. 1-kitob. T., 1949, 148-bet.
36. Kruisinga E. A Handbook of Present Day English. P.II. Groningen, Noordhoff, 1931.
37. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili T., 1966, 189-bet.
38. Morokhovskaya E.J. English Grammar through Practice, Leningrad. 1973.
39. Nurmonov A. Tilni sistemali o'rganish va sintaksisning ayrim munozarali masalalari//O'zbek tili va adabiyoti. 1988, №5.
40. O'zbek tili grammatikasi II tom. Toshkent, 1976.
41. Omonturdiyev J. Kesimning strukturasi ko'ra klassifikatsiyasi//O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 1960. №7.
42. Potter S. Changing English. Leningrad, 1979.
43. Poutsma H. A Grammar of late Modern English. London, 1929.
44. Quirk B., Greenbaum S., Leech G., Svartvik J. A University Grammar of English. Mosco, 1982.
45. Rayevska N. Modern English Grammar, Kiev, 1967.
46. Roderick A., Jokobs, Peter S., Rosenbaum, Paul M, Postel. English Transshakltional Grammar, London, 1968.
47. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik, Jizzax, 2006.
48. Slobodkina N.A., Abduraimova B.Yu., Rustamova Z.H., Tukliyeva G.N., A Practical English Grammar, Tashkent, 2007.
49. Sweet H. A New English Grammar, Logical and Historical part. I Oxford, 2006.
50. Theoretical Grammar through practice 1973. p85.

51. Tojiyeva O.M. O'zbek tilida ot predikat gaplarning mazmuniy va sintaktik tuzilishi. Nom.diss.Toshkent,1995.
52. Usmonov U. Gap tahliliga yangicha yondashuv, SamDCHTI, Samarqand, 2004.
53. Usmonov U. Talabalarga sintaktik tahlilni o'rgatishga doir ayrim mulohazalar, SamDCHTI, Samarqand, 2001.
54. Адмони В.Г. Второстепенные члены предложения в русском и немецком языках // учен Зап; ЛГПИИ им. А.И. Герцена, 1960.
55. Александр Н.М. Проблемы второ степенных членов предложения в русском языке // Учен зап, Ленинград, 1963.
56. Алексеева В.А. Функционирование неличных форм глагола в различных стилях речи // Вопросы грамматической структуры предложения и текста в английском языке Москва, вып. 247, 1987.
57. Аракин В.Д. Сравнительная типологик Английского и русского языков. Москва, 1979.
58. Афанасьев П.А. Выражение подтверждения и отрицания в ответных репликах в современном английском языке// Английская филология, Каснодар, 1967.
59. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Москва, 1969.
60. Ашурова Д. Лингвистико текста, Т.2013.
61. Бабайцева В.В., Максимов Л.Ю. Современной русский язык. Москва, 1981.
62. Бадхен М.В. Понятие пространственной локализации и его интерпретация в английском языке. // Лингвистические исследования, Москва, 1986.
63. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. Москва. 1955. Стр 43-48.
64. Бархударов Л.С. Очерки по морфологии современного английского языка. Москва, 1975.

65. Белошапковой В.А. Современный русский язык. Под.ред. М., 1981, стр 475.
66. Буслаев Ф.И. Историческая грамматика русского языка. Москва, 1959.
67. Валгина Н.С. Синтаксис Современного русского языка. Москва, 2000.
68. Ветерова О.Г. Вокативные синтаксические единицы в современном английском языке. АКД, Ленинград, 1980.
69. Виноградов В.В. Грамматика русского языка. Москва, 1954.
70. Винокурова Л. П. Грамматика английского языка. Москва, 1954.
71. Воронцова Г.Н. Вторичный предикат в английском языке. “Иностранный языке в школе”, 1950, №6, стр47.
72. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. Москва, 1989.
73. Гиро-Вебер М. Классификация простого предложения в современном английском языке // Вопр. Яз-ния 1979, № 6.
74. Дудучова Р.Е. Структура неполносоставных предложений английской диалогической речи. АКД, Тбилиси, 1966.
75. Жигадло В.Н., Иванова И.П. Иофик Л.Л. Современный английский язык. Теоритический курс. Москва, 1956.
76. Звегинцев В.Г. Проблемы значения в современном языкознании // Новое в лингвистики. Вып 2. Москва, 1968.
77. Золотова Г. А. Очерк функционального синтаксиса русского языка. Москва, 1973.
78. Иванова И.П., Бурлакова В.В., Почепцов Г.Г. Теоретическая грамматика современного английского языка. Москва, 1981.
79. Керт Г.И. О противоречивость некоторых критериев при определении второстепенных членов предложения // Вопросы грамматики и лексикологии. Москва-Ленинград, 1963.
80. Козлова С.Н. Утожняющие гленк предложения как синтаксическая категория в современнаи англискийким языке. Научная конференция

“Проблемы синхронного изучения грамматического старая языка”. Тежы докладов и сообщений. 1-й МГПИИЯ ит. М.Тореза, М. 1965, стр. 99-101.

81. Кокла В.Н. Сочетание герундия с предлогод в современаи английском языке (канд диссерт) М. 1963.

82. Колшанский Г.В. Логика и структура языка. Москва, 1965.

83. Корнаухова А.А. Непольные предаточные предложения в современном английском языке. АКД, Киев, 1982.

84. Крушелиицкая Г.К. Трансформационный метод и проблема знания. – В сб.: Иностранные языки в высшей школе. Тематический сборник 1-й МГПИИГ. Вып. III, М., 1964 Изд-во “Высшая школа” стр.10

85. Куклина А.В. Синтаксические функции инфинитива в составе глагольных инфинитивных конструкций. // Вест. Самарск. Ун-та, Самара, 2006.

86. Литвищенко Г.С. Синтаксический анализ одноядерных эмотивных предложений в современном английском языке. АКД, Ленинград, 1972.

87. Логика и структура языка. Москва 1965

88. Маматов А. Норма в языке, Джамбул, 2004.

89. Мардвелко А.П. Современный русский язык. Синтаксис. Подред В.В. Решетова. Ташкент 1977.

90. Махкамова Г. Лингвокультурная компетенция и методы и формировани. Т.2011.

91. Москальская О.И. Проблемы системного описания синтаксиса. М., 1974, стр 9-19.

92. Мухин А.М. Аппозитивная связь в структуре предложения (на материале русского языка)//Исследования по славянской филологии. МГУ, 1976.

93. Мухин А.М. Лингвистический анализ. Теоретические и методологические проблемы. Ленинград, 1976.

94. Мухин А.М. Синтаксемный анализ и проблемы уровней языка. Ленинград, 1980.

95. Мухин А.М. Структура предложения и их модели. Ленинград, 1968.
96. Мухин А.М. Функциональный синтаксис, функциональная морфология, функциональная лексикология. СПб, 2007.
97. Мухин В.Н. Отношения между частями речи и членами предложения//НДВШ, Москва, 1959.№1
98. Пешковский А.А. Русский синтаксис в научном освещении. Москва, 1956.
99. Потебня А.А. Из записок по русской грамматике. Москва, 1958.
100. Расулова М. Лексическая категоризация в языке. Т.2005.
101. Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. Москва, 1957.
102. Уорс Д.С. Трансформационный анализ конструкций с творительным падежом в русском языке. – В сб.:Новое в лингвистике. Вып.П. изд-во иностранной литературы, М., 1962, стр. 654-682.
103. Усмонов У. Диалогическая речь как порождающий фактор неполных предложений. Самарканд, 1999.
104. Усмонов У. Компонентный и синтаксемный анализ неполных предложения и их применения в сравнительной типологии. Самарканд, СамДУ, 1992.
105. Хлебникова И.Б. Система английского глагола и сослагательное наклонение. Автореферат док.дисс. М. 1965, стр15-16.
106. Храковский В.С. Концепции членов предложения в русском языкознании. XIX века, Вкн: Грамматические концепции в языкознании XIX века. Ленинград, 1985.
107. Чориев А. Синтаксико-семантические признаки родительного падежа в узбекском и английского языках. Ташкент 1990.
108. Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. СПб, 1941.
109. Шерстова Е.Н. Развитие словосогетаний с герундием в английском языке (канд диссерт) Л. 1964.
110. Щерба Л.В. О второстепенных членах предложения//Избран. Работы по языко-нию и фон-к Т.1 ЛГУ, 1958.

111. Ягодникова В.Н., Шамрай Л.А., Драга Л.П. Грамматика английского языка в таблицах. Неличные формы глагола. Киев, 1989.

Internet manbalari:

112. <http://www.referat.ru>

113. http://www_englishbiz.co.uk.htm